



Tal'at G'AFFOROVA

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR



O'qituvchi kitobi



TAL'AT G'AFFOROVA

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

*Boshlang‘ich ta’lim o ‘qituvchilari hamda
boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish
yo ‘nalishi talabalari uchun o ‘quv qo ‘llanma*

«TAFAKKUR» NASHRIYOTI
TOSHKENT – 2011

UDK: 811.512.133(072)

74.202.4

G'29

G'afforova, Tal'at

Boshlang'ich ta'limdi zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma/T.G'afforova. – T.: Tafakkur, 2011. – 160 b.

BBK 74.202.4ya722

T a q r i z c h i l a r :

prof. R.A.Mavlonova

prof. J.G'.Yo'doshev

prof. A. Choriyev

prof. A. Jabborov

dots. Sh. Nurullayeva.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining
2010-yil 17-iyundagi 234-sonli buyrug'i asosida nashrga tavsiya
etilgan. (Sertifikat № 234-105)*

Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bugungi kun talabi. Ayniqsa boshlang'ich sinfda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanim darslarni tashkil etish ta'limga samaradorligini ta'minlaydi. Ushbu qo'llanmada boshlang'ich ta'limdi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash yo'llari va usullari bayon etilgan bo'lib u boshlang'ich ta'limga fani o'qituvchilarini faoliyatiga amaliy yordam beradi hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'limga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o'quvchilarda o'qish motivlarini o'stirish, ta'limning ta'sirchanligi va samaradorligini ta'minlash yo'llari va usullari bilan tanishtiradi.

ISBN 978-9943-24-004-9

© «Tafakkur» nashriyoti, 2011

SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo‘nalishlarini belgilab berdi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta’limni tubdan isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib berildi. Unda «Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi», deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, dasturda: «Ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmularini yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minalash» umumiy o‘rtta ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan edi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Maktab ta’limini rivojlantirishning Davlat umummilliy dasturi»ning ijrosi amalda nihoyasiga yetkazildi. 9 yillik umumta’lim maktab bosqichini va 3 yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim bosqichini o‘z ichiga olgan uzluksiz yaxlit ta’lim tizimi yaratildi».¹

Endigi vazifa bu tizimni taraqqiy ettirish va barkamol avlod tarbiyasini yuqori darajada tashkil etishdir.

Prezidentimiz I.Karimov «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdir» mavzusidagi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi nutqida: «Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lom o‘sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo‘lgan, uyg‘un rivojlangan insonlar bo‘lib, XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yanmiz»,² – degan

¹ I.Karimov «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdir». T.: O‘zbekiston, 2010-y. 48-bet.

² O‘sha joyda: 74–75-b.

edi. Bunday ulug‘ maqsadni amalga oshirish sohasidagi vazifalar «Barkamol avlod yili» Davlat dasturuda ham belgilab berildi.

Prezidentimiz tomonidan kelajak avlod tarbiyasiga berilayotgan bunday katta e’tibor ta’lim tizimi va pedagoglar zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalarni amalga oshirish chuqur bilim va katta mahoratni talab etadi. Ta’lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta’limi olgiga qo‘yilgan muhim vazifalardir.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta’lim jarayonida o‘qituvchi faoliyati va o‘quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta’limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko‘rsatiladi.

Bugungi kunda ta’lim jarayoniga yangi axborot texnologiyalarining kirib kelishi jadallashmoqda va bu ta’lim jarayonini yanada sifatli tashkil etishga ta’sir ko‘rsatayotgani ko‘zga tashlanmoqda.

Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish, ta’lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang‘ich sinflarda o‘qituuvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta’limning yangi-yangi yo‘l va usullarini izlashi, ilg‘or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kelgusi faoliyatga tayyorlashda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga tayyorlash bugungi oliy ta’lim oldiga qo‘yilgan muhim talablardan biridir. Chunki zamonaviy pedagogik texnologiyalar *birinchidan*, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarni oson va qiziqib o‘rganishlari uchun imkoniyat yaratса, *ikkinchidan*, o‘qituvchining ham professional o‘sishiga, ham ma’naviy rivojlanishiga yordam beradi.

Mazkur qo‘llanmada boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishning nazariy va amaliy asosla-

ri ishlab chiqilgan. Bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo'llari va usullari bilan tanishtiradi. Shuningdek, qo'llanmada boshlang'ich ta'lim jarayoni loyihasini tuzish, dars algoritmini ishlash, darsning modulini ishlab chiqish, modulli darslarni tashkil etishga doir amaliy yo'llanmalar ham berilgan. Qo'llanma ikki qismidan iborat bo'lib, birinchi qismida boshlang'ich sinfda zamonaviy texnologiyalarning nazariy asoslari, ikkinchi qismida esa boshlang'ich sinf o'qituvchilari va shu ixtisoslik bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun amaliy yo'llanmalar berilgan. Unda o'qituvch uchun o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish sohasida aniq ko'satmalar mavjид.

Qo'llanma birinchi marta tayyorlanayotganligi uchun ham kam-chiliklardan xoli emas. Bu sohadagi fikr va mulohazalarni bajonidil qabul qilamiz.

**I bo‘lim. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA
ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING
NAZARIY ASOSLARI**

**1-mavzu: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar fanining
predmeti va vazifalari**

R e j a :

1. O‘zbekistonda Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi zamona-
viy pedagogik texnologiyalarni yaratish haqida.
2. Pedagogik texnologiyaning rivojlanish bosqichlari.
3. Zamonaviy pedagogik texnologiyaning predmeti va vazifa-
lari.
4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rganish muammo-
lari.

Asosiy tushunchalar: texnologiya, pedagogik texnologiya, za-
monaviy pedagogik texnologiya, jahon andozalari, o‘quv-uslubiy
majmualari, tizim.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotining demokra-
tik-huquqiy, fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan dadil bormoqda.
Iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy, xalq ta’limi sohalarida islohotlar va
yangilanish jarayonlari bosqichma-bosqich, izchillik bilan amal-
ga oshirilmoqda. Zero, jamiyatning taraqqiyoti, uning rivojlangan
mamlakatlar qatoridan munosib o‘rinni egallashi bugungi kunda
ta’lim olayotgan yoshlarning ma’naviy salohiyati, keng dunyoqa-
rashi va chuqur ilmiy, mustaqil fikrashiga bog‘liq.

Mustaqillik tufayli pedagogika fanining taraqqiyotida olamshu-
mul o‘zgarishlar yuz berdi. Mamlakatimizning ma’naviy salohiyati-
ni oshirish, ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, Kadrlar tayyorlash
Milliy dasturi, «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunni tayyorlash va amal-
ga oshirish pedagogika fanining zimmasiga tushdi. Pedagogikaning

predmeti bo‘lmish shaxsni shakllantirish muammosi Kadrlar tayyorlash Milliy modelida o‘z aksini topdi.

Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotida hal qiluvchi muammolar: xalqimizning ming-ming yillik qadriyatlarini, pedagogik merosini o‘rganish va ta’lim-tarbiya jarayonini milliylashtirish, jamiyat taraqqiyotida ma’naviyatning ustivorligini ta’minalash va ma’naviy tarbiya nazariyasini, amaliyotini takomillashtirish; yoshlar ongiga milliy mafkura, milliy g‘oyani singdirish, vatanparvarlik tarbiyasi ning yangi mazmun va metodikasini ishlab chiqish; jahon andozalariga mos ta’lim tizimini yaratish, ilg‘or pedagogik tajribalarni ommalashtirish, pedagogik kadrlarni hozirgi davr talabi asosida ta’lim-tarbiya ishiga tayyorlash, pedagogik texnologiya bilan qurollantirish kabilar pedagogika fanining dolzarb vazifasi bo‘lib qoldi.

O‘zbekistonda Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturida ta’lim-tarbiyani tubdan isloh qilish ilg‘or pedagogik texnologiyalarini joriy etish; «Ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualari yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minalash»ga bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Ma’lumki, Milliy dastur bosqichma-bosqich amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan edi. *Birinchi bosqich* (1997–2001-yy.) mavjud kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, ilmiy-uslubiy, moliyaviy moddiy shart-sharoitlar yaratish «...jumladan pedagog va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash hamda ularni malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish».

Ikkinci bosqich: (2002–2005-yy.) Milliy dasturni to‘la ro‘yobga chiqarish, mehnat bozorini rivojlantirish va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda unga aniqlik kiritish, «Ta’lim muassasalarini moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o‘quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o‘quv adabiyotlar va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’milanadi».

Uchinchi bosqich: (2005 va undan keyingi yillar) to‘plangan tajribalar tahlil etilishi, ularni umumlashtirish asosida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish» ko‘zda tutilgan edi.

Ta’lim muassasalarini resurs, kadrlar va axborot bazalari yana-

da mustahkamlash, o'quv-tarbiya jarayonini yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlash ko'zda tutilgan» edi. Bunda biz pedagogik texnologiya Milliy dasturni amalga oshirishning muhim vositasi ekanini ko'ramiz.

Belgilangan vazifalar asosida bugungi kunda ta'lim sohasida juda katta ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Zamonaviy texnologiyaning ta'lim jarayoniga kirib kelishi jadallahmoqda.

Pedagogik texnologiyaning rivojlanishini 4 bosqichga bo'lish mumkin:

1-bosqich – 40–50-yillar. Pedagogik texnologiya ta'lim jarayonida audiovizual (texnik vositalar) vositalardan foydalanish deb tushunilgan.

2-bosqich. 50–60-yillar. Ta'lim texnologiyasiga programmalashtirilgan ta'lim sifatida qaralar edi.

3-bosqich. 60–70-yillar. Ta'lim jarayonini loyihalashtirib, aniq belgilangan maqsadning kafolatlangan natijasiga erishish sifatida qaraladi.

4- bosqich. Ta'lim jarayoniga kompyuter texnologiyasi va axborot texnologiyalarining kirib kelishi bilan bog'liq.

Texnologiya nima?

Texnologiya – yunoncha so'z bo'lib, texne – mahorat, san'at, logos – tushuncha, ta'limot ma'nolarini anglatadi. Texnologiya tushunchasi – tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmui; shunday usul va metodlarни ishlab chiqaruvchi va takomillantiruvchi fan sifatida ta'riflanadi. Keyinchalik texnologiya tushunchasi ta'lim jarayonlarida ta'lim texnologiyasi nomi bilan qo'llanila boshladi.

Pedagogik texnologiya asrimizning 60-yillarida Amerika Qo'shma Shtatlari, 70–80-yillarda boshqa rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanila boshlandi.

YUNESKOning 1996-yildagi xalqaro konferensiyasida mamlakatning ma'naviy-iqtisodiy salohiyatini oshirishda va ta'lim-tarbiyanı intensivlashtirishda pedagogik texnologiya muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy asoslandi.

«Pedagogik texnologiya bilimlarni o'rganish yaxlit jarayonida ta'lim shakllarini optimallashtirish, texnikaviy, insoniy imkoniyatlar, ularning o'zaro hamkorligini amalga oshirish metodlari tizimidir», degan xulosaga kelindi.

Uzoq vaqt hukum surgan, kommunistik g‘oyaviylikka asoslangan byurokratik pedagogika ta’lim-tarbiya jarayoniga ilmiy yondashish yo‘llarini berkitgan edi. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish man etilgan edi.

O‘zbekistonda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi mustaqillik sharofati bo‘lsa, uni amalga oshirishning asosiy ilmiy-metodik omillaridan biri yangi pedagogik texnologiyadir. Zamonaviy pedagogik texnologiyaning predmeti – ta’lim-tarbiya jarayonini optimal loyihalash, modellashtirish tizimi, mexanizmi. Ya’ni pedagogik qonuniyatlarga asoslangan ta’lim-tarbiya tizimining samarali, ommabop mexanizmidir. Pedagogik texnologiyaning ommabopligi ilmiy asoslanganligi bilan individual mahoratdan farq qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiya fanini o‘qitishning maqsadi:

- bo‘lajak mutaxassislarni mavjud pedagogik qonuniyatlar va aniq shart-sharoitga, asosan ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalash samarali metod va vositalarini tanlashga o‘rgatishdan iborat.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning vazifasi:

- bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga pedagogik texnologiya, rivojlangan mamlakatlar ilg‘or pedagogik texnologiyasi, O‘zbekistonda Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturini amalga oshirish tajribalari haqida nazariy bilim berish:

- pedagogik jarayonni loyihalash;
- ta’lim-tarbiya maqsadi, mazmuni va optimal metodlarini qo‘llash ko‘nikma va malakasini shakllantirish;
- pedagogik diagnostika qobiliyatini o‘stirishdan iborat.

Jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ham rivojlanib boradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya ta’lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va umuminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi.

Pedagogik texnologiya fani bo‘lajak o‘qituvchilarni ilmiy-metodik tayyorlashda alohida o‘rin tutadi. Pedagogika nazariyasi va tarixidan mukammal bilim va malakaga ega bo‘lgandan kechin pedagogik texnologiya yoki yangi pedagogik texnologiya fani o‘rganiladi. Demak, pedagogik texnologiya pedagogika, pedago-

gik mahorat, psixologiya, matematik modellashtirish fanlari bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganiladi,

Pedagogik texnologiya nima?

Bu haqida ko‘pgina mualliflar o‘z ta’riflarini bergenlar. Bular:

BMT ning nufuzli idoralaridan biri bo‘lgan YUNESKO ta’rificha:

Ta’lim texnologiyasi – ta’lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda, butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini aniqlash, yaratish va qo‘llash tizimidir.

V.P. Bespalko: «Har qanday faoliyat yoki texnologiya, yoki san’at bo‘lishi mumkin. San’at ichki sezgi (intuitsiya)ga, texnologiya esa fanga asoslanadi. hammasi san’atdan boshlanadi va texnologiya bilan tugaydi va yana qaytadan boshlanadi», – degan edi.

M.Ochilov, – «Pedagogik texnologiya – tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta’lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o‘zaro ta’sirini inobatga olib, ta’lim maqsadlarini oydinlashtirib, o‘qitish va bilim o‘zlashtirish jarayonlarida qo‘llaniladigan usul va metodlar majmuidir», degan ta’rifni beradi.

Pedagogik texnologiyaga professor N.Saidahmedov «Pedagogik texnologiya bu o‘qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni» – degan ta’rifni beradi.

Ta’lim texnologiyasi – oldindan belgilangan o‘quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan, ta’lim jarayonida inson va texnika resusrlaridan foydalanishning loyihalashtirilgan muayyan tizimi. (XTV «Multimediya umumta’lim dasturlarini rivojlantirish» markazi ta’rifi).

Keltirilgan ta’riflarni ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo‘lsak, uzoq horijda berilgan ta’riflar bilan MDH mamlakatlari olimlari bergan ta’riflari bir-biriga yaqin kelsa-da, farqi ham anchaligini ko‘ramiz. Jumladan, YUNESKO ta’riflarda tizimli yondashuv tamoyillariga alohida urg‘u berilgan.

Pedagogik texnologiyani o‘rganishda tarixiy tajribalarga murojaan qilish ham katta ahamiyatga ega. Sharq xalqlari og‘zaki ijodi sinchiklab o‘rganilsa bu masalaga doir materillarni topish mumkin.

«Yaqinda Moskvadagi «Prosveshenie» nashriyoti «O‘qituvchi mahorati» seriyasida chiqargan Yu.Chestnixning «Открыть человека» (Insonni kashf etish) (1991) deb nomlangan kitobiga ko‘zim tushib qoldi. U shunday yozadi: «Adabiyotni qanday o‘qitish bo‘yicha eng to‘g‘ri va qiziqarli maslahatni men qariyb unutilayozgan o‘zbek xalq latifasidan topganman. Xo‘ja Nasriddin maydondagi olomon oldiga keladi va so‘raydi:

- Ey, odamlar! Bilasizlarmi, men sizlarga nima aytmoqchiman?
- Yo‘q, yo‘q, – deb javob berishdi ular.
- Eh, bilmaysizlarmi? Unda sizlar bilan gaplashib o‘tirishning hojati yo‘q, – jahllandi Nasriddin va jo‘nab ketdi. Boshqa kun kelib, yana xuddi shu savolni berdi.
- Bilamiz, bilamiz! – baqirishdi odamlar.
- Agar bilsangizlar, unda mening bu yerda nima keragim bor? – Xo‘ja Nasriddin hammani ajablantirib yana jo‘nab ketdi.

Uchinchi kun odamlar xuddi shu savolga uzoq javob bermadilar va so‘ngra maslahatlashib sekin ovoza qildilar: «Yarmimiz bilamiz, yarmimiz bilmaymiz». Xo‘ja Nasriddin miyig‘ida kulgancha eshagidan tushar ekan dedi: «Bilganlaringiz bilmaganringizga o‘rgatinglar, men esa dastavval sizlarni tinglayman». («Ma’rifat» gazetasi, 2009-yil 28-yanvar. Alisher Azimovning «Yangi pedagogik texnologiya yohud Nasriddin Afandining muallimlik qilganligi xususida» maqolasidan). Bu bir latifa. Lekin har qanday latifaning asosida katta bir haqiqat yashiringan bo‘ladi.

O‘zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko‘p asrlar davomida qo‘llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o‘ziga xos urf-odatlari va an‘analari, ta’lim-tarbiya haqidagi g‘oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o‘tmishda ko‘plab alloma-yu donishmandlar yetishib chiqishiga asos bo‘lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega.

Ajdodlarimiz bilim o‘rgatuvchi ustoz faoliyatiga katta ahamiyat bergenlar. Bu pedagogik faoliyatga bo‘lgan asosiy talablardan biri edi. Sharq uyg‘onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiylar aqli, dono va o‘tkir fikrlaydigan kishilar to‘g‘risida shunday deydi: «Aqli deb shunday kishiga aytildiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo‘r iste’dodga ega; yomon ishlardan o‘zini chetda olib

yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar»¹. Uning fikricha, «Ta’lim so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish va ta-jriba bilan o‘rganishdir, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy ma-lakalaridan iborat bo‘lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo‘lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo‘lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig‘i bo‘ladilar»².

O‘zbek xalqining ulug‘ allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy asarlarida yosh avlodga bilim berishning turli yo‘llari va vositalari haqida tushunchalar berilgan bo‘lib, ularni mustaqil fikrlaydigan, yangilik yarata oladigan qilib tarbiyalash xususida to‘xtalib o‘tgan. «Qadimiylardan qolgan yodgorliklar» asarida Beruniy sxolastik metodlardan voz kechish, dars samaradorligini oshirish yo‘llarini izlash bolalarning xotirasini rivojlanirishga, fikrlashga o‘rgatishini ta’kidlab o‘tgan. «Maqsad gapni cho‘zish emas, balki o‘quvchini zeriktirmaslik, chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O‘quvchi fandan-fanga o‘tib tursa, turli bog‘larda yurganga o‘xshaydi. Birini ko‘rib ulgurmasdan boshqasi boshlanadi va u kishi har bir narsada o‘ziga yarasha lazzat bor deyil-ganidek ularni ko‘rishga qiziqadi va ko‘zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi»³.

Buyuk sarkarda Amir Temur o‘zining o‘gitlarida har bir ishni boshlaganda butun diqqat, zehn va bor kuchni shu ishga qaratish lozimligini ta’kidlagan: «Azmu jazm bilan ish tutdim. Biron ishni qilishga qasd qilgan bo‘lsam, butun zehnim, vujudim bilan bog‘lanib, bitirmagunimcha undan qo‘limni tortmadim».

E’tibor qilinsa ajdodlarimiz merosida ta’limda qiziqib o‘rganishga katta e’tibor qaratiladi (motiv), shuningdek, ta’limni tashkil etish mahorati o‘rganishning asosiy sharti sifatida keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, bizning tariximiz o‘quvchilarni haqiqiy bilimli qilish masalasida katta ilmiy merosga ega. O‘sha davrda o‘qitishning texnologiyasi individual, bolaning o‘sishi va rivojlanishini o‘z ichiga olgan, qo‘yilgan maqsadga aniq erishish asosiy talab bo‘lgan.

¹ Forobiy. «Fozil odamlar shahri». – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. 182-b.

² O‘sha asar. 184–185-b.

³ Beruniy. Qadimiylardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. Toshkent, 1968. 106–107-b.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Kadrlar tayyorlashni amalga oshirishning qaysi bosqichida pedagogik texnologiya to‘la joriy etiladi deyilgan?
2. Zamonaviy pedagogik texnologiyaning predmeti nima?
3. Zamonaviy pedagogik texnologiyaning vazifalari nimada?
4. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlarini aytинг.
5. YUNESKO ilg‘or pedagogik texnologiya haqida qachon, qanday xulosaga kelgan?
6. Zamonaviy pedagogik texnologiya deganda nimani tushundiingiz?
7. Tarixiy merosimizdan pedagogik texnologiyaga doir ma’lumotlardan nimalarni bilasiz?

2-mavzu. Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish – ijtimoiy zaruriyat

R e j a :

1. Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish – ijtimoiy zaruriyat.
2. Pedagogik tizim haqida tushuncha va uning komponentlari.
3. Didaktik jarayon va uni loyihalashtirish.
4. Boshlang‘ich ta’lim jarayoni loyihasini va algoritmini tayyorlash yo‘llari.

Asosiy tushunchalar: pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish, pedagogik tizim, ta’lim texnologiyasi, didaktik jarayon, loyihalashtirish, texnologik xarita.

Jamiyat taraqqiyoti hozirgi davrda ijtimoiy hayotning barcha sohalarini texnologiyalashtirishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish har qachongidan ham zaruriyatga aylanmoqda.

Bu zaruriyat quyidagilar bilan izohlanadi:

- *birinchidan*, jamiyatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishi hamda aholi ta’limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida;
- *ikkinchidan*, o‘qituvchi faoliyatiga faqatgina o‘quv jarayonining tashkilotchisi emas, balki nufuzli bilimlar manbai sifatida qaralayotganligi;

– *uchinchidan*, fan-tehnika taraqqiyotining o‘ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko‘payib borayotganligi va ularni yoshlarga yetkazish uchun vaqtning chegaralanganligi;

– *to ‘rtinchidan*, kishilik jamiyatni o‘z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo‘lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o‘tib borayotganligi;

– *beshinchidan*, yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg‘or bilim berish usuli hisoblangan ob‘yektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilayotganligi.

Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish yuqorida sanab o‘tilgan beshta shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta’limiy tadbirdir.

Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish pedagogik tizim doirasida bajariladigan amallardan iborat.

Har qanday jamiyatda pedagogik tizimning maqsadi jamiyatning shaxsnı shakllantirishga qo‘ygan talablari asosida belgilanadi va jamiyat talablari asosida tizim ham o‘zgarishi mumkin. Juda ko‘p tadqiqotlarga asoslangan holda V.P. Bespalko pedagogik tizimning o‘zaro bog‘liq 6 ta elementini ko‘rsatadi.

- Bular: 1) o‘quvchi;
- 2) ta’lim-tarbiyaning maqsadi;
- 3) mazmuni;
- 4) didaktik jarayoni;
- 5) o‘qituvchi yoki texnik vositalar;
- 6) ta’lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari.

I-chizma.



Bu tizimdagи dastlabki 3 element didaktik vazifa, qolgan 3 tasi ta'lim texnologiyasi sifatida ko'rsatiladi.

Ko'rsatilgan chizmada shaxsda ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi bir-biriga bog'liq aloqa ko'rsatiladi.

Pedagogik tizimning bu tarkibida har qanday ilmiy nazariyada uchraydigan dastlabki tushunchalar: vazifa va uning yechish texnologiyasi ko'rsatilgan.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoyq va qiziqishni oshiradi, bilimlar ni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malalakalarni shakllantiradi.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyayati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi.

Pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatlari, belgilari quyidagilar:

- ta'lim jarayonini oldindan loyihalash va sinfda o'quvchilar bilan qayta ishlab chiqish;
- tizimli yondashuv asosida o'quvchining o'qish-bilish faoliyatini tasvirlaydigan ta'lim jarayoni loyihasini tuzish;
- ta'lim maqsadi real, aniq diagnostik bo'lishi va o'quvchining bilim o'zlashtirish sifatini obyektiv baholash;
- ta'lim jarayonining tuzilishi va mazmuning yaxlitligi, o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sirda bo'lishi;
- ta'lim shakllarini optimallashtirish, qulaylashtirish;
- ta'lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining o'zaro ta'sirini hisobga olish;
- ta'lim maqsadlarini ko'zlangan etalon asosida o'quvchilarning kuzatiladigan, o'lchanadigan harakatlari shaklida juda oydinlash-tirish;
- talabaning faolligiga tayanib o'qitish;
- bilim o'zlashtirish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab, tuzatib borish;
- shakllantiruvchi va jamlovchi baholar;
- belgilangan mezonlarga binoan test vazifalarini bajarish;
- ta'limning rejalashtirilgan natijasiga erishishning kafo-latlanganligi;

– ta’lim samaradorligining yuqoriligi.

Aniqroq qilib aytganda pedagogik texnologiyaga asoslangan faoliyat deganda, ta’lim funksiyasini amalga oshirishdagi mahorat va san’at tushunilib, u juda qulay usullar asosida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga asoslanadi.

Pedagogik texnologiyada ta’lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo‘lib, u rejalahtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim.

Shuning uchun ham o‘qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e’tibor qaratishlari zarur. Har bir o‘qituvchi avvalo o‘zi o‘qitadigan o‘quv predmeti maqsadini va har bir o‘tadigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak.

Belgilangan maqsad asosida o‘tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi.

Didaktik jarayon uchta bir-biri bilan bog‘liq komponentlardan iborat. Bular:

- 1) motivlar;
- 2) o‘quvchining o‘quv-bilish jarayoni;
- 3) boshqarish.

Didaktik jarayonning samarali o‘tishida motivlar muhim o‘rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlargina samarali bo‘ladi.

Ta’limda faqat qiziqishga tayanib qolish ham motivatsiyaning asosli samarali bo‘la olishini ta’minlamaydi. Bunda eng muhim samarali usul motivatsion-muammoli vaziyatlarni qo‘yish yoki o‘rganilayotgan predmetning ijtimoiy mohiyatini aks ettiradigan maxsus bilishga oid vazifalarning qo‘yilishidir.

Masalan, yangi dars boshlanishida yoki o‘tgan darsni so‘rash va mustahkamlash paytida didaktik o‘yinlardan foydalanim, o‘quvchilarning darsga qiziqishlari oshiriladi. Motiv hosil bo‘lgach, dars davomida o‘quvchilarning qiziqishlari saqlanib turgan holda o‘rganilayotgan mavzuning ijtimoiy ahamiyatiga e’tibor qaratiladi. Boshlang‘ich sinfda dars jarayonida motivlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatlarini tashkil etishda motivlarga ko‘proq e’tibor berishi o‘quvchilarning bilim egallah jarayonining samaradorligini ta’minlaydi.

O‘qituvchi dars loyihasini tayyorlar ekan, maqsadni oydinlashtirishi va shu maqsad asosida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatlarini shunday tashkil etishi lozimki, belgilangan maqsad to‘liq amalga oshsin.

Buning uchun esa darsning texnologik xaritasi tayyorlanadi. Quyida 1-sinf o‘qish darsidan yangi bilimlar berish darsining texnologik xaritasini keltiramiz.

2-chizma

Texnologik xarita

Mavzu	O‘zbekiston – Vatanim mening
Maqsad, vazifalar	<ul style="list-style-type: none"> • o‘quvchilarning to‘g‘ri, ongli, ifodali va qiroat bilan o‘qish malakalarini takomillashtirish; • vatan tushunchasini kengaytirish, Vatan tuyg‘usini shakllantirish, o‘z Vataniga muhabbatli bo‘lishga, uni qadrlashga o‘rgatish. • to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish malakalarini rovojlantirish, lug‘at boyligini oshirish, Vatan haqidagi tushunchalarni boyitish.
O‘quv jarayonining mazmuni	O‘quvchilarda Vatan tushunchasining qanchalik shakllanganligini aniqlash; Vatan tushunchasini takomillashtirish yo‘llarini qo‘llash; Darslikning 4- va 6-betlaridagi rasmlar asosida suhbat qilib o‘quvchilarning Vatan haqidagi tushunchalarini boyitish; Po‘lat Mo‘minning «Vatan – bu...» she‘ri asosida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish; Vatan haqidagi maqollar va tez aytishlardan foydalanish.
O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Metod: suhbat, ifodali o‘qish, izohli o‘qish, baxtli tasodif o‘yini, o‘yin-musobaqa, boshqotirmalar. Shakl: Dars, guruhlarda va jamoada ishlash. Vosita: Darslikning 3- va 4–6-betidagi rasmlarning kattallashtirilgani; baxtli tasodif o‘yini uchun kartochkalar. Usul: Vatan tushunchasini kengaytirishga xizmat qiluvchi qo‘srimcha materiallar, maqollar, tez aytishlar. Nazorat: Og‘zaki nazorat, savol-javoblar, test. Baholash: Rag‘batlantirish, 5 balli tizim asosida.

<p>Kutiladigan natijalar</p>	<p>O‘qituvchi: Mavzuning barcha o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishiga erishish, o‘quvchilarning ravon va to‘g‘ri, ongli va ifodali o‘qishining takomillashuviga erishish. Mashg‘ulotga o‘quvchilarning faol qatnashuviga erishish, ularning o‘qish motivlarini qo‘zg‘ash va qiziqtirish, o‘quvchilarni faollashtirish yo‘llarini belgilash va qo‘yilgan maqsadga to‘liq erishish.</p> <p>O‘quvchi: To‘g‘ri, ongli va ifodali o‘qishga o‘rganadi. Turli mashqlar vositasida tez o‘qish malakalari takomillashadi. Vatan haqidagi tushunchalari kengayadi, Vatanga muhabbat shakllanadi, Vatandan g‘ururlanish, ya’ni milliy g‘urur shakllanishiga asos yaraladi.</p>
<p>Kelgusi rejalar (tahlil, o‘zgarishlar).</p>	<p>O‘qituvchi: Ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va boshlang‘ich ta‘limda uni qo‘llash yo‘llarini izlash va takomillashtirish, o‘z ustida ishlash. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish motivlarini o‘stirish ustida ishlash. Darsni hayotiy tajribalar bilan bog‘lash.</p> <p>O‘quvchi: Matn bilan mustaqil ishslashga o‘rganish. O‘z fikrini erkin bayon etishga o‘rganish; o‘rganilganlar asosida ertak, maqol, hikmatli so‘zlar, tez aytishlarni o‘rganish. o‘rtoqlari fikrini ma’qullash yoki yangi fikrlarni aytishga o‘rganish.</p>

I z o h : Texnologik xaritalar dars turiga qarab turliha tayyorlanishi mumkin.

Ta’lim jarayonini boshqarish o‘qituvchidan katta mahorat talab etadi. U dars ishlanmasida boshqaruv yo‘llarini belgilab ola-di. O‘z faoliyati va o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish yo‘llarini, o‘quvchilar bilimini nazorat etish yo‘llarini aniq ishlab chiqadi. Ta’lim natijasini tekshirib, maqsadning nechog‘li amalga oshganini aniqlaydi va keyingi loyihani tuzishda korrektirovkalar kiritib, yo‘l qo‘yilgan xato-kamchiliklarni bartaraf etadi.

Biz quyida 1-sinf o‘qish darsi algoritmidan namuna ko‘rsatamiz. 1-sinf o‘qish darslarining tuzilishi, ta’lim-tarbiyaviy maqsadi, dars

tipi va o‘rganiladigan materiallarning xususiyatiga ko‘ra turli xildir. Shuningdek, dars qurilishida ham qat’iy andoza, birinchidan, ijodkorlikka yo‘l bermaydi, ikkinchidan, o‘quvchilarning imkoniyatlari ni cheklab qo‘yadi. Shuning uchun ham biz o‘qish darsnining taxminiy algoritmini diqqatingizga havola etamiz:

Darsning maqsadi.

Ta’limiy maqsad:

- a) o‘quvchilarning to‘g‘ri va ravon o‘qish malakalarini shakllantirish;
- b) matn mazmuniga ko‘ra, o‘quvchilarning xususiyatiga mos tabiat, jamiyat va inson tafakkuri haqidagi bilimlarni hosil qilish;

Tarbiyaviy maqsad:

- a) o‘quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirish;
- b) matn mazmuniga ko‘ra aqliy, ma’naviy-ahloqiy, estetik, jismoniy, mehnat, ekologik, iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish.

Rivojlantiruvchi maqsad:

- a) o‘quvchilarning o‘qish malakalarini rivojlantirish;
- b) tez, ravon, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish;
- c) dunyoqarashlarni, hulq-odob, insoniy munosabatlarni, aqliy, jismoniy va boshqa sifatlarni rivojlantirish;

Darsni tashkil etish:

1-O‘E. (o‘quv elementi) Motiv hosil qilish: Buni darsning o‘tgan darsni mustahkamlash qismida va yangi darsni o‘tishga tayyorgarlik qismida, butun dars davomida ham amalga oshiriladi. Motiv hosil qilishda turli didaktik o‘yinlar, topshiriqlar, musobaqalar va boshqa ish usullaridan foydalaniladi.

2-O‘E. Matnni o‘qishga tayyorgarlik: Yozuvchi haqida ma’lumot beriladi. Matn mazmuni haqida tushuntirilib, o‘quvchilarning matnga qiziqishlari oshiriladi. Ba’zan matn mazmuni haqida gap boshlab, qolganini kitobdan o‘qib, o‘rganamiz, deb, o‘qituvchi bolalarning matnga qiziqishini oshiradi. Tarbiyaviy ta’sirini kuchaytiradi.

3-O‘E. Matnni o‘qish va mazmunini so‘zlash. Bunda o‘qituvchi matnni o‘zi o‘qib beradi va mazmunini tushuntiradi yoki bu ishni tashkil etishda o‘quvchilar faolyatidan ham foydalanishi mumkin.

4-O‘E. Quvnoq daqiqa.

5-O‘E. Lug‘at ustida ishslash. Notanish so‘zlarga izoh berilib, o‘quvchilarning so‘z boyliklari oshiriladi (bunda ko‘proq o‘quvchilar faoliyatini ishga solish lozim), dunyoqarashlarining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatiladi.

6-O‘E. O‘quvchilar matnni o‘qiydilar. Bunda ham motivni rivojlantirish uchun o‘quvchilar guruhshtirilishi mumkin. 2 ta, 3 ta 4 tadan o‘quvchilar guruhi matnnni navbat bilan o‘qiydilar. To‘g‘ri, ravon va ifodali o‘qishga alohida diqqat qaratiladi. Shu talablarga rioya qilgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

7-O‘E. Topshiriq bilan o‘qish. O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘qish malakalarini rivojlantirish, o‘qiganini tushunib olishga o‘rgatish uchun turli mashq usullaridan foydalanadi. Matn mantiqiy qismlarga bo‘linib, har bir qismining mazmunini so‘zlash topshirig‘i, qismlarga alohida sarlavha topish, reja tuzish kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Bu o‘quvchilarning dunyoqarashlarining rivojlanishi, mantiqiy fikrlashga o‘rganishiga yordam beradi.

8. O‘E. Quvnoq daqiqa.

9-O‘E. Matn mazmuni ustida ishlash. O‘quvchilar matn mazmunini so‘zlab berishlari yoki turli didaktik o‘yinlar vositasida mazmunni o‘zlashtirishi mumkin.

Masalan, «**Davom ettir**» o‘yini: O‘qituvchi matn mazmunini hikoya qilishni boshlaydi, bir o‘quvchi uni davom ettiradi. Shu taxlitda barcha o‘quvchilarni matn hikoyasiga qatnashtirish mumkin.

«**Zanjir**» o‘yini: matndagi bir necha so‘zlar vositasida bu o‘yinni o‘ynash mumkin. O‘qituvchi boshlab bir so‘z aytadi, so‘zning tugagan harfidan boshlanadigan so‘zni bir o‘quvchi aytadi, shu taxlitda hamma o‘quvchilarni o‘yinga qatnashtirish mumkin.

«**Tez javob**»: O‘qituvchi yoki boshlovchi o‘quvchilar qatori oralab yurib, o‘quvchilardan birini turg‘izadi va biror tur nomini aytadi. O‘quvchi shu turga kiruvchi so‘z topib aytishi lozim. Javob uchgacha sanaguncha aytlishi kerak. Javob berolmagan o‘quvchi o‘yindan chiqadi. O‘yin toki bir o‘quvchi qolguncha davom ettiriladi. Bunday o‘yin davomida o‘quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanib, atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzaishga o‘rganadi, atrofdagi sodir bo‘ladigan voqeа va hodisalarga qiziqishi ortadi.

Bu o‘yindan dars davomida o‘tilgan mavzuga bog‘lab, darsning mustahkamlash qismida yoki dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin.

O‘qituvchi: «Hayvon».

O‘quvchi: «It».

O‘qituvchi: «O‘quv quroli».

O‘quvchi: «Daftар».

O‘qituvchi: «Sinf jihozi».

O‘quvchi: «Xattaxta».

O‘qituvchi: «Ertaklar».

O‘quvchi: «Zumrad va Qimmat» va hokazo.

Shu kabi o‘yinlardan foydalanish orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘qish motivini rivojolantiradi va ularning dunyoqarashlarining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi, o‘quvchilarda topqirlik, chaqqonlik, bilimdonlik kabi sifatlarni rivojlaniradi, xulqiga ta’sir ko‘rsatadi.

10-O‘E. O‘quvchilar bilimini nazorat qilish. Nazoratni yuqorida didaktik o‘yinlar vositasida va testlardan foydalanib o‘tkazish mumkin.

Agar tekshirish davomida dars maqsadiga erishilgan bo‘lsa, demak dars texnologiyasi to‘g‘ri ishlangan va uni takomillashtirish mumkin. Agar maqsadga erishilganlik darajasi past bo‘lsa, demak loyihani korrerktirovka qilish (o‘zgartirishlar kiritish) kerak. O‘qituvchi qayerda xato qilganini bilib, xatolarini tuzatadi.

Bu dars yangi bilim berish darsining algoritmi bo‘lib, uni boshqacha tarzda ham tashkil qilish mumkin.

Mustahkamlash-umumlashtirish darslarining maqsadi esa o‘quvchilarning bo‘lim yuzasidan o‘rgangan bilimlarini mustahkamlash, umumlashtirishga xizmat qiladi, bundan tashqari o‘quvchilar bilimini nazorat qilishga ham xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun ham bunday darslar loyihasini qiziqarli yoki noan’anaviy tarzda ishlashga e’tibor qaratilsa ancha samarali bo‘ladi.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish zaruriyati nima uchun paydo bo‘ldi?

2. Pedagogik tizim nima?

3. Ta’lim jarayonini loyihalash tushunchasini izohlang.

4. Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga oid texnologik xarita va dars algoritmini tuzing.

5. Oldingi kursda «Pedagogik texnologiya» fanidan o‘rgananlaringizni eslab quyidagi insert jadvalini to‘ldiring.

v	+	?

Ko'satilgan jadvalda: V – bilgan ma'lumot
+ – yangi ma'lumot
? – qo'shimcha ma'lumotga muhtoj fikr (talaba tushunishga qiynalgan ma'lumot).

3-mavzu. Zamonaliv pedagogik texnologiya nazariyasining umumiy asoslari

Reja:

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi.
 2. Pedagogik texnologiya aspektlari.
 3. Pedagogik texnologiya tarkibi.
 4. Texnologiya mezonlari va prinsiplari

Asosiy tushunchalar: pedagogik texnologiya aspektlari, ierarxik darajalari, pedagogik texnologiya tarkibi, texnologik jarayon, texnologiya mezonnari, bilimlarni o'zlashtirish, pedagogik texnologiya tushuchalari.

Hozirgi davr ta’lim nazariyasida pedagogik texnologiya tushunchasiga keng urg’u berilmoqda.

Pedagogik adabiyotlarda «texnologiya», «pedagogik texnologiya» terminiga har xil ta’riflar mavjud. Bu ta’riflar har bir muallifning pedagogik texnologiyaga o’ziga xos yondashuvi asosida vujudga kelmoqda.

Pedagogik texnologiya fan sifatida ham, shuningdek, ta'limgarayonida qo'llaniladigan prinsiplar, yo'l va usullar sifatida ham shakllanib kelmoqda..


«Pedagogik texnologiya» ni uchta aspektda ko‘rish mumkin.

Nazariya: Pedagogik texnologiya pedagogika fanining, ta’limning maqsadi, mazmuni va metodlarini ishlab chiquvchi, pedagogik jarayon loyihasini tuzuvchi qismi.


Harakatli jaravon: Ta'limning rejalarashtirilgan natijasi-
ga erishish uchun uning maqsadi, mazmuni, metod va vositalariga
erishishni tasvirlash jarayoni yoki algoritmi.

Amaliy jarayon: Pedagogik texnologiya jarayonini amalga oshirish, shaxsga ma'lum sifatlarning shakllanishi uchun pedagogik jarayon vositalarini ishga solish.

Pedagogik texnologiyani o'quv amaliyotida uzviy bog'liq uch ierarxik darajada ko'rsatish mumkin:



Pedagogik texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi



Pedagogik texnologiya quyidagilarni ta'minlaydi

Pedagogik texnologiya				
O'quvchilar-ning rivojlani-shi, ijodiy shug'ullani-shining metod, vositalarini, tafakkur rivojini o'rganadi, qiyinchiliklarni yengishga o'rnatadi.	O'quvchilarda o'quv mate-rialini tushuni-shiga, muammoli izlanishning yangi shakllarini egallash-lariga imkon beradi.	O'quv yurtida ijodiy ta'limiy shart-sharoit-lar yaratadi.	Har xil real ijodiy pedago-gik vazifa-larni yechish tajriba-sini egal-lashga yordam beradi.	Bilish, izlanish jarayo-nini boshqa-rishni ta'min- laydi

Texnologiya mezonlari:

Pedagogik texnologiya quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- o'quv-tarbiyaviy jarayonda o'quv-texnik vositalari obyekt va usullaridan maqsadli foydalanish;
- pedagogik jarayonda muloqot tizimini to'g'ri tashkil etish va pedagogik ma'lumotlarni taqdim etish;
- o'quvchilarning bilim olish jarayonini boshqarish tizimi (o'zlashtirish faoliyatidagi boshqaruv tizimi);
- belgilangan masalani yechish maqsadida pedagogik jarayon uslub va vositalarini shakllantirish;
- o'qish va tarbiya jarayonini rejalashtirish;
- bir-biriga bog'liq g'oyalar tizimi, insonlar faoliyatini tashkil etish vositalari, ta'lim maqsadiga erishish resurslarini ichiga olgan yaxlit integrativ jarayon;
- pedagogik tizimni texnologik loyihalash.

Ta'lim jarayonini amalga oshirish va baholashni rejalashtirishda quyidagi **mezon**larga tayaniladi:

1. Konseptuallik: Har bir pedagogik texnologiya o'z tarkibida falsafiy, psixologik, didaktik, ijtimoiy pedagogik asosni qamrab olgan aniq ilmiy konsepsiaga tayanishi lozim.

2. Tizimlilik: Pedagogik texnologiya hamma o'zaro bog'liq qismlardan iborat tizimning mantiqiy jarayoni belgilariga ega bo'lishi va yaxlit bo'lishi lozim:

Jarayonning mazmun-mohiyati uning qismlarining uzviy bog'liqligi, yaxlitligidan iborat.

3. Samaradorlik.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar raqobatli shartlar asosida mavjud bo'lib, natijalar bo'yicha samara berishi, optimal harakatli bo'lishi va ta'liming ma'lum bir standartlarini kafolatlashi shart.

4. Qo'llanuvchanlik.

Pedagogik texnologiya bir xil ta'lim muassasalarida boshqa subyektlar tomonidan ham qo'llanilish imkoniyatini beradi.

Pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslari.

Har qanday umumpedagogik ta'lim texnologiyasi falsafiy asosga ega.

Biroq o'qitish metodi va vositalarida falsafiy asosni topish qiyin. Gohida g'oya nuqtai nazaridan bir-biriga zid bo'lgan texnologiyalar da ham bir xil metodlar qo'llanilishi mumkin. Shuning uchun ham texnologiyaning o'zi o'zgaruvchan bo'lib, u yoki boshqa falsafiy asosga moslashishi mumkin.

Bir nechta alternativ falsafiy asoslarni qayd etamiz:

- materializm va idealizm;
- dialektika va metafizika;
- gumanizm va antigumanizm;
- antronosofiya va teosofiya;
- pragmatizm va ekzistensializm.

Texnologiya tayangan, asosiy psixik rivojlanish omillari quydagilar:


1. Psixikaning rivojlanishini biologik nasl (genetik) kodi orqali aniqlash mumkin bo'lgan, tashqi muhit irsiyatdan o'tganlarni qo'llaydi degan taxminni ilgari suruvchi biogen texnologiya.
2. Shaxsning ijtimoiy muhit ta'sirida shakllangan sifatlari.
3. Insonning tajribalari asosida o'z-o'zini takomillashtirishini ko'rsatuvchi rivojlanishning psixologik natijalari.
4. Shaxs va uning sifatlari paydo bo'lganligini o'ziga xos e'tirof etuvchi idealistik qarashlar.
5. Falsafiy-pedagogik ilmiy konsepsiylar.

Tushunchalarni shakllantirish nazariyasi.

Ta'lim jarayoni ma'lum bir o'zlashtirilgan tushunchalar ni umumlashtiradi. Bu tushunchalar an'anavyi pedagogikada ham e'tirof etilgan. O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayoni quyidagi tushunchalarda o'z aksini topgan.

3-chizma

O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jahayoni:



Ana shu o'zlashtiish jaraonini tashkil etish o'qituvchidan katta mahorat, bilim va texnologiyani talab etadi. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonini tashkil etish yo'llarini tinimsiz izlashi, o'quvchilar faoliyatini tashkil etish texnologiyasini puxta o'zlashtirgan bo'lishi zarur.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayoni samarali kechadi.

Quyida keltirilganlardan o'quvchilarning bilimlarni samarali o'zlashtirishlariga oid pedagogik texnologiya tushunchalarini aniqlang.

O'zlashtirish jarayonini tashkil etishga oid pedagogik texnologiya tushunchalarining tahlili:

- Identifikatsiya.
- Texnologiyaning nomi.
- Konseptual qism.
(texnologiya prinsiplari, g'oya, gipotezalariga ta'rif berish).
- Maqsadli joylashtiruv va chamlash.
- Asosiy g'oya va prinsiplarni belgilash.
- O'qish jarayonidagi bolaning pozitsiyasini aniqlash.
- Ta'lim mazmunining xususiyatlariga e'tibor qaratish.
- Shaxsga yo'naltirilganlik.
- Ta'lim mazmunining hajmi va tavsifi.

O‘quv reja, material, dasturning didaktik tarkibi va bayon shakli.

Ta’lim usullari va vositalarining qo‘llanishi.

Motivatsion tavsif.

O‘quv jarayonining tashkiliy shakllari.

Ta’lim jarayonining boshqaruvi (tashxis, korreksiya, reglament, rejalahtirish).

Texnologiya mo‘ljallagan o‘quvchilar kategoriysi.

Dasturiy-metodik ta’minalash.

O‘quv rejalar va dasturlar.

O‘quv va metodik qo‘llanmalar.

Didaktik materiallar.

Ta’lim texnik ko‘rgazma vositalari.

Diagnostik jihozlar.

Pedagogik texnologiyalarni baholash mezoni.

Samaradorligi, natijasi.

Mustaqil ish uchun vazifalar.

1. Yuqorida keltirilgan qoidalarni qo‘llash orqali «pedagogik texnologiya» tushunchasi mohiyatini aniqlang.

2. Quyida keltirilgan ro‘yxatdan texnologiya mezonlarini tanlab oling:

1) ilmiylik; 2) izchillik; 3) faollik; 4) kontseptuallik; 5) tushunararlilik; 6) onglilik; 7) boshqaruvlik; 8) tahsil olish; 9) samaradorlik; 10) qonuniyat; 11) mustahkamlik; 12) rejalilik (ketma ketlik); 13)ta’sirchanlik; 14) qiziqarlilik, ko‘tarinkilik; 17) tizimlilik.

3. Pedagogik texnologiya nazariyasi hamda ta’limni rivojlantirishga oid mulohazalardan muhim fikrlarini belgilang:

- Fan va texnika taraqqiyoti.

- Insonni hayotga va mehnatga tayyorlashga obyektiv ehtiyoj.

- Ta’lim paradigmasining almashuvi.

- O‘qituvchi va o‘quvchining shaxsiy-yo‘naltiruvchi munosabati.

- Insonning ma’naviy qiyofasining shakllanishi. Ta’limiy omillarning integratsiyasi.

- Pedagogik texnologiyaning ustuvorligi.

- Texnologiyaning asosini aniq yakuniy maqsad tashkil etadi.
 - Maqsadi aniq bo'lgan texnologiya nazorat uslublarini yaratish imkoniyatini beradi.
 - Qulay variant izlash maqsadida, texnologiya pedagogik ekspertlarga o'tish imkoniyatini beradi.
 - Dars ishlanmalaridan farqli o'laroq, texnologiya o'quv jarayoning loyihasini belgilaydi.
 - O'quv jarayonini loyihalash, o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshiradi.
- 4.** Ta'lim jarayoni texnologiyasi global tashxis maqsadlarini bosqichlarga bo'lib, har bir ta'lim bosqichi uchun tashxis maqsadini aniqlashni talab etadi.
- 5.** Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiya.
Bu mavzuni o'rghanish jarayonida:
- shaxs, shaxs salohiyatining oshishi, insonparvar ta'lim nima ekanligini aniqlang.
 - bolaning shaxsiy sifatlarini ochish yo'li bilan, uning shakllanishi va tarbiyasi negizida ezzulik mavjudligi haqida tasavvurga ega bo'ling.
- 6.** O'zingizning qisqa pedagogik lug'atingizni yangi leksika bilan boyiting.
- 7.** Olgan bilimingizni o'zlashtirish maqsadida, bir qator topshiriqlarni bajaring.
- 8.** Bolaning shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni ayting.

4-mavzu. Ta'lim texnologiyasida bola shaxsi obyekt va subyekt sifatida

R e j a :

1. Shaxsning rivojlanishi
2. Bola shaxsiga ta'sir etuvchi omillar.
3. Ta'lim jarayoniga shaxsiy insonparvar yondashuv.
4. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiya.

Asosiy tushunchalar: Milliy model, shaxs, obyekt, subyekt, omil, makro omil, mezo-omil, mikrolomil, insonparvar yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, pedagogik jarayon.

Kadrlar tayyorlash Milliy modelida shaxsning funksiyasi quyidagicha belgilanadi: «Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi».¹ Demak, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining bosh maqsadi bo’lgan ta’lim tizimini isloh qilishdan asosiy maqsad ham kadrarni, ya’ni shaxsni tarbiyalash masalasidir. Shunday ekan, ta’lim tizimida bola shaxsinining rivojlanishi masalasini o’rganish muhim muammolardan biridir.

Ta’lim-tarbiyadagi mohirlik uning subyektini yaxshi bilish bilan bog’liq. Shaxs yoki ma’lumot subyekti biologik, ijtimoiy va ruhiy komillikni o’z ichiga olgan, o’zaro bog’liq, o’zaro ta’sir qiladigan butun bir tuzilma. Bu tuzilma avvalo individ – tabiatning bir bo’lagi sifatida shakllanadi va tashqi olam bilan aloqaga kirishadi, natijada ijtimoiy mavjudot, ya’ni shaxsga aylanadi. U atrofdagilarni, tabiatni, olamni, insonlarni tushuna boshlaydi, keyin u rivojlanib, ta’lim-tarbiya natijasida insonga aylanadi.

Shaxsning rivojlanishi – obyektiv tabiiy jarayon. Bu jarayon asosini inson tabiatining biopsixik (I) rivojlanishi tashkil etadi. Ijtimoiy (II) mihit inson tabiatni rivojlanishining psixologik-pedagogik mexanizmini shakllantiradi.

Psixologiya nuqtai-nazaridan inson shaxs sifatida quyidagicha tavsiflanadi:

1-faollik: o’z imkoniyatlaridan o’laroq yuqori ko’rsatkichlarga erishish, o’z faolyatini kengaytirish.

2-xarakteri: insonning mustahkam individual xususiyatlari jamlanmasi.

Ma’lum bir faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishni ta’minlovchi qobiliyat, xususiyat va sifat.

Ta’lim texnologiyasini ishlab chiqishda bu xususiyatlar e’tiborga olinsagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Buning uchun shaxsni mukammal o’rganish, uning shakllanish jarayonini bilish zarur.

¹ Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – N., «Sharq», 1998-y. 41-bet.

Bola shaxsiming shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.
Ichki.

Avloddan avlodga o'tuvchi qobiliyat, shaxsnинг ehtiyoji, qiziqishi tufayli vujudga keladigan faolligi.	– makromuhit (keng ijtimoiy ma'nodagi tarbiya) – mezomuhit, tabiiy va ijtimoiy (keng pedagogik ma'nodagi tarbiya) – mikromuhit, tabiiy va ijtimoiy (tor pedagogik ma'nodagi tarbiya)
Avloddan avlodga o'tuvchi qobiliyat (meros) Makro omil (muhit)	– organizmni avloddan avlodga o'tuvchi o'xhash xususiyatlarini takrorlash. – har xil mamlakatlarda yashovchi odamlarning hayot tarziga ta'sir etuvchi obyektlar, hodisalar, munosabatlar, vaziyatlar
Mezo-omil (muhit)	– insonning ma'lum ijtimoiy muhitiga mansub hayot tarzi, sharoitlari, shu jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar ma'naviy-axloqiy munosabatlari.
Mikro omil (muhit)	– insonning moddiy-ma'naviy yashash sharoiti, uning atrofidagi muhit.

Ta'lim jarayoni shaxsiy insonparvar yondashuv asosida tashkil etilsa o'quvchi faolligi yanada oshadi.

Insonparvar g'oyalarga asoslangan ta'lim birinchi navbatda o'quvchilarning ma'naviy tuyg'ularining uyg'onish faolligiga e'tibor qaratadi. Shaxsiy insonparvar yondashuv, bu pedagogik texnologiyaning shaxsga yo'naltiruvchi kommunikativ asosi.

U quydagilarni o'z ichiga jamlaydi:

- ta'lim maqsadiga qarash kabi, shaxsga yangicha qarash;
- pedagogik munosabatlarning insonparvarligi va demokratligi;
- natija bermayotgan majburiy uslubdan voz kechish.

Shaxsga yangicha qarash pozitsiyalari quydagilar:

- shaxs sifatida shakllanish erta yoshdan boshlanadi, mактабдан bolani to'la shakllangan shaxs sifatida yetishtirish lozim;
 - pedagogik jarayonda shaxs obyekt emas subyekt sifatida e'tirof etiladi;
 - shaxs – ta'lim tizimining maqsadi;
 - har bir bolada o'ziga xos qobiliyat mavjud, ko'p bolalar iqtidorli bo'lishadi.

Shaxsning sifatli fazilatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: mehribonlik, muhabbat, mehnatsevarlik, insof, g'urur, sodiq fuqarolik va h-zo.

Bolalarga insonparvar ezgu yondashish deyilganda quyidagilar tushuniladi:

- pedagogik muhabbat;
- bolada kelajakka ishonch bilan qarash ruhini shakllantirish;
- hamkorlik, mahoratli muloqot;
- ijobiy omilarning ustuvorligi;
- bola kamchiliklariga bardoshlilik.

Munosabatlar demokratizatsiyasi:

- o'qituvchi va o'quvchi huquqida tenglik darjasи;
- bolaning erkin tanlash huquqi;
- xato qilish huquqi;
- shaxsiy nuqtai nazar huquqi; .
- Bolalar huquqi konvensiyasiga rioya qilish;
- o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari usuli.

Erkin ta'lim tavsiyi:

- ishonchga asoslangan erkin talabchanlik;
- darsning mazmunli o'tilishi natijasida vujudga kelgan qiziqish;
- majburiy ta'limni, muvaffaqiyat keltiruvchi ixtiyoriy bilan almashtirish;
- bolalar iqtidoriga ishonch bildirish;
- ikkilamchi talablarni jamoa orqali qo'llash.

Individual yondashuvning yangicha shakli:

- o'rtacha o'quvchiga moslashuvdan voz kechish;
- shaxsning eng yaxshi sifatlarini izlash;
- shaxsga psixologik-pedagogik tashxis qo'llash;
- o'quv-tarbiyaviy jarayonda shaxs xususiyatlarining hisobotini olib borish;
- shaxs rivojlanishining tahlili;
- mustaqil rivojlanish dasturini shakllantirish, uning korreksiysi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning pedagogik texnologiyasi

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda pedagogik jarayon shaxsda belgilangan sifatlarning shakllanishiga qaratiladi.

Pedagogik jarayon bu belgilangan maqsadga erishish hamda shaxsning xususiyat va sifatlarini ijobji tomonga o'zgartirishga qaratilgan tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi aniq bir muddat va ma'lum tarbiyaviy tizimda maxsus tashkil etilgan o'zaro munosabat.

Jarayon (*lot. protsessis* – oldinga intilish) holat davomiyligi, insonning rivojlanishi, biror bir natijaga erishi yo'lidan uzviy davom etayotgan harakatlar jamlanmasi.

Pedagogik jarayon – tarbiya jarayonining asosiy tizim birligi. Uning xususiyati shundan iboratki, u o'qituvchi va o'quvchining pedagogik munosabat tizimini belgilaydi.

Agar tarbiya jarayoni tushunchasi maqsadga yo'naltirilgan, shaxsga ma'lum sifatlarni shakllanish ta'sirini amalga oshirishga qaratilgan harakat bo'lsa, pedagogik jarayon tushunchasi oldindan tashkil etilgan tarbiyaning o'zaro ta'sir tizimini bildiradi.

Bunday ish turida ta'lim jarayoni **vazifalari**:

- o'quvchilarni bilim olish faoliyatini kuchaytirish;
- bilim olish faoliyatini takomillashtirish;
- fikrlash, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish;
- dialektik-materialistik dunyoqarash va insonparvar-estetik madiyatni shakllantirish;
- ta'lim (tarbiya) malakalarini takomillashtirish.

Pedagogik jarayonning asosiy vazifalari:

ta'lim beruvchi – ilmiy bilim asoslarini o'zlashtirish, amaliy faoliyat va o'quv tarbiyaviy tajribaning motivatsion shakllanishi;

tarbiyaviy – odamlar munosabatidagi ma'lum bir sifat, xususiyatning shakllanishi;

rivojlanuvchi – shaxsning psixik jarayoni, xususiyati va sifatining shakllanishi hamda rivojlanishi.

Pedagogik jarayonni shakllantirish va tashkillashtirishning asosiy prinsiplari:

- tarbiyaga yaxlit yondashish prinsipi;
- uzlucksiz tarbiya prinsipi;
- tarbiyani maqsadga yo'naltirish prinsipi;

- pedagog va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi (qo'shma) faoliyati; differensiatsiya va integratsiya prinsiplari;
- tabiiy muvofiqlik prinsipi;
- madaniy muvofiqlik prinsipi;
- faoliyat va jamoadagi tarbiya prinsipi;
- ta'lim va tarbiyada davomiylik, batartiblik prinsipi;
- pedagogik jarayonda o'z-o'zini boshqaruv va boshqaruv yaxlitligi prinsipi;
- qulaylashtirish prinsipi.

Pedagogik jarayon tarkibi.

Pedagogik jarayonning tarkibi olti komponentdan iborat:

Maqsad – qonun-qoidalar – mazmun – uslub – vositalar – shakl.

O'quv jarayonining tarkibiy komponentlari:

1. Tahlil, sintez, taqqoslash, tizimlash.
2. Ilmiy qarash va qonunuyatlarni bilish, sababli aloqalarni tus-hunish, anglash.
3. Mahorat egallash va tizimlash.
4. Amaliyotda mavjud muammolarni mustaqil hal etish faoliyati.
5. O'z-o'zini nazorat qilish, erishilgan bilimlarni tashxis qilish.
6. Faoliyat natijasining ideal darajada bo'lishini oldindan bilish.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish yo'lida tinimsiz izlanish zarur. Shaxsning ongiga ta'sir etish yo'llarini belgilashdan oldin uning ichki aloqa elementlarini aniqlash zarur. Bular uning layoqati, imkoniyatlari, ehtiyoji, mavjud bilimlari va qobiliyatidir. Insondagi qobiliyat, layoqat o'rganilib, undagi bor bilim yoki bilim o'zlashtirish uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlar aniqlanib, uning ehtiyojiga e'tibor qaratiladi. Ma'lum maqsad asosida ta'sir choralarini belgilash bu elementlarda o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Shunday ta'sir natijasida shaxsning rivojlanishida tub o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflardan boshlaboq o'quvchilarning qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojni aniqlab qilingan amaliy ta'sir zoe ketmaydi. Bolaning intellektual imkoniyatlari haqida birdan xulosa chiqarish yaxshi natija bermaydi. Chunki insondagi intellektual imkoniyatlar

birdaniga ko‘zga tashlanmaydi. U asta-sekinlik bilan ro‘yobga chiqishi mumkin. Shuning uchun ham bolaga «sening kallang ishlamaydi», «sen odam bo‘lmaysan» qabilidagi so‘zlarini aytmaslik lozim. Bunday so‘zlar bolani o‘zi haqida tez xulosa chiqarib qo‘yishga, o‘z kuchiga ishonmaslikka, o‘qish motivlarini susayib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin.

O‘qituvchi o‘quvchilardagi o‘ziga xoslikni bilishi va shu asosda faoliyatni tashkil etishi shaxsda bor bo‘lgan imkoniyatlarning ro‘yobga chiqishiga sabab bo‘ladi. O‘qituvchi mahorati bu imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish orqali shaxs faolligini oshirishga qaratiladi. Agar o‘quvchilar o‘quv-bilish faoliyatiga qiziqsalar bu ta’lim samaradorligini va o‘quvchilarning intellektual rivojlanish darajasini ta’minlaydi, bilimga qiziqish va ehtiyojini shakllantiradi. Ayniqsa keyingi hayot yo‘lini tanlashda bu qiziqishlar asos vazifasini o‘tashi mumkin.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar va ular ta’sirini aniq misollar asosida tavsiflang.
2. Ta’lim texnologiyasida bola shaxsining obyekt va subyekt sifatidagi rolini tahlil qiling.
3. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyani qanday tushundingiz?
4. Pedagogik jarayon vazifalari va tarkibi nimalarni o‘z ichiga oladi?
5. Shaxs imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish omillarini tahlil qiling.
6. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi shaxsiga oid sifatlarini aniqlang va undan ta’lim jarayonida qanday foydalanish yo‘llarini aytинг.

5-mavzu. Ta’lim jarayoniga texnologik yondashuv tamoyillari

R e j a :

1. Ta’limga texnologik yondashuvning kelib chiqish manbalari.
2. Pedagogik texnologiyaning ta’lim sohasidagi mexanizmlari.
3. Pedagogik texnologiya tamoyillari va ularning qo‘llanilishi.
4. Pedagogik texnologiyaning bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi.

Asosiy tushunchalar: texnologik yondashuv, ta’lim, taraqqiyot, ta’lim sohasidagi mexanizmlar, texnologiya tamoyillari: maqsadga yo‘naltirilganlik, natijaning kafolatliligi, tizimlilik, yaxitlik, inson-parvarlashtirish, o‘qitib tadqiq etish, tadqiq etib o‘qitish, faoliyatli yondashuv, ilmiylik, pedagogik diagnostikä, didaktik materiallar, moddiy-texnik baza, baholash.

Hozirgi davr pedagogika fani ma’lum bir yuksalish bosqichiga ko‘tarilmogda. Buning albatta, obyektiv sabablari mavjud. Tarbiya maqsadining har bir davrda turlicha bo‘lishi ijtimoiy tuzum, mafkuraviy qarashlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq. Ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy rivojlanish davomida tarbiya maqsadiga erishish jarayoniga nisbatan pedagogik yondashuvlar ham turlicha bo‘lgan. Demak, ta’lim-tarbiyaning maqsadi, uning amalga oshirish jarayoni nazariy va amaliy jihatdan takomillashib borishi bilan pedagogika fani zamonaviy tus ola boshlaydi. Zamonaviy pedagogika bugungi kunda aynan shunday holatni boshdan kechirmoqda.

Milliy mustaqillik qo‘lga kiritilishi bilan istiqbol yo‘li belgilab olindi. Ta’lim-tarbiya sohasida aniq maqsad va vazifalar, uni amalga oshirish dasturlari ishlab chiqildi. Davlatimiz rahbari I. Karimov barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi bir qator nutqlari va asarlarida bu davlat siyosatida ustivor masala ekanligini bir necha bor ta’kidlab o‘tdi. Bobokalonlarimizning azaliy orzulari, milliy va umumbashariy qadriyatlar, ma’naviy qadriyatlarlar zamonaviy pedagogikaning maqsadi va vazifalarini shakllanishiga asos bo‘lmoqda. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ushbu maqsad ko‘rsatilgan. Zero, zamonaviy pedagogikaning bosh maqsadi ham yetuk, yuksak malakali, ma’naviyatli,

ma'rifatli, mustaqil fikr yurita oluvchi, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir.

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun uzlusiz ta'lim tizimi tub-dan isloh qilinmoqda. Ta'lim jarayoniga tabaqalashtirilgan yonda-shuv, o'quvchilarini turli kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar-da tahsil olishlarini ta'minlash zamonaviy pedagogika fani oldiga yuksak vazifalarini qo'yemoqda. Masalan, ushbu o'quv muassasalari uchun davlat ta'lim standartiga muvofiq keluvchi o'quv dasturlari va darsliklar, o'quv qo'llanmalarini yaratish bugungi kun talablariga javob bermog'i lozim.

O'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ham an'anaviy usullardan farqli o'laroq, yangicha pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish va ta'lim jarayonida qo'llash zamon talabidir. Milliy dasturda bu masalaga alohida e'tibor berilgan. Albatta, ilg'or pedagogik texnologiyalar bizning fanimizga endigina kirib kelmoqda. Aslida esa ta'limga texnologik yondashuv masalasi rivojlangan horijiy davlatlarda bundan 40 yillar muqaddam paydo bo'lgan va ular bu sohada katta yutuqlarni qo'lga kiritgan.

Bugungi kunda pedagogika sohasidagi ilg'or texnologiyalarni kengroq va chuqurroq o'zlashtirish, ularni o'z mintaqamizga mos holda qayta ishlab chiqish zarur muammoga aylandi. Bu muammoni hal etish hozirgi kungacha shakllanib kelgan ta'lim-tarbiya sohasida-gi nazariy va amaliy tajribalarni o'rganishni taqozo etadi.

Pedagogik texnologiyaning ta'lim sohasidagi mexanizmlari qu-yidagilardir:

- ta'lim muassasalarida ijodiy muhit yaratish, ilmiy pedagogik xodimlar orasida tashabbuskorlik va yangilikka bo'lgan qiziqishni oshirish;
- ta'lim sohasidagi ijodkorlikni, yangiliklarni qabul qilish va keng yoyish uchun ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratish;
- izlanuvchanlik faoliyatini rag'battantirish, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishga solish;
- nisbatan istiqbolli yangiliklarni, samarali loyihalarni amalda harakatdagi ta'lim tizimiga joriy etish, to'plangan yangilik va tajribalarni doimiy harakatdagi umumta'lim tizimi rejimiga singdirish.

Shu bois mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish va uni hozirgi zamon talablariga moslashtirish, zamonaviy informatsion texnologiyalarga asoslangan jahon andozalari darajasidagi tizim-

ni yaratish umum davlat siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanmoqda. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da uzluksiz ta’lim tizimini isloh etish asosida, jamiyatning rivojlanishi talablarini hisobga oлgan holda, yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash masalalariga katta e’tibor berilgan. Bu vazifalarni hal qilish uchun esa birinchi navbatda, o‘quv jarayonini tubdan isloh qilish, unga jahoning rivojlangan davlatlarda keng qo’llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni izchillik bilan tatbiq etish zarur.

Jamiyatning har bir faol fuqarosi XXI asr bo‘sag‘asida turar ekan, o‘tgan yillardni baholashga va kelajak hayotining turli qirralarni belgilab olishga urinishlari tabiiydir. Ta’lim sohasida ham bunday ishlar amalga oshirilmoqda. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot nafaqat ishlab chiqarishning ko‘p sonli tarmoqlariga, balki madaniy sohasiga, ijtimoiy-gumanitar bilimlar doirasiga ham yangi texnologiyalarni joriy etishni taqazo etmoqda. Shu boisdan bugugi kunning dolzarb masalalardan biri pedagogik texnologiya hisoblanadi.

Ta’lim – insonlar faolligini belgilaydigan muhim bir tarmoqqa aylanmoqda. Shuning uchun ta’lim tizimida inson faoliyati bilan bog‘liq ko‘pgina muammolarni hal etish zarur. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu vazifalarni ilmiy-texnik jarayonning o‘zgarishi bilan bog‘liq holda ta’lim nazariyasini yaratish, ya’ni fanni jamiyatning faol, samarali ishlab chiqarish kuchiga aylantirish orqali amalga oshirish mumkin.

Pedagogik texnologiyaning ta’limdagи amaliylik hamda tashkiliy-uslubiy imkoniyatlarini amalga oshirishga yo‘naltirilganligi, uning aniq vositalar yordamida hayotga tadbiq etilishi butun jahon pedagoglarining unga e’tiborini kuchaytirmoqda. Bu yo‘nalishga turlicha qarashlar mavjud, ba’zi pedagoglar pedagogik texnologiyada ta’limni tabaqlashtirish vositasini ko‘rmoqdalar, boshqalarini kam mehnat sarflab yuqori natijalarga erishish imkoniyatlari, pedagogik texnologiyada barcha ta’lim oluvchilarini oldindan belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasiga yetkazish mumkinligi qiziqtirmoqda. Ba’zi pedagoglar ta’limni «texnologiya»lashtirish yordamida ommaviy ta’lim amaliyotida tub burilish yasashga umid bog‘lamoqdalar.

Ta’lim jarayoniga texnologik yondashuv tamoyillari quyidagi larni o‘z ichida oladi:

1. Maqsadga yo‘naltirilganlik va ta’lim-tarbiya natijasining kafolatliligi tamoyili. Ta’limni «texnologik» yo‘nalishda ko‘rishning umumiylar mezonini uning aniq va batafsil belgilangan maqsadga yo‘naltirilganligidadir. Bu holatda har bir maqsadni amalga oshirish uchun alohida qonuniyat, jarayon, ketma-ketlik va unga mos amallar majmui mavjud bo‘lishi asos sifatida olinadi. «Pedagogik texnologiya»ning vositaviy yo‘naltirilganligi uning turli uslublar asosida turli ta’lim tizimlarini ko‘rishdagi keng imkoniyatlarini belgilab beradi. Bunda ta’limning tashkiliy jihatlari olinadi. Faqatgina «pedagogik texnologiya» doirasida aniqlab olinadigan maqsadlarning empirik (amaliy) tahlili beriladi. Bunda ta’lim-tarbiya natijasining kafolatliligi asosiy o‘rin tutadi.

2. Tizimlilik, yaxitlik tamoyili.

Pedagogik texnologiyada ta’lim-tarbiya jarayoni ma’lum tizimlilik asosida tashkil etiladi. Belgilangan aniq maqsad loyihalashtirilgan ta’lim jarayoni tizim ichida amalga oshiriladi.

Ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili. Insonparvarlashtirishning lug‘aviy ma’nosini yunoncha *humanus* – insoniylik, *humanitas* – insoniyat demakdir. Insonparvalashtirish ta’lim muassasalarida o‘rganiladigan fanlar sirasiga ijtimoiy fanlarning (tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, filologiya va boshqalar) kiritiladi. Shu bilan birga insoniylashtirish tushunchasi ham ishlatalidiki, bu esa shaxs va uning faoliyatiga nisbatan ijobiy yonda-shuvni anglatadi. Boshqacha aytganda, insonparvalashtirish – inson va jamiyat o‘rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar jarayonida inson omili, uning qadr-qimmati, sha’ni, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmatlashga asoslanuvchi faoliyatni tashkil etish jarayonidir.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta’lim jarayonida pedagog tahsil oluvchilar faoliyatini avtoritar (yakka hokimlik) tarzida boshqarmay, balki insonparvarlashtirish tamoyili asosida teng hamkorlik g‘oyalariga sodiqlik bilan ta’limni insonparvarlashtirish tamoyiliiga amal qilinishini ta’minlaydi. Ushbu holat o‘z navbatida yuksak ma’naviyatli shaxsnинг shakllanishiga olib keladi.

O‘qitib tadqiq etish, tadqiq etib o‘qitish tamoyili.

Ushbu tamoyil quyidagi ikki jihatni yoritishga xizmat qiladi:

- 1) ta’lim muassasalarining har bir o‘qituvchisi o‘z fani sohasiga tahsil oluvchilarni jalb qilgan holda tadqiqotlarni olib borishi lozim;
- 2) o‘qituvchi ta’lim texnologiyasini ishlab chiqadi, uni amaliyo-

tda sinab ko‘radi, kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya’ni, u ta’lim jarayonini tadqiq etadi.

O‘qitish jarayonining mazkur ikki jihat muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘qituvchining kasbiy hamda pedagogik mahoratini oshirib borishga va tahsil oluvchilarning bo‘lajak mutaxassislik faoliyatiga puxta tayyorlash uchun zamin yaratadi.

Faoliyatli yondashuv tamoyili nazariya va amaliyotning didaktik bog‘liqligiga asoslanadi. Didaktika nazariyasida bilim tushunchasi quyidagi ikki xil ma’noda izohlanadi:

- A) tahsil oluvchilar o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlar;
- B) ular tomonidan o‘zlashtirilib, amaliy faoliyat jarayonida qo‘llaniladigan, shaxsiy tajribaga aylangan bilimlar.

Bilimlar faoliyat yuritish jarayonidagina mustahkamlanadi, shu sababli tahsil oluvchilarda nazariy bilimlarni amalda qo‘llay olish iqtidorini tarbiyalash lozim. Amaliyotdagi tatbiqiga ega bo‘limgan bilimlar tez orada unutilib yuboriladi.

Ilmiylik tamoyili – ta’lim-tarbiya jarayonida samarali vosita, faol metod hamda didaktik materiallardan foydalanishning tashkiliy masalalari yangi yechimlarini qo‘llashni taqozo etadi.

Pedagogik diagnostika tamoyili. Tahsil oluvchi va o‘qituvchining dasturli faoliyatini tashkil etish, o‘quv jarayonining borishini taxmin eta bilishi lozim.

O‘qituvchi tahsil oluvchini mustaqil ishlashga o‘rgatadi, undan muayyan harakatlarni amalga oshirishini va qo‘llashini talab qiladi.

Didaktik materiallardan keng foydalanish tamoyili. Ta’limni faollashtiruvchi axborot texnologiyasi va texnik vositalari, shuningdek, foydalanish samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng va unumli foydalanishni taqozo etadi. Mazkur tamoyil pedagogik jarayonning jadallashtirilishini ta’minlaydi.

O‘quv jarayon uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik bazani yaratish tamoyili. Ushbu tamoyil o‘zida yetarli darajadagi moddiy-texnik bazani yaratish imkoniyatini izlash jarayonini yoritish uchun xizmat qiladi.

O‘quv-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona baholash tamoyili. Ushbu tamoyil test usuli va reyting tizimi asosida tahsil oluvchi bilim va ko‘nikmalari darajasini aniqlash, o‘zlashtirish jarayonini nazorat qilish, shuningdek, baholashni avtomatlashtirish kabi faoliyat mazmunini ifodalashga xizmat qiladi.

O‘quv jarayonining har qanday qismi uning **loyihalanishiga texnologik jihatdan yondashilganda** quyidagi asosiy bosqichlarga ega bo‘ladi:

- ta’lim bosqichining umumiyligi maqsadini belgilab olishi;
- umumiyligi maqsadni shakllantirishdan uni ixtisoslashtirishga o‘tish;
- o‘quvchilarning bilim darajasini tashxis qilish;

Bosqichlar ketma-ketligi tavfsifi o‘qituvchi harakatlarining davriy takrorlanuvchi ketma-ketligi bo‘lib, u ko‘p marotaba mos ravishda maqsadlar, aniq nazorat usullari va ta’lim jarayoni turlari bilan takrorlanib, ta’lim jarayonini nihoyasiga yetkazadi.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Pedagogika fanining bugungi kundagi yuksalishining asosiy sabablarini nimalardan iborat?
2. Pedagogika fanining maqsadi va vazifalari shakllanishiga nima asos bo‘lmoxda?
3. Ta’lim-tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv tamoyollarini izohlang.
4. Quyidagilardan ta’limga texnologik yondashuv tamoyillarini ajratting: ilmiylik, tizimlilik, uzlucksizlik, pedagogik diagnostika, insopavarlashtirish, faoliyatli yondashuv, ko‘rgazmalilik, maqsadga yo‘naltirilganlik, hayotiylik.
5. Pedagogik texnologiyaning ta’lim sohasidagi mexanizmlariga nimalar kiradi?
6. O‘quv jarayonini loyilashtirish bosqichlarini ayting.

6-mavzu. Masofaviy ta’lim texnologiyasi

R e j a :

1. Masofaviy ta’lim haqida tushunchalar.
2. Ta’limdagi zamonaviy texnologiyalar va masofaviy ta’lim.
3. Masofaviy o‘qitishning metodologik asoslari.
4. Masofaviy o‘qitish jarayonining o‘ziga xosliklari.
5. Masofaviy o‘qitishning metod va vositalari.

Asosiy tushunchalar: masofaviy ta’lim, subyekt, obyekt, o‘quv-moddiy, moliyaviy-iqtisodiy, normativ-huquqiy asoslar, mar-

keting, internet, uslubiy vositalar, darslik, o'rgatuvchi kompyuter dasturlari, virtual reallik, geoaxborot tizimlar, nazoratning reglamentli shakli.

Hozirgi zamon ta'lismi tizimida masofaviy o'qitish ta'limga qulay turi sifatida kirib keladi.

Masofaviy ta'lismi ma'lumot olishning shunday shaklidirki, unda kunduzgi va sirtqi ta'lismi bilan bir qatorda ma'lumot jarayonida ta'limga kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan afzal, an'anaviy va innovatsion metod, vosita va shakllaridan keng foydalaniladi.

Masofaviy ta'limga tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

O'qituvchi→o'quvchi→kommunikatsiya.

Masofaviy ta'lismi vositasida o'quvchi uchun qulay bo'lgan joyda individual jadval asosida maxsus imkoniyatlar, telefon, elektron aloqa va boshqa ta'lismi vositalari yordamida bir maqsadga qaratilgan nazorat qilish mumkin bo'lgan ta'lismi jarayoni tashkil etiladi.

Masofaviy ta'limga ma'lum maqsad asosida ta'lismi subyekti va obyektining ta'lismi vositalari yordamidagi o'zaro ta'siri amalga os-hadi.

Ma'lumot jarayoni o'ziga xos pedagogik tizim elementlarini o'z ichiga oladi. Bular: ta'lismi maqsadi, ta'lismi mazmuni, ta'lismi metodlari va vositalari, ta'limga tashkiliy shakllari, nazorat qilish, o'quvmoddiy, moliyaviy-iqtisodiy, normativ-huquqiy asoslar, marketing kabilar.


Masofaviy ta'lismi insonparvarlik prinsipiga asoslanadi. Ya'ni hech kim kambag'allik, geografik muammolar, ijtimoiy himoyalanganlik va boshqa sabablar tufayli bilim olish huquqididan mahrum bo'lmasligi lozim.

Masofaviy o'qitishda o'qituvchi talabaga o'quv materialini «Internet» tizimi orqali yuboriladi. Ushbu kurs bo'yicha ta'lismi olishni istagan o'quvchilar veb-saytga murojaat qilib, nazariy bilimlarni oladilar, amaliy topshiriqlarni bajaradilar va o'qituvchiga javobni elektron pochta (e-mail) orqali jo'natadilar. O'qituvchi o'quvchi tomonidan bajarilgan topshiriqnini tekshirib, javobni yana elektron pochta orqali o'quvchiga yuboradi. Zarur bo'lsa, kerakli ko'rsatmalar beradi.

O'quv jarayonida o'quvchi darslikdagi, elektron kutubxona va elektron darsliklardan, vidiokonferensiyalardan foydalanadi.

4-chizma

Global texnologiya talabi – ta’lim asosi



O'zaro aloqadorligiga doir talablar: materiallar oqimi, faktlar oqimi, moliyaviy jarayonlar

Masofadan o'qitish bu mustaqil o'qishdir. Mustaqil o'qish davrida o'quvchida mustaqil fikrplash, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish qobiliyatlari rivojlanadi.

Masofadan o'qitishda o'quvchi berilgan dasturni qanchalik tez o'zlashtirsa, shunchalik tez o'qishini tugatadi va o'qishni tugatganligi to'g'risida sertifikat oladi.

Masofadan o'qitishning uslubiy vositalari quyidagilar:

- a) darslik;
- b) audio va vidiodarsliklar;
- d) veb-saytlar;
- e) elektron kutubxonalar;
- f) matnlar;
- g) elektron darsliklar.

Albatta foydalanuvchi ixtiyorida masofadan ta'lif olishda multimediali kompyuter, modem va telefon kabi vositalar mavjud bo'lishi kerak.

XXI asrda masofaviy ta'lif eng istiqbolli insonparvar ta'lif va ta'lifning integral shakli sifatida ta'lif tizimiga kirib kelmoqda.

XXI asr ta'lif jarayoniga global texnologiyaning kirib kelishi bilan ham xarakterlanadi. Chunki bozor iqtisodiyoti talablari o'z-o'zidan ta'lif jarayonini dunyo standartlari darajasida takomillashtirishni taqozo etadi.

Hozirgi kunda masofadan o'qitish dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarida keng tarqalgan va qulay ta'lif shakli sifatida rivojlanmoqda. Masalan, Finlandiyaning Oulu universitetida, Buyuk Britaniyaning London Metropoliten universitetida, Gollandiyaning Fontis universitetida, Janubiy Koreya respublikasida va boshqa rivojlangan mamlakatlarda masofaviy o'qitish texnologiyasi keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, unda talabalarni o'qitish va boshqa soha mutaxassislarining malakasini oshirish sohasida samarali qo'llanilib kelinmoqda.

O'z-o'zidan ma'lumki, dunyoga yuz tutayotgan O'zbekiston uchun ham bu ta'lif turi uzoq kelajak emas. Shuning uchun O'zbekiston o'quv yurtlarida ham ba'zi bir islohotlarni amalga oshirishni davr taqazo etmoqda.

1.Ta'lidiagi zamonaviy texnologiyalar va masofaviy ta'lif.

O'qitishdagi axborot texnologiyalari – bu o'qitish faoliyatida qo'llaniladigan elektron vositalar va ularni ishlatalish usullari majmuidir. Elektron vositalar tarkibiga apparatli, dasturli va axborotli komponentlar kiradi. Ularni qo'llash ko'rsatmalari o'qitishdagi axborot texnologiyalarini metodik ta'minotida kiradi.

Masofaviy ta'lif bu o'qitishning insonparvar shakli bo'lib, an'anaviy, yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslanadi. Bunda texnik vositalar o'quv materialini mustaqil

o'zlashtirish, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi muloqot uchun xizmat qiladi. Shunga ko'ra masofaviy o'qitish kommunikatsiya va axborotni qayta ishslashning yangi texnik vositalari va sirtqi ta'limning asosiy usullariga tayanishi kerak. Bu o'z navbatida masofaviy ta'lim tizimini tashkil etish to'g'risida gapirishga imkoniyat beradi. Masofaviy ta'lim tizimi apparatli, dasturli va uslubiy vositalarning murakkab kompleksi bo'lib, o'z ichiga server va ishchi stansiyalar, shaxsiy kompyuterlar, kommunikatsiya vositalari, umum tizimli va tarmoqli dasturlar ta'minotiga, lokal va markazlashgan bilim va axborot banklarini boshqaruva tizimlari, o'rgatuvchi dasturlari va shu dasturlarni yaratish uchun instrumental vositalariga ega bo'lган audio va video texnikalarni oladi.

Masofaviy o'qitish tizimining metodologik asoslari

O'quv jarayonini tashkil etishda **ochiqlik va individual yonda-shuv**.

Yetakchi oliv o'quv yurtlari va uzoq masofadagi o'quv-konsultativ punkt bazasidagi markazdan tashkil topgan masofaviy o'qitish tizimining markazlashgan strukturasi.

Kontakt va nokontakt o'quv davrlari almashadigan masofaviy o'qitish jarayonini tashkil etish.

O'qituvchi, konsulant va menenjer sifatlariga ega bo'lган o'qituvchi-konsultant (tyutar) ni o'quvchiga bog'lash.

O'quvchilarning bir-biri va o'qituvchi bilan o'zarо zamona-viy texnik vositalar, axborot texnolgoiyalari va an'anaviy pochta yordamida masofadan va yuzma-yuz muloqotini tashkil etish.

Masofaviy o'qitish tizimini tashkil etishning asosiy prinsiplarini ko'rib chiqamiz.

Ta'limning insonparvarlik prinsipi. Bu prinsip uzlusiz intensiv o'qitish tizimida hal etuvchi ahamiyatga ega bo'lib, masofaviy o'qitish tizimida uning ahamiyati yanada oshadi. Uning mohiyati shundaki, bilim olish jarayoni o'quvchi uchun maksimal qulay qilib tashkil etiladi. Bunday o'qitish insonlarning ta'limga ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Masofaning uzoqligi, insonlarning sog'ligi yoki boshqa sotsial sabablar ham ularning bilim olishiga monelik qilmaydigan sharoit yaratadi.

Masofaviy o'qitish tizimida o'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik yondashuvlarning ustuvorlik prinsipi. Masofaviy

ta’limda an’anaviy ta’limdagi kabi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagogik yondashuv ustuvorligi ta’minlanadi. Tajriba shuni ko’rsatadiki, tizimning pedagogik tomoni ustuvor bo’lganda sistemaning samaradorligi oshadi.

Yangi axborot texnologiyalarini qo’llashning pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiqlik prinsipi. Bu prinsip masofaviy o’qitish tizimini tashkil etish va loyihalashdagi har bir qadamning samaradorligini pedagogik jihatdan baholashni talab etadi. Shuning uchun birinchi o’ringa texnikani kiritish emas, balki o’quv kurslarini tegishli ravishda mazmunan boyitish kerak, uni yangi axborot tehnologiyalari orqali o’quvchiga yetkazish yo’llarini izlash lozim.

Ta’lim mazmunini tanlash prinsipi: Masafoviy ta’lim mazmuni davlat ta’lim standartlarining normativ talablariga javob berishi kerak. Shuningdek, ta’lim mazmunini tanlash imkoniyatini yaratadigan alternativ dasturlar yaratish lozim.

Axborot xavfsizligini ta’minlash prinsipi.

Ta’limning boshlang’ich darajasi prinsipi: Ta’lim samaradorligini oshirish uchun ma’lim bir boshlang’ich bilim va ko’nikmalar zarur.

O’qitish texnologiyasining moslik prinsipi. O’qitish texnologiyasi masovafiy o’qitish modeliga adekvat bo’lishi lozim.

Masofaviy o’qitish tizimi an’anaviy ta’lim tizimiga zid xususiyatga ega bo’lmasligi kerak. Masofaviy o’qitishda ham an’anaviy ta’lim tizmidagi ta’lim mazmuni saqlanadi.

Masofaviy o’qitish jarayonining o’ziga xosliklari

1. Eguluvchanlik. O’quvchi dars vaqtin, hajmi va boshqalarga nisbatan erkindir.

2. Modullilik.

3. Parallelilik. Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda.

4. O’zaro ta’sir etish.


5. Masofaviy ta’limning didaktik tizimi.

Hozirgacha mavjud didaktik tizimda ta’lim jarayoni 7 ta elementni o’z ichiga olar edi: ta’lim maqsadi, ta’lim mazmuni, o’qituvchilar, o’quvchilar, ta’limning shakli, vositasi va metodlari.

Masofaviy ta’limning didaktik tizim esa 12 elementni o’z ichiga oladi.

5-chizma

Masofaviy ta’limning didaktik tizimi



Qo’shimcha elementlar, ya’ni o’quv moddiy, nazorat, normativiy-huquqiy, iqtisodiy, marketing kabilar an’anaviy didaktik tizimda ham ko’zga tashlanmay ishtirok etadi. Lekin pedagogik jarayon uchun u masofaviy ta’limdag‘i kabi prinsipial ahamiyat kasb etmaydi.

Masofadan o’qitishning metod va vositalari

Masofadan o’qitish texnologiyasi (MO’T) maxsus metod, vosita va o’qitishning tashkiliy shakllari tizimi bo‘lib, ta’lim mazmunini ko‘p tarmoqli ravishda amalga oshirishga qaratilgan.

Oliy o’quv yurtlarining ko‘pgina o’qituvchilari (pedagogika va didaktika o’qituvchilaridan tashqari) «o’qitish metodi» tushunchasiga unchalik qiziqmaydilar. Chunki ko‘pchilik o’qituvchilar o’qitish faoliyatini empirik tarzda o‘rganib oladilar.

Ular asoson kafedra mudirlari yoki yetakchi professor-o’qituvchilariga taqlidan o’qitish usullarini qo’llaydilar. Lekin shu usullar qaysi ta’lim metodlari tizimiga kirishini bilmaydilar yoki qiziqmaydilar. Ta’lim metodini bilish ta’limni takomillashtirishning muhim shartlaridan biridir. Ta’lim metodi har xil o’quv predmetlari ni o’qitishni qanday amalga oshirish yo’larini belgilaydi.

Ta’lim metodi o’qituvchi va o’quvchi faoliyati to‘g‘risida nazarriy tushuncha beruvchi didaktik kategoriadir. Masofadan o’qitish har xil ta’lim metodlari orqali amalga oshiriladi va unda bir qancha usullardan foydalilanildi. Har bir usul muayyan harakatlardan iborat bo‘lib, o’qitishning hal xil didaktik vositalari yordamida ma’lum bir maqsadga erishishga qaratiladi.

Masofadan o'qitish metodlaridan foydalanganda quyidagi usul-larni qo'llash mumkin: namoyish qilish, illyustratsiya, tushintirish, hikoya, suhabat, mashq, masala yechish, materialni yodlash, yozma ish va takrorlash kabilar.

Pedagogik jihatdan qayta ishlangan o'quv mazmunini o'z ichiga olgan masofaviy o'qitish o'qituvchi va o'quvchi qo'lidagi o'quv vositalari o'quv mazmunini taqdim etish, o'quvchilarining o'rganish faoliyatini tekshirish va boshqarish vazifasini bajaradi. Ma'lum bir o'quv materiali bir qancha o'rgatish vositalari (bosma materiallar, audio-video va boshqalar) bilan berilishi mumkin. Vositalarning har biri o'z didaktik imkoniyatlari ega. O'qituvchi bu imkoniyatlarni bilishi va o'quv materialini har xil vositalarga ko'ra bo'lib chiqishi, didaktik vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan o'quv axborotlarini tashuvchi tizim sifatida o'quv materiallaridan o'quv vositalari kompleksini yarata olishi kerak. **Masofaviy o'qitish tizimi vositalari** quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Darsliklar (an'anaviy darsliklar, elektron darsliklar, qo'llanmalar, lug'atlar va boshqalar).
2. Kompyuter tarmoqdagi o'quv-metodik qo'llanmalar.
3. Odatdagi va multimedya variantlaridagi kompyuterli o'qituv tizimlari.
4. Audio o'quv axborot materiallari.
5. Video o'quv-axborot materiallari.
6. Masofaviy laboratoriya praktikumlari.
7. Masofaviy trenajyorlar.
8. Masofaviy axborot va bilimlar bazasi.
9. Masofaviy elektron kutubxonalar.
10. O'rgatuvchi ekspert tizimlariga asoslangan o'qitish vositalari.
11. Geoaxborotli tizimlarga asoslangan o'qitish vositalari.
12. Virtual reallikka asoslangan o'qitish vositalari.

Masofadan o'qitish tizimida o'qitish vositalari yangi axborot texnologiyalari vositasida amalga oshiriladi. Keltirilgan vositalarning tavsiflarini keltiramiz.

Darsliklar

Didaktik bosma materiallarni tayyorlashda quyidagilarga asoslanish kerak:

- O‘quv qo‘llanmalar shunday tuzilishi kerakki,o‘quvchi faqat zarur hollardagina qo‘srimcha o‘quv axborotga murojaat qilsin.
- O‘quv materiali strukturasini tashkil etishda modul prinsipidan foydalanish kerak.
- Materialni mustaqil o‘zlashtirish va mustaqil ish bo‘yicha batafsil ko‘rsatmalar berilishi lozim.
- O‘quv qo‘llanmada nazorat vazifalari, bilimni tekshirish uchun savol va javoblar, mashqlar bo‘lishi kerak.

Umuman olganda o‘quv materiallari quyidagi tarkibga (o‘quv predmetiga ko‘ra invariant) asoslangan bo‘lishi kerak:

- kirish (dastur va mutaxassislikning tarixi, predmeti, faolligi, boshqa predmetlar bilan bog‘liqligi va o‘rni);
 - kurs bo‘yicha o‘quv dastur;
 - kursning maqsadi va vazifalari;
 - kursni mustaqil o‘zlashtirish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar;
 - mundarija;
 - bo‘lim (modul)lar bo‘yicha tartibga solingan asosiy material;
 - bo‘limlar bo‘yicha o‘rganish uchun javoblari mavjud bo‘lgan testlar, savollar va masalalar;
 - yakuniy test;
 - mustaqil ish uchun amaliy topshiriqlar;
 - kichik ilmiy tekshirish ishlari uchun mavzular;
 - atamalar lug‘ati;
 - qisqartirmalar ro‘yxati;
 - yakuniy qism;
 - adabiyotlar ro‘yxati (asosiy, qo‘srimcha, fakultativ);
 - xrestomatiya (kurs mavzusi bo‘yicha darsliklar, ilmiy maqolalar, metodikalardan misollar);
 - qo‘llanma muallifining qisqacha ijodiy tarjimai holi.

Adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar rangli qilib ishlangani ma’qul:

Kirish – to‘q sariq, notanish so‘zlar lug‘ati – pushtiriang, matn – oq-qora, mashqlarga kalitlar to‘q ko‘k, o‘z-o‘zini tekshirish mashqlari och sariq, topshiriqlar (testlar) – yashil ranglarda.

O'rgatuvchi kompyuter dasturlar

O'qitishning bu vositasi 70-yillarda shaxsiy kompyuterlar ishlab chiqilishi bilan paydo bo'ldi. O'quv dasturi vositasi deb shunday vositaga aytildiği, unda ma'lum o'quv predmeti o'z aksini topib, uni o'rGANISH texnologiyasi ko'rsatiladi va har xil o'quv amaliyotlarni amalga oshishi uchun sharoitlar ta'minlanadi. Bunaqa dastur vositalari odatda an'anaviy ta'lim-tarbiya jarayonida, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash ular malakasini oshirishda o'qitish samarasini oshirish va boshqalarda qo'llashga mo'ljallangan.

O'quv dasturi vositalarining o'quv jarayonida bajaradigan funksiyalari:

- o'quv jarayonini differensialash va individuallashtirish;
- teskari aloqa va xatolar diagnostikasi bilan bir vaqtida nazorat olib borish;
- o'z-o'zini nazorat qilish va o'z faoliyatini boshqarish;
- murakkab hisob-kitoblarni kompyuterda bajarish hisobiga vaqtini tejash;
- o'quv axborotini vizuallash;
- o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni modellash yoki immitatsiya qilish;
- real tajribani kompyuterda immitatsiya qilish sharoitida laboratoriya mashg'ulotlarini olib borish;
- har xil vaziyatlarda masalaning optimal yechimini topish ko'nikmalarini shakllantirish;
- muayyan fikrlash turini rivojlantirish (masalan, nazariy, obrazli....);
- motivlarni kuchaytirish (o'yinlar...);
- o'quv faoliyatini madaniyatini shakllantirish va boshqalar.

Hozirgi vaqtida o'quv dasturi vositalari ro'yxatiga quyidagi lar kiritiladi:

- elektron darsliklar;
- elektron ma'ruzalar;
- ma'lumotnoma va axborot bazalari;
- masalalar to'plami va masalalar generatorlari;
- predmetli muhitlar;
- kompyuterli illyustratsiyalar.

Hozirgi paytda o‘quv dasturi vositalari yaratishning 4 ta xili mavjud:

- bevosita dasturlash;
 - eng qulay yo‘l instrumental tizimlardan foydalanish.
 - tayyor o‘quv dasturlaridan foydalanish;
 - maxsus tashkilotlarga o‘quv dasturi, vositalar tayyorlashga bu-yurtma berish:
- 1) ishlab chiqish;
 - 2) dasturli metodik hujjatlarni tayyorlash;
 - 3) sinash va korrektirovka;
 - 4) kuzatish;
 - 5) didaktik audio va video materiallar.

Virtual reallik

Kontaktsiz axborot almashinish vositasi bo‘lmish virtual reallik murakkab multimediali operatsion muhitlar yordamida amalga oshiriladi. Bu operatsion muhitlar «ekran dunyosida» real vaqtda mavjudlik illyuziyasini yaratadi. Virtual reallikning pedagogik va psixologik tahlili uning quyidagi qulayliklarini ko‘rsatdi:

- Ekranda aksini topgan obyekt yoki virtual reallik jarayonlari bilan kontaktsiz bog‘lanish va ularni boshqarish.
- Ekranda kechayotgan jarayonlarda ishtirok etish yo‘li bilan reallikni immitatsiya qilish va u jarayonlar rivojlanishi va faoliyatiga ta’sir etish.

Virtual reallik imkoniyatlarini amalga oshirilishi dastur vositalari ishlab chiqish darajasi hamda shu muhitlarni yaratuvchi apparatura bilan belgilanadi.

Virtual reallikni o‘quv jarayonida qo‘llanilishi konstruktiv-grafik, badiiy vazifalarni yechishda, kompyuter grafika, mutaxassislar mashqida qo‘llash tavsiya qilinadi.

Geoaxborot tizimlari

Bular o‘qitish subyekti va obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Masofaviy o‘qitish tizimida geoaxborot tizimlar kartografik tarzda vezullahsgan va fazoviy tahlil funksiyasiga ega axborot bazasi sifatida qo‘llaniladi.

Masofaviy laboratoriya praktikumlarining aktualligi ayniqsa, texnika mutaxassislarini tayyorlashda ko‘zga tashlanadi, chunki bu

mutaxassislarning malakasi faqatgina nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy laboratoriya tekshirishlar o'tkazish ko'nikmalari bilan ham belgilanadi. Bu muammo ikki yo'l bilan hal qilinadi:

1. Maxsus mobil kompleksini ishlab chiqish va uni o'quvchiga yetkazish.
2. Laboratoriya uskunalaridan masofadan foydalanish imkoniyati yaratish.

Masofaviy o'qitish shakllari

M a ' r u z a

Ma'ruzalar o'quv mashg'ulotlarining eng muhim shakllaridan bo'lib, o'quvchilarning nazariy tayyorgarlik asosini tashkil etadi. Ma'ruza predmet bo'yicha ilmiy bilimlarning tizimli asosini berish, muayyan fan-texnika sohasida muammo va taraqqiyot istiqbollarini yoritish, eng muhim va murakkab masalalarga e'tiborni qaratish bilan xarakterli. Ma'ruza o'quvchining o'quv faoliyatini jadallashtirish va ijodiy fikrlashga undashi kerak.

Masofadan o'qitish tizimida asosan dastlabki ma'ruzalar qo'llaniladi.

Masofadan o'qitishda ham ma'ruzaga bo'lgan umumiy talablar saqlanib qoladi. Masofadan o'qitishda ma'ruza real va noreal vaqtida o'tkazilishi mumkin, ular frontal yoki individual tarzda berilishi mumkin. Frontal ma'ruza uchun televidenie qo'llaniladi. Individual varianti kompyuterli videokonferensiya yordamida o'tkaziladi. Kompyuterdan ekranga chiqaruvchi proyektor qo'llanganda video-konferensiya frontal ma'ruza uchun ham qo'llaniladi.

O'tkazilgan tekshirishlar natijalariga qaraganda masofadan ma'ruzalarning matnli (elektron ma'ruza) variantini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Elektron ma'ruza – elektron ko'rinishdagi o'quv materiallar to'plami. Unga ma'ruza matnidan tashqari matn fayllari ko'rinishidagi boshqa o'quv qo'llanma va ilmiy maqolalardan materiallar qo'shiladi.

Matn ko'rinishidagi ma'ruzaning afzalliklari:

- o'quvchining tushunarsiz joyga ko'p karra qaytish imkoniyati mavjudligi;
- bir vaqtning o'zida matnni o'qish, fikrlash va tahlil qilish mumkin;

- umumiy tarkibni ko‘rish ancha oson;
- material batafsil ishlab chiqilganligi va tushunganligi sababli o‘quvchida prinsipial, chuqur ma’noli savollar tug‘iladi. Elektron ma’ruzaning kamchiligi – ma’ruzachi bilan muloqotning ijobiy psixologik faktori yo‘qligi.

Matn ko‘rinishidagi ma’ruza o‘tilganidan so‘ng elektron pochta orqali konsultatsiya o‘tilsa maksimal didaktik samara olinadi.

Seminar

Masofadan o‘qitishda seminarlar videokonferensiya yordamida o‘tkaziladi.

Pedagogik nuqtai nazardan videokonferentsiya yordamida o‘tkazilgan seminar odatdagи seminarдан farq qilmaydi, chunki ishtirokchilar bir-birlarini ekranда ko‘radilar.

Telekonferensiya yordamida o‘tkaziladigan seminar (yozma ravishda) virtual noreal vaqt masshabida bo‘lib, (off-line) ishtirokchilar bir-birini ko‘rmasdan o‘z matnlari bilan almashinishadi.

Konsultatsiyalar

Masofaviy o‘qitish tizimida konsultatsiyalar yangi axborot texnologiyalar yordamida olib boriladi: telefon, elektron pochta, video va telekonferensiya. Ko‘p hollarda telefon va elektron pochtadan foydalaniladi.

Laboratoriya mashg‘ulotlari

Laboratoriya mashg‘ulotlari ikki xil o‘tkazilishi mumkin:

1. Kompyuter tarmoqlari orqali (laboratoriya uskuna va tajribani modellashtiruvchi) markaziy kompyuter bilan bog‘lanish.
2. «Uyga» portativ laboratoriya praktikumini yetkazib berish.

Nazorat tadbirlari

Masofadan o‘qitishda pedagog va o‘quvchi orasida bevosita kontakt bo‘limganligi sababli ta’lim jarayonida olingan bilim va ko‘nikmalarni tekshirish va nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Masofadan o‘qitishda nazoratning o‘ziga xosligi shundaki, unda shaxsni aniqlash funksiyasini amalga oshirish zarurati mav-

jud. O‘quv materialini masofadan o‘qitishda o‘zlashtirish sifatini an’anaviy o‘qitishdagidek quyidagilar bilan xarakterlash mumkin.


- tasavvur darajasi;
- qaytarish darajasi;
- ko‘nikma tajriba darajasi;
- ijod darajasi.

Masofaviy o‘qitishda quyidagi nazorat ko‘rinishlari qo‘llaniladi: imtihon, nazorat ishi, sinov, kurs va diplom ishlari.

Testlar masofadan o‘qitishda o‘z-o‘zini tekshirish va yakuniy nazoratda keng qo‘llaniladi.

Nazoratni tashkil etilishini 6-chizmada ko‘rish mumkin.

6-chizma.



Nazoratni quyidagi ikki tipini qo‘llash maqsadga muvofiqli: reglamentli nazorat, o‘z-o‘zini tekshirish

Nazoratning reglamentli shakliga quyidagilar kiradi:

- kirish nazorati;
- joriy nazorat;
- yakuniy nazorat;

O‘z -o‘zini nazorat qilish maxsus dasturlar asosida amalga oshiriladi.

Mustaqil ish

Masofadan o‘qitishning bu shakli asosiy hisoblanib, yuqorida keltirilgan barcha o‘quv vositalari qo‘llanilidi. O‘quvchilarning mustaqil ishi individual, juftlar va guruhlar asosida olib borilishi mumkin. O‘zaro yordam ko‘rsatish guruhlarini tashkil etish yuqori samaradorlikka ega ekanligi tajribada sinalgan.

O‘quvchilarning o‘quv joylarini 3 turga bo‘lish mumkin.

- ish joyida yangi axborot texnologiyalar vositalari mavjud emas;
- magnitofon va (yoki) videomagnitofon mavjud;
- kompyuter tarmoqlariga ulangan kompyuter mavjud.

Masofadan o‘qitishda «faol o‘qitish metodlari» qo‘llaniladi. Bularga o‘quvchining o‘rganish faoliyatini faollashtirish yo‘llari va ba’zi pedagogik usullar va dars o‘tishning maxsus shakllari kiradi. Bu metodlar o‘quvchida quyidagi ijobjiy sifatlarning shakllanishiga olib keladi:

- umumiy masalani hal qilish bilan shug‘ullanayotgan guruhda tez adaptatsiyalanish qobiliyati;
- shaxsiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish, axborot bilan almashinish va zarur fikrlarni shakllantirish, ishni to‘g‘ri taqsimlash va tashkil etish qobiliyati;
- arofdagilar qarshiligini yengish, kelishmovchiliklarning oldini olish qobiliyati;
- o‘z hatti-harakatlarni tahlil qilish va baholash.

Masofadan o‘qitishda quyidagi an‘anaviy o‘qitish metodlari samarali qo‘llanilishi mumkin: «Muayyan vaziyatni tahlil qilish», mavzuli mashg‘ulotlar («xizmat safari»), («joylarda seminar o‘tish»), («davra stoli»).

Faol o‘qitish metodlari o‘qitishning kontaktli va kontaktsiz davrlarida qo‘llanilishi mumkin. Kontaktsiz davrda kompyuter tarmoqlari (internet) va audio-videokompyuter vositalari qo‘llaniladi. Hozirgi vaqtida kooperativ o‘qitish metodlari rivojlanmoqda (projektlar metodi, o‘quv firmalar metodi).

Projektlar metodi deb, o‘quvchilarning birgalikdagi o‘rganish, ijod va o‘yin faoliyatları tushiniladi.

Bu faoliyat kompyuter telekommunikatsiyalari asosida tashkil etilib, umumiy natijaga qaratilgan umumiy maqsad va metodlarga ega bo‘ladi.

Proyektlar metodi bo'yicha o'qiyotgan o'quvchi rejalashtirish va amaliy vazifalarni bajarish jarayonida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Bu metod XIX asrning ikkinchi yarmida AQSHda vujudga kelib, «bajarish yo'li bilan o'qish» shiorini oldinga surgan pragmatik pedagogikaning nazariy konsepsiyasiga asoslangan. Hozirgi paytda kompyuter tarmoqlarining didaktik imkoniyatlari bu yo'nalishni qayta tiklashga imkoniyat yaratadi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Masofaviy ta'lim haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Masofaviy ta'limning tarkibiy qisimlari nimalarni o'z ichiga oladi?
3. Masofaviy ta'lim qanday prinsiplarga asoslanadi?
4. Masofadan o'qitishning uslubiy vositalariga nimalar kiradi?
5. Masofaviy ta'lim qanday texnologik vositalarga tayanadi?
6. Masofaviy o'qitish tiziminining metodologik asoslarini aytинг.
7. Masofaviy o'qitish jarayonining o'ziga xosliklari nimalardan iborat?
8. Masofaviy ta'limning didaktik tizimi nimalarni o'z ichiga oladi?
9. Masofadan o'qitishning metod va vositalarini tushuntiring.
10. Masofaviy o'qitish vositalariga nimalar kiradi?
11. Masofadan o'qitish shakllarini aytинг.

7-mavzu. Didaktik o'yinlarning o'quvchi shaxsini shakllanishidagi o'rni

R e j a :

1. Boshlang'ich ta'limda motivlar hosil qilishda didaktik o'yinlarning o'rni.
 2. Didaktik o'yin turlari.
 3. Didaktik o'yin bosqichlari.
4. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tajribasida qo'llaniladigan o'yinlar.
5. Didaktik o'yinlarning o'quvchilarni bilimga qiziqtirishdagi o'rni.

Asosiy tushunchalar: motiv, didaktik o'yinlar, o'yin faoliyati, immitatsiya, model, o'yin komponentlari, o'yin yo'nalishlari, o'yin turlari, o'yin qoidalari.

Boshlang'ich ta'limdi motivlar hosil qilishda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir.

O'yinsiz tom ma'nodagi aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. O'yin o'quvchilarda bilimga ishtyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir.

O'yin – boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar – o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan usul. O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi.

O'yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o'quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi.

O'yin orqali bolalar borliqni o'rganadi va dunyoni o'zgartirishga harakat qiladi. Shunday qilib, o'yin inson faoliyatining shakllanishi-ga asos soladi. O'yinda inson borliqni aks ettirish qobiliyatini namoyon qiladi. O'yinnning eng muhim ahamiyati shundaki, unda ilk bor bolaning dunyoga ta'sir etish ehtiyoji paydo bo'ladi va shakllanadi.

Maktab yillarida o'yin shakkari yanada kengroq rivojlanadi. O'quvchilarning o'yin faoliyati juda ko'p soha olimlarini, ya'ni, faylasuflar, sotsiologlar, biologlar, san'atshunoslar, etnograflar, ayniqsa, pedagoglar va psixologlarni qiziqtiradi.

Psixologiyada bola psixikasining rivojlanishida o'yining hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qaraladi. Faqat o'yindagina bolada shaxsnинг hamma tomonlari birlikda va o'zaro ta'sirda shakllanadi. O'yingina bola psixikasida rivojlanishning yuqoriq stadiyasiga o'tish uchun muhim zamin yaratadi.

Didaktik o'yin o'rganilayotgan voqe va hodisalarning immitatsion modeli yaratilishi sohasidagi faol faoliyatdir. O'yinning boshqa faoliyat turlaridan muhim farqi shundaki, uning predmeti inson faoliyatidir. Didaktik o'yinda faoliyatning asosiy turi hamkorlikdagi o'quv faoliyatidir.

Didaktik o'yinda o'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olgan ta'limiylar vazifalarning bo'lishi muhimdir. Rahbarlik qiluvchi kattalar didaktik o'yinlarning u yoki bu shaklini yaratish ekan, uning bolalar uchun qiziqarli va ular diqqatini to'playdigan turlariga e'tibor qaratishlari lozim.

Didaktik o‘yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgilari uning tarkibi qat’iyligidir. Didaktik o‘yinlarning tarkibiy komponentlari quyidagilar: o‘yin mantiqi, o‘yining harakati, o‘yin qoidasi.

O‘yin mantiqi asosan uning sarlavhasida aks etadi. O‘yin harakati jarayonida o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishga, o‘quvchilarning o‘z qobiliyatini namoyon qilishiga, o‘yin maqsadiga erishish uchun o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini qo‘llashga imkoniyat yaratiladi.

O‘yin qoidasi o‘yin jarayonini to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi. U o‘quvchilar xulqini, ularning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi. Didaktik o‘yinlarda ma’lum bir natijaga erishiladi, uning finali uning tugaganligini bildiradi. O‘yinda ma’lum bir didaktik maqsad qo‘yiladi va bu maqsadga erishilishi o‘quvchilarda ma’naviy va aqliy qoniqish hissini shakllantiradi. Didaktik o‘yinlar hammavaqt o‘qituvchi uchun o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirishi yoki o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Didaktik o‘yinlarning hamma tarkibiy komponentlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ulardan birortasining bo‘lmasligi mumkin emas.

Xalq pedagogikasida shakllanib kelgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalashda didaktik o‘yinlardan keng foydalanish an’analari o‘qituvchilarning amaliy tajribalari va olimlarning ishlarida rivojlanтирildи.

Chex pedagogi Ya. A. Komenskiy o‘yinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta’kidlab, aynan o‘yin bolaning tabiatini va qiziqishlariga mos kelishini aytgan edi. Olim o‘yin bolaning aqliy qobiliyatlarini har tomonlama o‘sirishi, uning atrof-tevarak haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi, nutqini o‘sirishini ta’kidlaydi. Shuningdek, tengdoshlari bilan birligida o‘yin uni tengdoshariga yaqinlashtiradi.

Bolalar tarbiyasida didaktik o‘yinlardan ikki yo‘nalshda: barkamol insonni shakllantirish va tor didiktik maqsadlarda foydalilanadi. O‘yin o‘quvchi faoliyatining asosiy shaklidir. O‘yin – muhim aqliy faoliyat turlaridan biri bo‘lib, unda o‘quvchi qobiliyatining hamma turlari rivojlanadi, uning atrof-olam haqidagi tasavvurlari kengayadi, nutq boyligi oshadi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchining turli-tuman qobiliyatları, idroki, nutqi va diqqatining rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi davrda pedagoglar tomonidan tayyor mazmun va qoidalarga ega bo‘lgan o‘yinlar yaratilmoqda. Bola shaxsida ma’lum sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan o‘yinlarda aniq qoidalar berilgan bo‘ladi. Tayyor qoida va mazmunga ega bo‘lgan o‘yinlarga quyidagi xususiyatlar xos bo‘ladi: o‘yin g‘oyasi va vazifasi o‘yin ta’sirida amalga oshiriladi. O‘yin g‘oyasi (yoki vazifasi) va o‘yin ta’siri o‘yin mazmunini tashkil etadi; o‘yin ta’siri va o‘ynayotganlar munosabatlari o‘yin qoidasi asosida boshqariladi. Qoidalar va tayyor o‘yin mazmuni o‘quvchilaarni o‘yinni mustaqil tashkil etishlariga yordam beradi.

Didaktik o‘yinlarni uch turga ajratish mumkin: og‘zaki, so‘zlar yordamida o‘ynaladigan o‘yinlar, o‘yin mashg‘ulotlari, mashq (harkatli) o‘yinlar.

Didaktik o‘yinlar uchun o‘yin g‘oyasi va o‘yin vazifalari muhim ahamiyatga ega. Didaktik o‘yining eng muhim elementi uning qoidasi hisoblanadi. Qoidani bajarish jarayonida o‘yin mazmuni amalga oshadi. Qoidaning mavjudligi o‘yin ta’sirini amalga oshirish va o‘yin vazifasini qo‘llashga yordam beradi. Qoidani bajarish jarayonida o‘yin mazmunini amalga oshirish dunyoqarashi shakllanib boradi.

Didaktik o‘yinda o‘quvchi qoidalarga rioya qilishga o‘rganadi. Chunki qoidalarga rioya qilish o‘yin muvaffaqiyatini ta’minlaydi. O‘yinda qatnashish jarayonida ijobiy xulqiy sifatlar, tashkilotchilik qobiliyati shakllanadi.

Foydalanilgan material turlariga qarab ham didaktik o‘yinlarni uch turga ajratish mumkin: predmetli o‘yinlar, stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar, so‘zlar vositasida o‘ynaladigan og‘zaki o‘yinlar.

Predmetli o‘yinlar – xalq didaktik o‘yinchoqlari, turli tabiiy mozaika materiallari yordamida o‘ynaladigan o‘yinlar. Bular yordamida o‘qituvchi o‘yin turlarini belgilaydi. Masalan, tabiiy materiallar bo‘laklaridan butun manzarani hosil qilish,

Stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar atrof-muhit haqidagi tasavvurlarning kengayishiga, o‘quvchilarни bilimga qiziqtirishga, tafakkur jarayonlarini(analiz, sintez, umumlashtirish, tasniflash va b.) rivojlantirishga xizmat qiladi. Stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlarning bir nechta turlari mavjud: o‘xhash suratlar, loto, domino, kesma suratlar, taxlama kubiklar.

So‘zlar vositasida o‘ynaladigan og‘zaki o‘yinlar. Bu o‘yinlar guruhiga juda katta xalq o‘yinlari, ya’ni «Zanjir», «Noto‘g‘ri jumla», «Bo‘lishi mumkin emas», «Tez aytish», «Topishmoqlar», «Aytishuvlar» va shu kabi og‘zaki nutq bilan bog‘liq o‘yinlar kiradi. Bunday o‘yinlar diqqatni, xotirani rivojlantiradi, o‘quvchilarni fikrlarini to‘plashga, tez fikrlashga, bog‘lanishli nutqqa, mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi.

Didaktik o‘yinda bola yaxshi xulqiy sifatlarga ega bo‘ladi Didaktik o‘yinlar bir necha bosqichlarga bo‘linadi. Har bir bosqichda bolaning ma’lum bir imkoniyatlari namoyon bo‘ladi. Tarbiyachining bu bosqichlar xarakterini bilishi didaktik o‘yinlarning samaradorligini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Birinchi bosqichda bolada o‘ynash ishtiyoqi paydo bo‘ladi va o‘yinda faollik ko‘rsata boshlaydi. Ana shu bosqichda bolani o‘yinga qiziqtirish maqsadida topishmoqlar, tez aytishlar, aytishuvlar yoki suhbatlar tashkil qilish mumkin. Ikkinci bosqichda bola o‘yin topshiriqlarini bajarish, qoidaga rioya qilishga o‘rganadi va o‘yinda qatnashishga kirishadi. Bu bosqichda bolalarda to‘g‘riso‘zlik, maqsadga erishishga astoydil kirimish, irodaviylik, o‘yinda yutqizish alamini ham yenga bilish, o‘z muvaffaqiyatidangina emas, o‘rtoqlari muvaffaqiyatidan ham quvonabilish kabi ijobjiy sifatlar shakllanadi. O‘yinning uchinchi bosqichida bola o‘yin qoidalarini yaxshi biladi. U endi o‘yinga ijodiy yondoshadi, o‘zi yangiliklar kiritadi, mustaqil ijodiy izlanadi. O‘yinda qatnashish jarayonida u tez javob topish, yashirish, izlash, yugurish, tasvirlash va boshqa shu kabi vazifalarni bajaradi. O‘yinning har bir etapi ma’lum bir pedagogik vazifalarni o‘z ichiga oladi. O‘yinning birinchi bosqichida pedagog bolalarni o‘yinga qiziqtiradi, ularda xush kayfiyat, yangi o‘yinlarni kutishga ishtiyoq uyg‘otadi. ikkinchi etapida esa u o‘yinni kuzatuvchi emas, balki qatnashchisi sifatida faoliyat ko‘rsatadi, o‘yin davomida bolalarga tez yordamga keladi, bolalarning faoliyatiga to‘g‘ri baho beradi. O‘yinning uchinchi etapida o‘qituvchi bolalarni o‘yin davomidagi ijodkorligi va faolligiga baho beradi.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni tarbiyalashning eng to‘g‘ri va samarali metodidir. U ma’lum bir materiallar yoki shart-sharoitlarni talab etmaydi, balki o‘qituvchidan o‘yinni tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarni talab etadi. O‘yinning ma’lum bir tizim va metodika asosida tashkil etilishigina o‘quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

O‘yin mashg‘ulotlari ta’lim jarayonida o‘quvchilarning egallangan bilim, ko‘nikma va malakalariga tayanadi va shundagina o‘quvchilar o‘yining samarali yechimlarini topa biladilar, o‘zlari va atrofdagilarga talabchanlik namoyon qiladilar.

O‘yindan ta’lim shakli sifatida foydalanish o‘qituvchidan o‘ziga ishonch va o‘yinni qo‘llashda mohirlik talab etadi.

Didaktik o‘yinlar bir qancha vazifalarni bajaradi:

- ta’limiy, tarbiyaviy (o‘quvchi shaxsiga ta’sir ko‘rsatadi, tafakkurini rivojlantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi);
- qo‘llanuvchanlik (aniq vaziyatda har qanday o‘quv topshirilarni bajarish uchun bilimlarni qo‘llay bilish);
- motivni qo‘zg‘ash, qiziquvchanlikni oshirish (o‘quvchilarni bilish faoliyatiga qiziqtiradi, rag‘batlantiradi, bilish qiziquvning rivojlanishiga yordam beradi).

O‘qituvchilar tajribasida qo‘llaydigan ba’zi didaktik o‘yinlardan misollar keltiramiz:

a) O‘yin-mashq. Bu o‘yin guruhsida, yoki jamoada birgalikda qo‘llanishi mumkin. Lekin bu o‘yin individuallashtirilgan. Ya’ni, har bir o‘quvchining o‘z bilimi va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beradi. Bu o‘yindan darsni mustahkamlash yoki o‘quvchilar bilimini nazorat qilish maqsadida ham foydalanish mumkin. Masalan «Adashgan harfni toping». Bir necha o‘rganilgan harflar qo‘yilib, orasida bitta o‘rganilmagan harf ham aralashtirib qo‘yiladi. O‘quvchilar o‘rganilgan harflarni ongida tiklab o‘rganilmagan harfni topib o‘qituvchiga ko‘rsatadilar.

b) Ijodiy izlanish o‘yini. Bunda o‘qituvchi hikoyadagi noto‘g‘ri gapni topish yoki hikoya mazmuniga mos bo‘lmagan gapni topishni aytadi. O‘quvchilar izlanadilar va bunday gapni topib, nega ortiqchaligini isbotlaydilar. Bunday o‘yinlar ko‘p vaqt ni olmaydi, maxsus jihozlarni talab etmaydi, lekin yaxshi natija beradi.

d) O‘yin-musobaqa. Bunda o‘yinda qatorlararo musobaqlar tashkil etilishi mumkin. Shuningdek, viktorinalar, turli konkurslar, olimpiadalar kiradi. Bunday o‘yinlarni darsda va sinfdan tashqarida ham o‘tkazish mumkin.

e) Mazmunli-rolli o‘yinlar. Bu o‘yin o‘quvchilar darsda o‘qituvchi belgilagan maqsadga muvofiq hikoyalari yoki ertaklardagi qahramonlar rolini o‘ynaydilar, yoki davra stoli tashkil etib, turli rollarni bajaradilar. Masalan, muxbir, tarixchi, qishloq xo‘jaligi xodimi va b. Bunday o‘yinlar bolalarda bilimga qiziqish uyg‘otadi, ularni

ijodiy izlanishga undaydi, shuningdek, kasblar bilan tanishuvlariga yordam beradi.

f) Bilishga doir o‘yinlar – sayohat. O‘quvchilar O‘zbekiston va boshqa mamlakatlar haqidagi bilimlarga ega bo‘iganlaridan keyin bilimlar yurtiga «sayohat» o‘tkazish mumkin. Sayohat davomida o‘quvchilarga yangi bilimlar ham beriladi, ularning bilimlari tekshiri-lib ham ko‘rilishi mumkin. Bu mustahkamlash – umumlashtirish darslarida tashkil qilinsa yanada samarali bo‘ladi,, o‘quvchilarning ma’lum bir bo‘limni qanday o‘zlashtirganlari haqida o‘qituvchi tasavvurga ega bo‘ladi.

Didaktik o‘yinlar vositasida o‘quvchilarda bilimga qiziqishni uyg‘otish uning qiziqishlariga tayanib tashkil etilsa samarali bo‘ladi. Bunday hollarda bolada doim yangiliklarni bilishga ishtiyoq uyg‘onadi, bilimga qiziqish uyg‘onadi. Bilimga qiziqishni muntazam rivojlanadirish va mustahkamlash kichik maktab o‘quvchilarining o‘qishga ijobjiy munosabatlarini tarbiyalaydi, o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Bilishga qiziqish kichik maktab o‘quvchisini izlanishga o‘rgatadi, u doim har xil savollarga javobni qidirishga o‘rganadi. O‘quvchining izlanuvchanlik faoliyati unda emotsiional ko‘tarinkilik, muvaffaqiyatdan quvonish hissini tarbiyalaydi. Bilishga qiziqish faqat ta’lim jarayoni natijasiga ijobjiy ta’sir qilib qolmay balki tafakkur, idrok, xotira, diqqat kabi psixik jarayonlarning faol rivojlanishi ga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Bilishga qiziqish – bu o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishini oshiruvchi motivlardan biridir. Uning ta’siri juda kuchli bo‘ladi. Bilishga qiziqishni uyg‘otish hatto bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni ham samarali ishlashiga yordam beradi.

To‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik jarayonda o‘quvchilar foliyati, tarbiyaviy faoliyat tizimli va muntazam tashkil etilsa, bilishga qiziqish o‘quvchi shaxsining asosiy sifatlaridan biriga aylanadi va uning rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Bilimga qiziqish ta’lim jarayonining kuchli vositasiga aylanadi. Abu Rayhon Beruniy o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga qiziqtirish muhim vazifa ekanligini uqtirib, «Qadimiylar xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida «Maqsad gapni cho‘zish emas, balki o‘quvchini zeriktirmaslik, chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O‘quvchi fandan-fanga o‘tib tursa, turli bog‘larda yurganga o‘xshaydi. Birini ko‘rib ulgurmasdan boshqasi

boshlanadi va u kishi har bir narsada o‘ziga yarasha lazzat bor deyil-ganidek ularni ko‘rishga qiziqadi va ko‘zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi», – деган эди.

O‘quvchining bilish faoliyatini faollashtirmsadan turib uni bilimga qiziqtirish mumkin emas. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida o‘quvchini bilimga doimiy qiziqtirish, uning o‘qish motivini rivojlantirish tarbiyalovchi ta’limning eng muhim vositasidir. Shunday qilib, bilishga qiziqish o‘quvchi shaxsidagi bor imkoniyatlarning ro‘yobga chiqishiga ham ko‘maklashadi.

Bilishga qiziqish shaxsning boshqa sifatlari kabi o‘qish-o‘rganish jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

O‘quvchilarning bilishga qiziquvi ikki asosiy yo‘l bilan tashkil etiladi. Birinchisi, o‘quv materialining o‘zi o‘quvchilarda bilimga qiziqishni paydo qiladi. Chunki o‘rganilmagan yangi narsa insonlar tomonidan qiziqish bilan o‘rganiladi. Ikkinci tomonдан o‘quvchilarning bilish faoliyatini qiziqarli tashkil etish yo‘li bilan bilimga qiziqtirish mumkin.

O‘quvchilarda bilishga ishtiyoqni uyg‘otadigan birinchi omil – bu dunyo haqidagi yangi bilimlardir. Shuning uchun ham yangi materialni bolalar yoshiga mos ilmiy bilimlarning butun boyliklari bilan ko‘rsata olish o‘quvchilarda o‘qishga qiziqishni uyg‘otadi.

O‘quvchilar uchun yangi bo‘lgan, hali tushunilmagan material ularda hayratlanish hissini uyg‘otadi. Hayratlanish esa o‘quv materialini bilishga qiziqish uyg‘otadigan eng muhim omil. Biror bir narsadan hayratlangan odam unga qarashga, undan yangilikni bilib olishga intiladi. Bu esa insonni dunyo haqidagi yangi bilimlarni egallab olishiga yordam beradi. Yangi bilimlarni qiziqish bilan egalashda albatta oldin o‘rganilgan bilimlarga murojaat qilinadi. Shuning uchun ham o‘quvchilarning bilishga qiziqishini tarbiyalashda o‘rganilgan bilimlardan yangilarini aniqlashga o‘rgatish lozim.

O‘quvchilarni fanning yangi yutuqlari bilan tanishtirish o‘quv dasturlari doirasini kengaytirish, ularni ilmiy, ijodiy izlanishlar doirasasi bilan tanishtirish o‘quvchilarning bilishga qiziqishlarini oshiradi.

Hamma o‘quv materiallari ham o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lavermaydi. Bunday hollarda bolalarni ta’lim jarayoniga qiziqishini oshirishning birdan bir yo‘li didaktik o‘yinlardan foydalanish va ularni tashkil etishdir. O‘quvchilarda o‘qishga ishtiyoqni oshirish

uchun ularni ta'limga qiziqtirish lozim. Buning uchun esa o'quvchi ta'lim jarayonidan qiziqarli tomonlarni topishi va bu jarayon o'z ichiga o'quvchini qiziqtira oladigan materiallarni olishi lozim. Buning yo'li ta'lim jarayoniga didaktik o'yinlarni kiritishdir.

Quyida shunday o'yin turlari bilan tanishasiz:

«O'zim tekshiraman»

Bunday o'yinlar o'tkazishda o'qituvchi kichik hajmdagi diktantlarni tanlaydi. Bunday o'yinlarni har bir boshlang'ich sinfda darsning avvalida o'tkazish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga kichik hajmdagi diktant yozdiradi. Barcha o'quvchilar yozib bo'lishgach o'qituvchi xattaxtaga diktantni yozib ko'rsatadi. Diktant xattaxtaga oldin yozilib, usti yopib qo'yilgan bo'lsa, o'qituvchi pardani ochadi. O'quvchilar esa o'qituvchi yozganiga qarab o'zlarining diktantlarini tekshiradilar. Bunday diktantlarni hatto alifbe darsida ham qo'llash mumkin bo'lib, o'qituvchi avvaliga faqat harflardan, so'ngra (undosh harflar bilan tanishtirilgach) bo'g'indan iborat diktant yozdirsa bo'ladi.

1 – *variant*: O.o. I.i. U. u. A. a. O'.o'.

2 – *variant*: – Lo. – no. – to. – mi. – in.

3 – *variant*: Bola, lola, ona, zar, par.

4 – *variant*: Bugun havo issiq.

«Hikoya»

O'qituvchi xattaxtaga bir nechta so'z yozib qo'yadi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar.

O'quvchilar hikoya tuzar ekanlar, ularning lug'at boyligi ortishi bilan birlgilikda, gaplarni to'g'ri tuzish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

O'quvchilarni vaqtı-vaqtı bilan rag'batlantirish o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. Bu o'yindan ona tili darslari-da yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garaklarda foydalanish mumkin.

1 – *variant*: Nafisa, soat, yomg'ir, kitob.

2 – *variant*: Olma, kasal, o'rtoq, Abduvali.

3 – *variant*: Mushuk, bobo, poliz, non, sichqon.

« U kím? Bu nima? »

Stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo'yiladi. O'qituvchi shu predmetlardan birortasini ta'riflaydi, o'quvchilar shu belgilar asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar.

Bu o'yining afzallik tomoni shundaki, undan dars davomida o'quvchilar diqqatini jamlash, qo'llariga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, ona tili darslarida yangi mavzuni bayon qilish jarayonida ham foydalanish mumkin.

Bu o'yin o'quvchilarda ziyraklik, sinchikovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga imkon beradi. Bundan tashqari, bu o'yindan dam olish daqiqalarida ham unumli foydalanish mumkin.

1-variant: U shar shaklida. Uni katta-katta sportchilarimiz ham stadionlarda o'ynaydilar. Yosh bolalar ham uni sevib o'ynaydilar.

(Javob: «Koptok»)

2-variant: U barcha o'quvchilar o'rtog'idir. Onalarimiz ham, otalarimiz ham uni juda yaxshi ko'radilar.

(Javob: «Kitob»)

3-variant: U shunday narsaki, bizga vitaminlarga boy mevalar beradi. Xohlasak stol yoki stul ham bo'lishi mumkin.

(Javob: «Daraxt»)

«Topag'on»

O'qituvchi biror belgi asosida savol beradi. O'quvchilar shu belgini o'ziga jam qilgan predmetlar nomlarini yozadilar, eng ko'p to'g'ri javob topgan o'quvchilar g'olib sanaladi.

Bu o'yinni o'tkazish o'quvchilarga so'z turkumlari haqidagi dastlabki ma'lumotlar berish jarayonini yengilashtiradi. Bundan tashqari ularning so'z boyligi ortib, ularda hozirjavoblik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlar shakllanadi.

1-variant: Savol: Nima oq rangda?

Javob: Qog'oz, daftар, surp, bulut, parda, бувумнинг соchlari, qor.

2-variant: Savol: Nima yumshoq?

Javob: Non, xamir, yostiq, ko'rpa, paxta.

3-variant: Savol: Nigora nima qilayapti?

Javob: Kitob o'qiyapti, kir yuvayapti, qoshiq artayapti.

«Noto‘g‘ri jumla»

Bu o‘yin suratlar asosida o‘tkaziladi. O‘quvchini suratni tasvirlab berishi asnosida suratlarga tegishli bo‘limgan jumlalarni ham ishlatadi. O‘quvchilar ziyraklik bilan shu jumlalarni topishlari lozim.

O‘quvchilardan bu o‘yin davomida ziyraklik, sinchkovlik, kuzatuvchanlik va diqqat talab qilinadi. Ular suratni sinchkovlik bilan kuzatib turib o‘qituvchining hikoyasini ham diqqat bilan tinglab turadilar. Har bir noto‘g‘ri jumlani topa bilish ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini va darsga qiziqishini ottiradi. Bu o‘yin-dan faqat ona tili darslarida emas, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham foydalanish mumkin.

1-variant (Manba. T.G‘afforova va b.q. «Ona tili», 1-sinf uchun darslik. 2009-y. 36-bet, 62-mashq.)

Hasan tuxumlarni joyiga qo‘ydi. Bir necha kun o‘tdi. Nigora koptogini yo‘qotib qo‘ydi. Qaldirg‘och bola ochdi.

(Nigora matnda yo‘q.)

2-variant: (Manba shu darslik, 52-bet, 96-mashq.),

Bobomiz Amir Temur bog‘lar yaratgan.

Bog‘larning ichiga saroy, hovuz, favvora qurdirgan. Gulnora kitob o‘qib o‘tirgan edi. U yerlarda mevali daraxt, chinor, gul ektirgan.

(Javob: Gulnora haqidagi jumla matnga tegishli emas.)

3-variant : (Manba shu darslik, 60-bet, 109-mashq.)

Buxoro qadimiy va navqiron shahar. Shaharda Labihovuz, Ko‘kaldosh kabi yodgorliklar bor. Dildora a’lochi qiz. Sayohatchilar Shohrud arig‘i bo‘yida sayr qiladilar.

(Javob: Dildora haqidagi jumla matnga tegishli emas.)

«Bo‘lishi mumkin emas»

Bu o‘yinni o‘tkazishda o‘qituvchi matnni o‘qiydi. O‘quvchilar bo‘lishi mumkin bo‘limgan voqealar ifodalangan jumla yoki gapni topishlari lozim.

Hazil-mutoyiba bilan o‘tadigan bu o‘yin ham o‘quvchilardan ziyraklik, sinchkovlik va kuzatuvchanlikni talab qilishi bilan birgalikda, ulardan atrofida sodir bo‘layotgan voqe va hodisalarga befarq bo‘lmaslikni ham talab qiladi. Undan tashqari ularning darsdan

tashqari bo‘lgan ilmiy va badiiy adabiyotlarga va ilmiy-ommabop filmlarga qiziqishini orttiradi va hikoya tinglash ko‘nikmasini shaklantirishga yordam beradi.

Bu o‘yin bir necha marta o‘tkazilgach, keyinchalik o‘quvchilarga shunday hikoyachalar tuzishni ham topshirish mumkin.

«Bo‘lishi mumkin emas» o‘yinidan foydalanib o‘qituvchi ona tili yoki o‘qish darslarining samarali bo‘lishiga erishishi mumkin. Bundan tashqari badiiy ertaliklar, musobaqalar, viktorinalar o‘tkazishda ham foydalanish mumkin.

1-variant: Dushanba dam olish kuni bo‘lgani uchun Olim maktabga bormadi. U singlisi Vazira bilan hayvonot bog‘iga bordi. Ular hayvonot bog‘ida suvda suzib yurgan sherni. qafasda sayrayotgan baliqlarni va kattakon vahshiy bulbulni ko‘rdilar.

2-variant: Ibratjon yozgi ta’til kunlarida buvisinikiga dam olgani bordi. U qishloqda o‘rtoqlari bilan qor bo‘ron o‘ynadi. Buvisiga sigirlarga don berishda yordamlashdi. Buvisi sigir sog‘ayotganda sigirning uloqchasini ushlab turdi.

3-variant: Abdulla juda bilimli bola. U bugun ham topshiriqni juda yaxshi bajardi. O‘qituvchi uni maqtadi va «nol» ball qo‘ydi. Abdulla yaqinda 2-sinfni tugatib, 1-sinfga o‘tdi.

«Harflarni top»

Bu o‘yinni og‘zaki o‘tkazish yoki rasmli testlarda tovushlarning o‘rnini topishda qo‘llaniladigan rangli to‘rburchak qog‘ozchalar vo’sitasida ham o‘tkazish mumkin. Bunda ikki xil rangda to‘rburchak qog‘ozchalar olinadi. O‘qituvchi so‘zlarni o‘qiydi. O‘quvchilar esa mustaqil ravishda topish lozim bo‘lgan tovush o‘rnini bir xil rangda, qolgan tovushlar o‘rnini ikkinchi xildagi qog‘ozchalar bilan ko‘rsatadilar. Masalan: «Ona» so‘zidagi «a» tovushining o‘rnini shunday ko‘rsatadilar.



Yoki so‘zni bo‘g‘inga bo‘lib ko‘rsatadilar



Bu o‘yindan o‘qituvchi o‘quvchilarning savodini chiqarishda samarali usil sifanida foydalanishi mumkin.

O‘quvchilarning nutqini rivojlantirish maqsadida o‘yinni og‘aki o‘tkazish ham mumkin.

1-variant: «A» « tovushining o‘rnini topish.

Ona, maktab, kino, kitob.

«Maktab» so‘zida «a» unlisi birinchi bo‘g‘inda ikkinchi o‘rinda turibdi. Ikkinchi bo‘g‘inda ham ikkinchi o‘rinda turibdi;



«Kino va «Kitob» so‘zlarida «A» tovushi qatnashmagan.

2-variant: «T» « tovushining o‘rnini topish.

Komil, kitob, safar, xat.

3-variant: «K» tovushining o‘rnini topish.

Karim, maktab, odam, tilak.

«O‘qib ko‘r-chi»

O‘qituvchi o‘quvchilarga yozma va bosma harflar bilan kattakatta qilib yozilgan so‘zlarni ko‘rsaltidi, O‘quvchilar o‘qiydilar. Tez va to‘g‘ri o‘qigan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Bunda o‘quvchilarda ikki xil – bosma va yozma yozuvni ham o‘qish texnikasi rivojlanadi. Bu o‘yinni «Alifbe» davrida ham qo‘llash mumkin. Undosh tovushlar o‘rganilmagan davrda 1-variantdagи kabi faqat unli tovushlar vositasida o‘tkazish mumkin.

1-variant: o, o‘, i, a, u, O‘, I, A, U.

2-variant: -la, -ol -ma – ur, -ni. osh. ov, -in. -un.

3-variant: Ona, olma, ko‘p, qor, tol, un, ilgak.

4-variant: Bulut, nok, parta, mакtab, uy, kitob.

«Davom ettir»

O‘qituvchi hikoya boshlaydi. O‘quvchilar uni davom ettiradilar. Bunda o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyati riojlanib, bayon yoki insho kabi ijodiy ishlар yozish ko‘nikmasi rivojlanadi va so‘z boyligi ortadi. Bundan tashqari ularda mustaqillik, o‘z kuchiga ishonch hissi rivojlanadi.

«Davom ettir» o‘yinidan ona tili, o‘qish darslarida yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda foydalanish mumkin.

1-variant: «Umida barvaqt mакtabga kelayotganda yo‘lda...»

2-variant: «Havo ilib, qorlar eriy boshladи...»

3-variant: «Biz, sinfimizdagi barcha o‘quvchilar, hayvonot bog‘iga bordik...».

«Safar»

O‘quvchilarga mактабдан yoki o‘z уylаридан ma’лum bir joy-gacha bo‘lgan yo‘lni tasvirlash topshiriladi. O‘quvchilar bir yoki bir necha kun kuzatadilar va yo‘lni og‘zaki tasvirlab beradilar.

Sinchkovlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, atrof-muhitga diqqat-e’tibor talab etiladigan bu o‘yin vositasida Vatanga e’tiqod, tabiatga muhabbat hislarini tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari o‘quvchilarning nutqi rivojlanadi, lug‘at boyligi ortadi. Shu bilan bирgalikda o‘quvchilarning yo‘l harakati qoidalarini qay darajada bishishlarini ham aniqlash mumkin.

«Safar» o‘yinidan mustahkamlash darslarida yoki darsdan tas-haqari mashg‘ulotlarda ham foydalanish mumkin.

1-variant: Uydan maktabgacha bo‘lgan yo‘l.

Men maktabga borish uchun uydan chiqib, o‘ng tarafga yo‘l olaman. Ko‘chaning oxirigacha borib, yana o‘ng qo‘l tomonga bora-man. Oziq-ovqatlar do‘koniga yetib, chap tomonga burilaman. Biroz yurgach maktabimiz oldidan chiqaman.

2-variant: Uydan sport majmuasigacha bo‘lgan yo‘l.

Men sport majmuasidagi kurash to‘garagiga qatnayman. U yerga borish uchun uydan chiqib, chap qo‘l tarafga qarab yuraman. Ko‘chaning oxirigacha borib, o‘ng qo‘l tomonga qarab markaziy yo‘lgacha boraman. Katta yo‘ldan o‘tish uchun piyodalarga ajratilgan yo‘lak bo‘ylab borib, svetoforming qizil chirog‘i yonganda maxsus ajratilgan joydan yurib katta yo‘ldan o‘tib olaman. Yo‘ldan o‘tgach to‘g‘rida sport majmuasi ko‘rinib turadi.

3-variant: Maktabdan buvimnikigacha bo‘lgan yo‘l.

Buvim maktabga yaqin turadilar. Maktabimizning katta darvoza-sidan chiqib o‘ng qo‘l tomonga qarab yuraman. To‘g‘riga boraverib, o‘ng tomonga burilib ketgan qator ko‘chalarining uchinchisiga burilaman. Bu ko‘chaning nomi Al-Forobi. «Al-Forobi» ko‘chasidagi 21-xonadonda buvim yashaydilar.

«Sirli so‘z»

O‘qituvchi o‘quvchilarga sirli katakchalarda bir xil so‘z necha marta yozilganligini topishni aytadi. Eng ko‘p topgan o‘quvchi g‘olib sanaladi. «Sirli so‘z» o‘yini o‘quvchilarga boshqotirmalarni hal etishdagi dastlabki ma’lumotlarni beradi va ularning dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

«Sirli so‘z» o‘yini ona tili, o‘qish darslari samaradorligini oshirish uchun yoki turli ertaliklarning qiziqarli o‘tishi uchun juda qo‘l kelishi mumkin.

1-variant:

N	O	N
O	O	O
N	O	N

.

2-variant:

k	i	y	i	k
i	i	i	i	i
y	i	y	i	y
i	i	i	i	i
k	i	y	i	k

3-variant:

a	z	i	z	a
z	z	i	z	z
i	i	i	z	i
z	z	i	z	z
a	z	i	z	a

«Zanjir»

O‘qituvchi boshlab bir so‘z aytadi. O‘quvchilar bu so‘z qaysi harf bilan tugagan bo‘lsa, shu harf bilan boshlanuvchi so‘zni topib aytadilar. So‘z o‘yini shu tarzda davom etadi.

Bu o‘yinni yuqori sinflarda maqollar, tez aytishlar yoki kichik she‘rlar vositasida o‘tkazish mumkin. Bunday o‘yinlarning o‘tkazilishi o‘quvchilarning xotirasini mustahkamlaydi, hozirjavoblikka, mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Ona tili va o‘qish darslarida dam olish daqiqalarida yoki darsni boshlashdan oldin o‘quvchilar diqqatini to‘plib olish maqsadida foydalanish mumkin.

1-variant: Tabiat, taom, maymun, non, nok, kitob, botir, rayhon...

2-variant: Habiba, ayiq, qiroq, limon, Nigora, Alisher, Ra'no, Olim...

3-variant: Gul, Laziza, Amerika, Anvar, Rahima, Andijon, Namangan...

«O‘yin-topishmoq»

Bu o‘yindan darsning ma’lum bir qismida kichik hajmda yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda katta hajmda foydalanish mumkin. U quyidagi tartibda o‘tkaziladi. O‘qituvchi biror bir so‘zni topishmoqlar yoki so‘zlar vositasida uch marta ta’riflaydi. Birinchi ta’rif murakkab, ikkinchi ta’rif yengilroq, uchinchi ta’rif esa juda yengil bo‘ladi. Birinchi ta’rifdanoq javobni to‘g‘ri topgan o‘quvchiga 3 ball, ikkinchi ta’rifda to‘g‘ri javobni topgan o‘quvchiga 2 ball, uchinchi ta’rifda to‘g‘ri javobni topgan o‘quvchiga esa 1 ball beriladi. Bu o‘yinni bir o‘quvchi bilan og‘zaki yoki ko‘pchilik o‘quvchilar bilan yozma ravishda o‘tkazish mumkin.

Bunday o‘yinlar o‘quvchilar uchun juda qiziqarli bo‘lib, ularning mustaqil fikrlash darajasini aniqlashga yordam beradi va rivojlanadir. «O‘yin-topishmoq» dan darsda yoki darsdan tashaqari mashg‘ulotlarda, ertaliklarda musobaqa tarzida foydalanish mumkin.

1-variant:

1-ta’rif: *Kichkina dono,*

Ichi to ‘la ma’no.

2-ta’rif: *U har birimizda bor.*

Usiz biz maktabga kelmaymiz.

3-ta’rif: *Qat-qat qatlama,*

Aqling bo ‘lsa tashlama. (Javob: «Kitob»)

2-variant:

1-ta’rif: *Tabiat hodisasi. Yog‘maydi-yu, ammo tongda hamma joyni qoplab oladi.*

2-ta’rif: *Sovug‘i bor, emas qor,*

Oppoq, hech kim demas qor.

3-ta’rif: *Sovuq vaqtida tongda hamma joyni qoplaydi-yu, havo sal isishi bilan darrov erib ketadi.* (Javob: «Qirov»)

3-variant:

1-ta’rif: *Aytishlaricha u shunaqa oq ko‘ngil ekanki, mabodo biror kishini chaqib xafa qilib qo ‘ysa, o‘zi halok bo ‘lar emish.*

2-ta'rif: U hasharotning nomiga shirinlik nomi ham qat-nashgan.

*3-ta'rif: Guldan-gulga qo'nar u,
Sharbat yig'ib jo'nar u.
Yig'ib o'zi yemaydi,
Uyasiga to'playdi.
Hosili men-u senga,
Kim nomin aytar menga? (Javob: «Asalari»)*

«Bu meniki»

O'qituvchi harf yozilgan kartochkalarni o'quvchilarga tarqata-di, har bir kartochkada har xil harf yozilgan bo'ladi. Shundan so'ng o'qituvchi so'zlarni o'qiy boshlaydi. O'quvchilar qo'llaridagi kartochkalarda yozilgan harf bilan boshlanadigan so'zni eshitishla-ri bilanoq «Bu meniki» deb javob berishlari shart. O'qituvchi so'zlarni tezroq o'qiydi, shuning uchun o'quvchilardan ziyraklik talab qilinadi.

1-variant: Tarqatiladigan harflar: A. B. ...

So'zlar: *Atlas, vagon, baho, gul, olma, anor, farzand, bahor...*

2-variant: Tarqatiladigan harflar: I. M. T. S.

So'zlar: *Inobat, taom, soat, Maymun, ilon, ta'rif, osmon, marka...*

3-variant: Tarqatiladigan harflar: R. P. O. L. V.

So'zlar: *Rohat, Osiyo, Lola, vazir, rayhon, olcha, lagan, vertolyot...*

«Tez javob»

O'qituvchi yoki boshlovchi o'quvchilar qator oralab yurib, o'quvchilardan birini turg'izadi va biror tur nomini aytadi. O'quvchi shu turga kiruvchi so'z topib aytishi lozim. Javob uch-gacha sanaguncha aytilishi kerak. Javob berolmagan o'quvchi o'yindan chiqadi. O'yin toki bitta o'quvchi qolguncha davom et-tiriladi. Bunday o'yin davomida o'quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanib, atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga o'rganadi, atrofdagi sodir bo'ladigan voqeя va hodisalarga qiziqishi ortadi. Bu o'yindan dars davomida dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin.

I-variant: O‘qituvchi: «*Hayvon*».

O‘quvchi: «*It*».

O‘qituvchi: «*Kino*».

O‘quvchi: «*Abdullahjon*»...

2-variant: O‘qituvchi: «*O‘quv quroli*».

O‘quvchi: «*Daftар*».

O‘qituvchi: «*Qizlar ismi*».

O‘quvchi: «*Noila*»...

3-variant: O‘qituvchi: «*Sinf jihози*».

O‘quvchi: «*Xattaxta*».

O‘qituvchi: «*Ertaklar*».

O‘quvchi: «*Zumrad va Qimmat*»...

«Rebus»

Rebus boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga juda sodda ko‘rinishda berilib, surat, belgilar asosida hal etiladigan boshqotirmadir.

Rebuslarni hal etish uchun avvalambor suratda nima tasvirlanganini topish lozim bo‘ladi. Shundan so‘ng shartli belgilar asosida yangi so‘z hosil qilinadi. Shu tariqa rebus hal etiladi va nima yozilganligi topiladi. Shartli belgilar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1) Rasm yonidagi biror-bir harf o‘chirilib, yoniga boshqa bir harf yozib qo‘yilgan bo‘lsa, demak rasmida nima tasvirlangani topiladi va shu so‘zdagi o‘chirilgan harf o‘rniga boshqa harf qo‘yiladi.

Masalan:

5

o

e

Rasmdan «besh» so‘zini o‘qiyamiz. «e» harfi o‘chirilgan. Uning ustida «o» harfi turibdi. Demak. Biz «besh» so‘zidagi «e» harfi o‘rniga «o» harfini qo‘yamiz va «bosh» so‘zini hosil qilamiz.
2) « ‘ » – bu belgi so‘zning birinchi harfini olib tashlash lozimligini bildiradi.

Masalan:

‘[5] «besh» so‘zining birinchi harfini olib tashlaymiz va «esh» so‘zini hosil qilamiz.


3) « ’ » – bu belgi esa so‘zning oxirgi harfini olib tashlash lozimligini bildiradi.

[4]’ «to‘rt» so‘zining oxirgi harfini olib tashlaymiz va «to‘r» so‘zini hosil qilamiz.

T. G'afforova boshchiligidagi ishlab chiqilgan 1-sinf o'qish darsligida ham olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida bir qancha rebuslar berilgan bo'lib, bunday qiziqarli topshiriqlar takrorlash darslarining o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.


Biz quyida boshlang'ich sinflar ona tili va o'qish darslarida foydalanish uchun berilgan rebuslarning bir qancha variantlarini keltiramiz.

1-variant:




(Javob: «Oy ona – emish, bolasi –yulduz»)

2-variant:



(Javob: «Tinchlik – baxt keltirar»)

3-variant:



(Javob: «Ota rozi – vatan rozi»)

Bunday rebuslar T. G'afforova, Sh.Nurullayeva va O.Haydarovalarning «Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar» (Toshkent, 2004-y.) nomli qo'llanmasida ham berilgan.

Krossvord

Krossvord o'yinini o'tkazish uchun o'quvchilar yoshiga mos holda juda sodda ko'rinishda krossvordlar tuzib olinadi. O'quvchilar mustaqil ravishda javoblarni topib yozadilar.

Dastlab krossvordlar o'qituvchi boshchiligidagi hal etiladi. O'quvchilarda krossvordlarni hal etish ko'nikmalari paydo bo'l-gandan keyin o'qituvchi nazorati ostida mustaqil hal qiladilar.

«Krossvord» o'yini o'quvchilar dumyoqarashini o'stirish bilan birgalikda ularga so'zlar imlosini yodda saqlab qolishlariga ham imkon beradi. Boshlang'ich sinflarda krossvordlar suratlar asosida ham berilishi mumkin. Suratlar asosida berilgan boshqotirma quyidagicha hal etiladi:

O'qituvchi: 1-suratda nima tasvirlangan?

O'quvchilar: Anor.

O'qituvchi: *Anor* so'zi nechta harfdan iborat?

O'quvchilar: To'rtta.

O'qituvchi: *Anor* so'zini 1 raqami ostidagi to'rtta katakchaga yuqorida pastga qarab yozamiz.


2-suratda nima tasvirlangan?...

Shu tarzda katakchalar to'ldirib boriladi.

O'yin avvalida katakchalarga so'zlarni o'qituvchi yozib bergen bo'lsa, keyingi so'zlarni o'quvchilar navbatida yozishlari ham mumkin. Katakchalarni to'ldirishda o'quvchularning bevosita ishtiroki ularning qiziqishilarini oshiradi. Katakchalar to'ldirib bo'lingach, o'qituvchi ajratib ko'rsatilgan (qalin chiziq bilan chegaralangan) katakchalarda yozilgan so'zlarni o'quvchilar bilan birgalikda o'qiysi.

Krossvordlardan darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.¹ Biz quyida 1-sinflarda qo'llash mumkin bo'lgan krossvord namunasini keltiramiz.

¹ Qarang. T. G'afforova, Sh.Nurullayeva va O.Haydarova. «Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar». Toshkent, 2004-y.)



Suratlarda tasvirlangan narsalar nomlarini katakchalarga to‘g‘ri joylashtirsangiz, ajratib ko‘rsatilgan qatorda so‘z hosil bo‘ladi.

«U nima qilayapti?» (Pantamimo)

O‘quvchilardan biri bolalar oldiga chiqib ovozsiz harakatlar qiladi.

O‘quvchilar jamoasi bирgalikda uning harakatlarini izohlab berishlari lozim. Bunday o‘yin o‘qish va ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish va zeriktirmaslik uchun o‘tkaziladi.

«Jonli hikoya»

O‘qituvchi so‘zlar yozilgan qog‘ozlarni o‘quvchilarga tarqatib beradi. Shundan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarga hikoya o‘qib beradi.

(Qog‘ozlarda yozilgan so‘zlar bирgalikda shu hikoyani hosil qiladi.)

O‘qituvchi hikoyani ikkinchi marta o‘qib berganda o‘quvchilar qo‘llaridagi qog‘ozlarni shunday ketma-ketlikda joylashtirishlari kerakki, qog‘ozlarga yozilgan so‘zlar bir butun hikoyani hosil qilishi lozim. Bu o‘yinni o‘tkazishda darslikdagi hikoyalari yoki darslikdan tashqari hikoya va ertaklardan foydalanishlari mumkin.

1-variant: Bahor kelishi bilan havo iliy boshlaydi. Daraxtlar gullab, maysalar ko‘kara boshlaydi.

2-variant: Olimjon ko‘chada yig‘layotgan bolani ko‘rib qoldi. U koptogini ariqqa tushiribdi. Olimjon bolaning koptogini olib berdi.

3-variant: O'rmon shohi sher yig'in o'tkazdi. Ular tulkixonning ishlarini muhokama qildilar. Tulkixon aybini bo'yniga oldi.

«Quruvchi»

«Quruvchi» o'yinini o'quvchilarni guruhlarga bo'lib, darsning o'tgan mavzusini yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismida yoki darsdan tashqari vaqtida o'tkazish mumkin. O'qituvchi avvaldan darsga tayyorgarlik ko'rib, qog'ozdan yoki penoplast bo'lakchalaridan «g'ishtchalar» yasaydi va bu «g'ishtchalar»ga savol yozilgan qog'ozchalarni yopishtirib chiqadi.

«G'ishtchalar» soni o'quvchilar soniga teng yoki ko'p bo'lishi kerak, guruhlarga «minora» yoki «devor» qurishlari uchun joy ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan bola chiqadi va «g'ishtcha» ni olib savolni o'qiydi. Agar savolga to'g'ri javob topsalar o'zlarining «maydoncha»lariga «g'ishti»ni teradilar. Agar noto'g'ri javob ber-salar o'qituvchi «g'ishtcha»ni olib qo'yadi. O'yin shu taxlitda bar-cha o'quvchilar bittadan «g'ishtcha» olib bo'lgunlariga qadar davom etadi. «Qurilish maydonchasi» da eng ko'p g'isht tergan o'quvchilar guruhni g'olib hisoblanadi.

«Nima yo'qolib qoldi?»

Stol ustida bir qancha predmetlar yoki alohida buyumlar surati tushirilgan kartochkalar joylashtiriladi. O'quvchilar stol ustini yax-shilab kuzatib, narsalarni eslab qoladilar. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga bildirmasdan ularning bittasini olib qo'yadi. O'quvchilar stol ustidan nima yuqolib qolganini topishlari lozim. Bu o'yindan darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.

Bu o'yin alifbe darsida harflarni o'rganish jarayonida juda qo'l keladi.

«Pochtachi»

O'quvchilardan bittasi pochtachi sifatida sinfga kirib keladi va o'quvchilarga bittadan surat solingan xatjild topshiradi. Har bir o'quvchi qo'lidagi suratda nimalar tasvirlanganini so'zlab beradilar.

Boshqa o‘quvchilar o‘rtoqlarining hikoya davomida nechta so‘zdan foydalanganini sanab boradilar. So‘zlardan ko‘p va o‘rnida to‘g‘ri foydalangan o‘quvchi g‘olib sanaladi.

«Kun va tun»

O‘qituvchi xattaxtaga ikki yoki undan ortiq so‘zni yozadi. O‘quvchilar o‘qiganlaridan so‘ng «tun» deb buyruq beradi. Bolalar ko‘zlarini yumib oladilar va o‘zlarini uxlaganga soladilar. O‘qituvchi so‘zlardagi biror harfni yoki bo‘g‘inlarni almashtirib qo‘yadi. «Kun» degan buyruqdan keyin o‘quvchilar ko‘zlarini ochadilar va qanday o‘zgarishlar bo‘lganligini aniqlaydilar.

1-variant: *Karima-Salima, Sobir-Soat, Oldi-goldi*.

2-variant: *Bolalar-bolarilar, Sharif-sharf, son-kon*.

3-variant: *Kunduz-qunduz, qum-dum, o‘quvchi-uchuvchi, kun-tun*.

«Qarmoq»

Bu o‘yindan barcha darslarda qo‘srimcha savollar berishda yoki turli ertaliklarda foydalinish mumkin. Baliqchalar shaklidagi qog‘ozchalarga savollar yoziladi va bir chetiga temir qistirg‘ichlar qistirladi. Qarmoq shaklidagi tayoqlarning uchiga ip bog‘lanadi va ipning uchiga magnit toshchasi bog‘lab qo‘yiladi. O‘quvchilar bu «qarmoqlar» vositasida «baliqchalar»dan birini tutib olishlari va undagi savolga javob berishlari lozim bo‘ladi.

«Meni tushun»

Bu o‘yinni ona tili va o‘qish darslarida o‘quvchilar diqqatini jamlash maqsadida dam olish daqiqalarida o‘tkazsa bo‘ladi.

O‘qituvchi buyumlar nomlari yozilgan qog‘ozlarni stol ustiga teskarisiga qilib qo‘yadi. O‘quvchilardan biri qog‘ozlardan bittasini tanlab oladi va shu qog‘ozga qarab unda nomi yozilgan buyumi shunday tasvirlashi kerakki, qolgan o‘quvchilar gap nima haqidagi borayotganligini darrov tushunib javob berishlari kerak. Bunda o‘quvchilarda ziyraklik, atrof-muhitga qiziqish, sinchkovlik xususiyatlari vujudga keladi va nutqi o‘sadi.

1 -variant: Bu yerda mevaning nomi yozilgan. U har xil: qizil, sariq, yashil rangda bo'lishi mumkin. Uni yegan bolalarning tishlari sog'lom bo'ladi.

(J a v o b «Olma»)

2-variant: U daraxt doim yashil rangda bo'ladi, yangi yilda esa yanada bezanadi.

(J a v o b : «Archa»)

3-variant»: Uni daraxt shoxlarida qushlar quradilar. Ba'zan bolalar ham yasaydilar va daraxtlarga mahkamlab qo'yadilar. Qushlar unda tuxum qoyib bola ochadilar.

(J a v o b : «In»)

«Iztopar»

Xattaxtaga so'zlarning ba'zi bir harfi tushirib qoldirib terib qo'yiladi. «Iztopar» o'quvchi shu harfni harf kassasidan topib bo'sh o'ringa qo'yadi va hosil bo'lgan so'zni o'qiydi. To'g'ri topgan o'quvchi rag'batlantiriladi. Boshqa o'quvchilarda yana variantlar bo'lsa ko'rib chiqiladi. Bu o'yin ayniqsa savod darslari samaradorligini oshirish imkonini beradi Dars samaradorligini oshirish bilan birgalikda bu o'yin o'quvchilarda mustaqillik va ijodkorlikni ham rivojlantirishga imkon beradi.

1-variant: O □ A – **n**– ona, **t** – ota, **p** – opa.

2-variant: □ N – **i** – in, **u** – un, **o‘** – o'n.

3-variant: □ T – **i** – it, **o** – ot, **o‘** – o't.

«So‘z o‘yini»

O'quvchilar guruhlarga yoki qatorlarga ajratiladi. Har bir guruh boshidagi o'quvchiga har xil harf yozilgan qog'oz tarqatiladi. O'yin boshlangunga qadar guruh ishtirokchilari qog'ozda qanday harf yozilganligini ko'rmasliklari lozim. O'qituvchi buyruq berishi bilan oq boshlovchi o'quvchilar qog'ozni o'ngarib unda yozilgan harfni ko'radilar va shu harf bilan boshlanadigan so'z topib yozadilar. So'ng orqada turgan o'quvchiga uzatadilar. Guruh yoki qator oxiqidagi o'quvchi o'yin tugagach qog'ozni o'qituvchiga keltirib top-

shiradi. O'yinni birinchi bo'lib tugatgan va so'zlarni to'g'ri yozgan o'quvchilar guruhi g'olib sanaladi.

Bu o'yindan dars jarayonida yoki darsdan tashqari mashhg'ulotlarda, ertaliklarda foydalanish mumkin.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Didaktik o'yinlarning ta'lif tarbiya jarayonidagi ahamiyatini ayting.
2. Didaktik o'yinlarning qanday turlari mavjud?
3. O'zingiz bilgan didaktik o'yinlarni ayting.
4. Boshlang'ich sinflar uchun didaktik o'yinlar yaratishing va o'rtoqlaringiz bilan uni muhokama qiling.
5. Didaktik o'yinlardan foydalanib dars loyihasini tayyorlang va auditoriyada sinab ko'ring.

8-mavzu. Boshlang'ich sinfda modulli o'qitish texnologiyasi

R e j a :

1. Modulli ta'lif tizimining nazariy asoslari.
2. Modulli ta'lif prinsiplari.
3. Modulli ta'lifda o'qituvchining yangi funksiyalari.
4. Modulli ta'lifning boshqa ta'lif tizimlaridan farqi.
5. Modul tarkibi.
6. Modulli o'qish (1-sinf o'qish darsining algoritmi).
7. Modulni ishslash metodikasi.

Asosiy tushunchalar: pedagogik tizim, modul, modulli ta'lif, modulli ta'lif prinsiplari, modulli o'qish, algoritm.

Ta'lif-tarbiya muammolari tizimli yondashuvni talab qiladigan masalalardan biridir.

Ta'lif va tarbiya – ijtimoiy tajribalarni o'qituvchi rahbarligida o'zlashtirishga qaratilgan maqsadli ta'sirdir. Ta'lif va tarbiya jarayonida pedagogik tizim faoliyati vositasida insonning rivojlanishi boshqariladi.

Pedagogik tizimning maqsadlari: insonlarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini (mustaqil bilim olish, o'z-o'zini tarbiyalash) shakl-

lantirish asosida ularni boshqarish obyektidan boshqarish subyekti ga aylantirish. O'qituvchi va o'quvchining faolligi uning boshqarish subyekti sifatida ozmi-ko'pmi o'z faoliyatni va xulqini boshqarishida, shuningdek, boshqalar xulqiga ham ta'sir ko'rsatishida ko'rindi. Hozirgi davr o'quv-tarbiyaviy jarayonini boshqarish vazifalaridan biri o'qish-o'qitish mehnati jarayonini qulay intensifikatsiyalashdir. Uning tarkibiy qismiga quyidagilar kiradi: Ta'limning maqsadga qaratilganligini rivojlantirish, uning motivatsiyasini kuchaytirish, ta'lim mazmunining axborot hajmini, ta'limning ilg'or shakl va metodlarini qo'llash, ta'lim tempini faollashtirish, ta'lim mehnatining refleks ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Ta'limni qulaylashtirish usullariga quyidagilar kiradi: vazifalarni yaxlit rejalshtirish, o'quvchilar xususiyatlarini hisobga olib uni oydinlashtirish, o'quv materialiga o'quvchilar e'tiborini tortish yo'llarini izlash, dars etaplarini optimal ketma-ketligini tanlash, ta'limning metod, shakl va vositalarini asosli tanlash, differensial yondashuv, sinf va uy vazifalarining hajmi va murakkabligining qulayligi, o'quv-tarbiyaviy jarayon natijasining yaxlit tahlili.

Zamonaviy pedagogik yondoshuv ta'lim jarayonining diqqat markazi o'quvchining o'quv-biluv faoliyatini qo'yish, ta'lim jarayonini taxminiy loyihalash, diagnostikligi, maqsadning aniqligi va natijaning obyektiv nazorati (o'z-o'zini nazorat), ta'lim jarayonining yaxlitligi kabilarga qaratilgandir. O'quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko'rsatkichi uni o'quv-biluv faoliyatini o'zi tashkil etishi, iroda va faoliyatning o'quvchi ongingin predmatiga aylanishidir. Bu maqsadni mustaqil qo'ya bilish, faoliyat usullarini tanlay bilish, o'z ta'sirlari va munosabatlari doirasida boshqalar bilan kelisha bilish va koordinatsiyalash, o'z-o'zini nazorat qila bilishlarda ko'rindi. Bunday faoliyat ta'limning modulli texnologiyasi orqali samarali amalga oshirilishi mumkin.

Modul nima va uni qanday shakllantirish kerak?

Modul lotincha «**modulus**» so'zidan olingan bo'lib, me'yor, o'lchov degan ma'noni anglatadi. Modul ta'lim jarayonida o'rganilayotgan predmetni ma'lum qismlarga bo'lib, uni o'rganishning aniq tizimini yaratadi.

O'quvchilarning o'qishini tashkil etish vositasi sifatida modullar tayyorlashning har xil usullari mavjud.

Modul dasturi, mustaqil o‘qishga o‘rgatadigan o‘quv qo‘llanma sifatida o‘quvchiga o‘quv moduliga kiritilgan o‘quv materiali bloki ni o‘qish vaqtida doimiy foydalanish uchun berilsa ta’lim samaradorligi oshadi.

Modul qo‘llanma tuzilmasida quyidagi konstruktiv talab va qoidalar aks etadi:

- modulli o‘qish natijasida sifat tasniflariga (shaxsiy va bilish) kiritilgan yaxlit maqsad;
- ta’lim standartida berilgan predmet «o‘quv elementlarida» maqsadning oydinlashishi;
- modulni o‘rganish, texnologik usullar bo‘yicha dastur va tassisiyalar;
- yakuniy nazorat topshiriqlarida o‘zlashtirish darajalari etalon va mezonlari bo‘yicha maqsadlar oydinlashishi;
- o‘z – o‘zini va o‘zaro nazoratni tashkil etish bo‘yicha etalonlar.

Darsda modulli texnologiyani amalga oshirish va loyihalash xususiyatlari.

Ta’lim jarayonida alohida modullar asosida o‘quv faoliyatini tashkil etilishi o‘quvchining ta’lim faoliyatining subyekti sifatida mustaqil, rejali bilim o‘zlashtirishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishida katta imkoniyatlar yaratadi. Modulli texnologiyani amaliyotga qo‘llash o‘qituvchidan modulli ta’lim prinsiplarini yaxshi bilishni talab etadi:

Modullilikning 1-prinsipi: ta’limning konstruktivligi:

- a) o‘quv materialini shunday konstruksiyalash lozimki, o‘quvchi oldiga qo‘yilgan har bir maqsadga erishish ta’minlangan bo‘lsin;
- b) o‘quv materialini tugallangan bloklarda tasavvur qilish;
- c) ta’limning har xil shakl va turlari integrallashsin.

2-prinsip: maqsadlarning aniqligi: ta’lim mazmunidan asosiy elementlarni ajratish ta’lim mazmuni tarkibini aniqlash asosida kursga, sinfga tegishli har xil darajali – yaxlit, integrallashgan, xususiy didaktik maqsadlarni ishlab chiqish.

3-prinsip: ta’limning qulayligi: axborotlarning tezligi, ochiqligi va ularni almashtira olish imkoniyati, o‘quv-biluv faoliyatining har bir o‘quvchi uchun qulayligi va moslasha olishi nuqtai nazaridan darslarning har bir etapini tahlil qilish imkoniyati bo‘lgan shakli.

4-prinsip: ta'sirlarning tizimliligi: ta'limning har xil metod va usullari, mazmuni, o'quv faoliyatining o'zgaruvchanligi asosida bilim o'zlashtirishning qulayligi, maxsus ko'nikma va malakalarning shakllanishi.

5-prinsip: ta'limning ixchamligi; O'quv faoliyatining individual uslubini shakllantirish orqali o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta'limning ixcham yo'nalishi.

6-prinsip: ta'limni individuallashtirish: har bir o'quvchining o'zlashtirishini nazorat qilish, monitoring natijalari asosida faol rivojlantirish zonasini va yaqin rivojlantirish zonalarini aniqlab, baholash tizimida o'quvchilarning faolligini rag'batlantirishdan foydalanish asosida, ularning faolligini oshirish ta'limni individuallashtirish demakdir.

7-prinsip: metodik maslahatlarning turli xilligi: modul dasturi axborotlarni oson o'zlashtirish uchun o'qituvchi maslahatidan foydalanishni taqozo etadi (savollar tizimi, algoritmlar va h.k.).

Modul dasturini loyihalashga kirishishdan oldin o'qituvchi o'zining yangi funksiyasini aniq anglab olmog'i lozim. Uning yangiligi shundan iboratki, o'qituvchi:

- o'quvchilarning biluv faoliyatini boshqaradi, ya'ni, o'qituvchi tayyor bilimni beruvchi emas, balki o'quvchilarning shaxsiy-biluv faoliyatining tashkilotchisiga aylanadi;
- darsda o'quvchilarни biluv faoliyatiga qiziqtirib (motiv), ularning o'quv predmetiga ijobjiy munosabatini tarbiyalaydi;
- darsda o'quvchilarни axborot materiallari bilan ishlashga o'rgatadi va mustaqil ishlarni tashkil etadi;
- ta'limning jamoa usulidan foydalanib, barcha o'quvchilarни ijodiy ishlashga jalb etadi, ular o'rtasida o'zaro yordamni tashkil etadi;
- muvaffaqiyatga erishish vaziyatini yaratadi, ya'ni, har bir o'quvchining kuchi yetadigan topshiriqlar va ularning metodikasini ishlab chiqadi, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi;
- o'quvchining o'z faoliyatini tahlil qilishi va baholashini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda modulli ta'limning mohiyati shundaki, o'quvchi modullar bilan ishlash jarayonida o'quv-biluv faoliyati oldiga qo'yilgan maqsadga mustaqil ravishda to'liq erishadi (ba'zida o'qituvchi yordamidan foydalanadi).

Modul – ta’lim mazmunining shunday bir yaxlit bo‘lagiki, u ta’lim mazmuni va uning texnologiyasi birlashtirilgan yuqori darajadagi yaxlit tizimidir.

Modul tarkibi:

- ta’sirlarning maqsadli rejas;
- axborot banki;
- didaktik maqsadga erishishga metodik rahbarlik.

Modulli ta’limning boshqa ta’lim tizimlaridan farqlari quyidagilar:

1. Ta’lim mazmuni alohida tugallangan mustaqil qismlar (bloklar)dan iborat bo‘lishi va ularni o‘zlashtirish ta’lim maqsadlaridan kelib chiqishi lozim. Didaktik maqsad o‘quvchi uchun belgilanadi va u faqat o‘quv materiali hajmini o‘zlashtirishga oid ko‘rsatmalarni emas, balki o‘zlashtirish darajasini ham o‘z ichiga oladi. Har bir o‘quvchi modulni qanday o‘rganish kerakligi, zaruriy o‘quv materiallarini qanday topishi kerakligi haqida o‘qituvchidan yozma tavsiyalar oladi.

2. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot individual tarzda yoki modullar asosida o‘tadi. Faqat modulgina ta’limni subyekt-subyekt asosida o‘tishiga yordam beradi.

3. Har bir o‘quvchi o‘z faoliyati davomida vaqtining ko‘p qismini mustaqil ishslashga, maqsad asosida o‘qishga, ishni rejallashtirish, tashkillashtirish, nazorat qilish va tekshirishga bag‘ishlaydi. Shunday qilib, har bir o‘quvchi o‘z bilim darajasi haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi, bilim va ko‘nikmalaridagi kamchiliklarni anglaydi.

4. O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini modullar orqali yoki bevosita boshqaradi. Bevosita boshqarganda u aniq maqsad asosida va o‘quvchi bilan yaxshi munosabatda bo‘lib boshqaradi.

5. Chop etilgan modullarning mavjudligi o‘qituvchiga o‘quvchilarning har biriga individual maslahat bera olish va o‘quvchiga qanday yordam qilishni belgilab olish imkoniyatini beradi.

Bilim o‘zlashtirish etaplari logikasi – idrok etish, anglash, esda qoldirish, amaliyotga qo‘llash, umumlashtirish, tizimlash kabilalar asosida o‘quvchi faoliyati tarkibini belgilash – modul qurilishida eng muhim asosdir.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Modulli ta’lim texnologiyasi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Modul nima?
3. Modulli ta’limning nazariy asoslarini tahlil qiling.
4. Modulli ta’lim boshqa ta’lim turlaridan nimasi bilan farq qiladi? Taqqoslang.
5. Boshlang‘ich ta’lim jarayoni uchun namunalar asosida modullar ishlab chiqing.
6. O‘rganganlaringiz asosida BBB chizmasini to‘ldiring:

Bilamiz	Bilishni xohlaymiz	Bildik

9-mavzu. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar

R e j a :

1. Innovatsiya haqida tushuncha.
2. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo‘llari.
3. O‘qitishda interaktiv usullarning turlari.
4. Boshlang‘ich sinfda interaktiv usullardan foydalanish yo‘llari.

Asosiy tushunchalar: innovatsiya, interaktiv, innovatsion texnologiya, interaktiv metodlar.

Hozirgi kunda ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo‘llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday metodlarni qo‘llash ta’lim samaradorligi va ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarning o‘qish motivlarini o‘siradi.

Innovatsiya (inglizcha *innovation*) yangilik yaratish, yangilikdir. Demak, an’anaviy ta’limdagi kabi bir xil shablonlar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta’lim jarayonining ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demadir. Ta’limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiya ga intilish, o‘quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interaktiv

metodlardan foydalanish ta’lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Ta’lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun avvalo darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur.

Dars loyihasini tuzishda o‘qituvchi o‘zining ish shakllari va o‘quvchilarining ko‘nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o‘qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. Metod tanlashda ko‘proq interaktiv metodlarga e’tiborni qaratish ta’lim samaradorligini oshiradi. (**Interaktiv** so‘zi inglizcha – *interaction*, ya’ni, *inter* – aro, o‘zaro, act – harakat ma’nosini anglatadi.) Interaktiv usullar – bu o‘zaro harakat, ya’ni hamkorlik asosida o‘qitish demakdir. Interaktiv usullarning 4 asosiy turi mavjud. Bular:

- kognitiv usullar;
- o‘yinlar, eksperimental faoliyat;
- ishbilarmonlik o‘yinlari, modellashtirish;
- amaliyot orqali o‘qitish, bevosita faoliyat.

Interaktiv mashg‘ulot jarayonining asosiy bosqichlari

1. Salomlashish (o‘qituvchi va o‘quvchilar).
2. Kirish so‘zi – o‘qituvchi o‘quvchilarini ta’limning interaktiv metodikasi, mashg‘ulot mavzusini, shakli va maqsadlari bilan tanishtiradi. Kirish so‘zi aniq va qisqa bo‘lishi kerak.
3. Qoidalarni ishlab chiqish – guruhning samarali ishlashi uchun qoidalarni belgilash yuzasidan o‘quvchilarining takliflar bildirishi so‘raladi. Shu takliflar asosida ular tomonidan qoidalalar ishlab chiqilib, qabul qilinadi. Bu qoidalarga rioya qilinish nazoratini faqat o‘qituvchi emas, o‘quvchilar ham olib borishlari ko‘zda tutiladi.
4. Tanishuv («muzyorar») – o‘quvchilarining darsda o‘zaro erkin va faol muloqotlarini ta’minalash maqsadida har turli harakatli mashqlarni tashkil qilish orqali o‘tkaziladi. Bu mashqlarni ishtirokchilar orasidagi notanishlik, tortinchoqlik va shu kabi holatlarni bartaraf qilib, o‘zaro iliq munosabatlarni hosil qilishga yo‘naltirilgani uchun muzyorar deb nomlanadi (bunda o‘quvchilar bir-birining eng yaxshi sifatlariga baho berishlari yoki yonidagi o‘rtog‘ini jamoaga tanishtirish kabi ish turlaridan foydalaniladi).

5. Kutiladigan natijalar – har bir o‘quvchi mashg‘ulotlar yakunida nimalarni o‘rgangani, qanday ishlarni bajara oladigan bo‘lgani haqida ma’lumot berishi lozim. Bunda o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari asosida og‘zaki yoki yozma ravishda bildirgan fikrlari ham inobatga olinadi.

6. Kichik guruhlarga ajratish – mashg‘ulot maqsadiga muvofiq ravishda o‘quvchilarni bir nechta kichik guruhlarga ajratiladi. Kichik guruhlarga bиринчи мarta ajratishda o‘quvchilar o‘z xohishlariга ko‘ra guruhlarga ajralishlari mumkin. Keyingi gallarda tasodifiy kichik guruhlarga ajratish qo‘llaniladi.

7. Kichik guruhlar ishini tashkil qilish – har bir kichik guruhgа aniq vazifa, zarur materiallar, vositalar taqdim qilinadi, vazifani bajarish, natijani ma’lum qilish tartibi va ajratilgan vaqt belgilanadi.

8. Taqdimotlar – kichik guruhlar o‘zlariga berilgan vazifalarни bajargandan keyin, olingen natijalarni ular belgilagan vakil tomonidan barcha guruhlar a’zolari oldida taqdimot qilishdan iborat. Bunday taqdimot yakka tartibda berilgan vazifani bajargan biror o‘quvchi tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

9. Kichik ma’ruzalar – interaktiv mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha o‘quvchilarga nazariy ma’lumotlarni yetkazish maqsadida o‘qituvchi, ma’ruzachi yoki o‘qituvchi tomonidan o‘tkaziladi.

10. Muhokamalar o‘tkazish – dars mavzusiga doir masalalar yuzasidan hamkorlikda fikr yuritish va xulosalar chiqarishga yo‘naltirilgan interaktiv mashqlardan iborat.

11. Xulosalar va vazifalarni belgilash – mashg‘ulot davomidaги xulosalarni jamlash va umumlashtirish hamda o‘quvchilar uchun navbatdagi vazifalarni belgilab berishdan iborat.

12. Mashg‘ulotni yakunlash – mashg‘ulotdan qoniqqanlik darajasini har bir o‘quvchi tomonidan baholashni har turli interaktiv shakllarda tashkil etiladi. Bu baholash natijalarini keyingi mashg‘ulotlarni tashkil etishda hisobga olib boriladi.

Interaktiv mashg‘ulotning asosiy shakkari: katta doira, charxpalak, akvarium, kichik guruhlarda (juftlikda) ishlash va boshqalar.

Interaktiv mashg‘ulotning asosiy usullari: interaktiv seminar, trening, ma’ruza, aqliy hujum, ishchanlik o‘yini, rolli o‘yin, muhokama, bahs, munozara, tanqidiy fikrlash, skarabey, bumerang, zigzag yoki arra, press, intervyu, zanjir, sinkveyn, pinbord, insert, suratli diktant, chigilyozdi, muzyoralar, fidbek va boshqalar.

Shu bilan birga ta’kidlash zarurki, interaktiv mashg‘ulotlarda

shakl va usullar birgalikda mavjud bo'lib, ularni shartli ravishdagina ajratish mumkin.

Interaktiv mashg'ulotlar aniq rejalashtirilgan holda dars maqsa-dini belgilab, dars loyihasi va algoritmini ishlab chiqilgandan keyin-gina amalga oshiriladi.

Interaktiv usullarning barchasida ham o'qituvchi va o'quvchi faoliyati o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lif jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi. Masalan, biror bir mavzuni o'rgatishda uni modellashtirish qismida o'qituvchi o'quvchilarga modelni na-moyish qilish oldidan «Aqliy hujum» metodidan foydalanishi mum-kin. Ya'ni o'quvchilar qo'yilgan muammoni qanday tushunishlari va ko'nikmani qanday egallashlari mumkinligi ulardan so'ralib, ularning fikrlari umumlashtiriladi. Bunda o'quvchilar fikri mutlaqo tanqid qilinmaydi. Amaliy boshqaruv qismida o'qituvchi «Hamro-hingga o'rgat» metodidan foydalanishi mumkin. Bu metod darsni optimal tashkil etishga imkoniyat yaratib, o'quvchilarning o'z fao-liyatini tanqidiy nazorat qilish va xatolarni bartaraf etishga o'rgatadi. Uni qo'llash quyidagicha:

Sinf birinchi va ikkinchi hamkor qismlarga bo'linadi.

Darsni o'tish modelidan foydalanib birinchi hamkor ikkinchisi-siga, ikkinchi hamkor esa birinchisiga modeldagi qismlarni o'rgatadi.

O'qituvchi xohlovchilarga ta'lif metodlari vositasida model qis-mlarini avval tushuntiradi, keyin ko'rsatadi. O'quvchilar o'qituvchi aytgan va ko'rsatganlarini takrorlaydilar va bajaradilar.

O'qituvchi sinfni nazorat qilish uchun o'ziga ixtiyoriy 2 nafar hamkorni tanlaydi. O'qituvchi o'z hamkorlariga modelni bos-qichma-bosqich bajartirib ko'radi. Tushunmaganlarini tushunib o'rganishlariga yordam beradi.

O'qituvchi sinfdagi hamkorlarga birinchi qismni bir-birlariga o'rgatishlari va bajarishlarini aytadi. Ularning ishlarini nazorat qilib, kamchiliklarni bartaraf etishga yordamlashadi. Shundan keyingina navbatdagi bosqichga o'tiladi. O'qituvchining hamkorlari esa sinfni nazorat qilishda o'qituvchiga yordamlashadilar.

Bu ish usuli modelning boshqa qismlarini ham bajarishda da-vom etadi. Bu o'quvchilarni bir-biriga va o'ziga talabchan bo'lishga, xatolarni o'z vaqtida bartaraf etishga, ishni tanqidiy baholay bilishga o'rgatadi.

Tushunchalarni tekshirishda o'qituvchi turli interaktiv metodlar («Bumerang», «Charxpalak», «Aql charxi» va boshqalar)dan foyda-

lanishi mumkin. Masalan, «Charxpalak metodi». O‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, ularga topshiriqlar yozilgan varaqa tarqatiladi. Masalan:

Quyidagilar qaysi so‘z turkumiga tegishliligini aniqlang

So‘zlar	So‘z turkumlari				
	Ot	sifat	son	olmosh	fe‘l
oyna					
sindi					
qizil					
qalam					
o‘nta					
sinf					
men					
ikki					
parta					
yashil					
yuradi					
sen					

O‘quvchilar topshiriqni bajarganlaridan keyin ularning ishlari guruhdagi boshqa o‘quvchilarga tarqatildi. Ular tegishli o‘zgartishlar kiritganlaridan keyin yana boshqa o‘quvchilarga beriladi va shu tarzda o‘quvchilarning har birining ishi guruhdagi barcha o‘quvchilar qo‘lidan o‘tadi va oxiri o‘ziga qaytadi. Har birlari o‘zlari nuqtai nazaridan ishga o‘zgartirishlar kiritishlari mumkin. Keyin o‘qituvchi to‘g‘ri javobni ko‘rsatadi. Bu usulda o‘quvchilar ijodiy fikrlashga, o‘z fikrlarini erkin bayon etishga va o‘z kamchiliklarini bilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

«Aql charxi» usulida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutq ravonlashadi, tez va to‘g‘ri javob berish malakasi shakllanadi.

Bu o‘yinda ikki yoki uchta o‘quvchidan iborat guruhchalar ishtirok etadi. Birinchi o‘quvchi mavzuga doir terminlardan birini aytadi. Ikkinci o‘quvchi birinchi o‘quvchi aytgan terminni qaytaradi va o‘zi ham bitta termin aytadi. Uchinchi o‘quvchi avvalgi ikki-

ta terminni qaytaradi va bitta termin qo'shib aytadi. Yana birinchi o'quvchiga navbat keladi, u ham avvalgi uchta terminni qaytaradi va o'zi bitta termin qo'shib aytadi. Qaysi o'quvchi adashib ketsa yoki aytilgan terminlardan qaytarib aysa o'yindan chiqadi. Shu tariqa o'quvchilar guruhi davom etadi. Bu o'yinni tashkil etishda maqsad aniq bo'lishi va o'quvchilarning qaysi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga e'tibor qaratilishi muhim. Masalan, ot so'z turkumiga tegishli so'zlarni aytning:

- 1-o'quvchi: bulbul
- 2-o'quvchi: bulbul – qarg'a
- 3-o'quvchi: bulbul – qarg'a – mushuk
- 1-o'quvchi: bulbul – qarg'a – mushuk – ota
- 2-o'quvchi: bulbul – qarg'a – mushuk – ota – opa
- 3-o'quvchi: bulbul – qarg'a – mushuk – ota – opa – uka va hokazo.

O'quvchi so'zlarni ketma-ket aytishda xatoga yo'l qo'ysa o'yindan chiqadi. Xuddi shu taxlitda «So'z turkumlari», «Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi», «ot yasovchi qo'shimchalar» va boshqa mavzularini o'rganishda ham bu o'yindan foydalanish mumkin. Ayniqsa bu o'yin darslarni umumlashtirish va takrorlash darslarida qo'l keladi.

Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, o'quvchilarning darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interaktiv metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Masalan, «Baxtli tasodif» usuli.

«Baxtli tasodif» usuli orqali mavzu yuzasidan uyga berilgan topshiriqlarni nechog'lik o'rganilganligini aniqlash oson bo'ladi. Buning uchun qog'ozdan kartochkalar tayyorlanadi va har bir kartochkaga 2–3 tadan savollar qo'yiladi. Faqt bitta kartochkaga «Yutuq «5» baho» deb yoziladi. Shu yutuqli kartochka kimga tushsa «Baxtli tasodif» sohibi hisoblanadi va bugungi darsda eng yuqori ballni oлади. Savolli kartochkalar olgan o'quvchilar ham savollarga bergen javoblari asosida baholanadilar.

Masalan, 4-sinf ona tili darsida «baxtli tasodif» o'yini quyida gicha tashkil etilishi mumkin:

«Baxtli tasodif» o'yini uchun tuzilgan kartochkalar:

Baxtli tasodif – 1

Gapning qanday bo‘laklari bor?
Ega va kesim gapning qanday bo‘laklari?

Baxtli tasodif – 2

Gapda so‘zlar qanday bog‘lanadi?
Kesim nimaga bog‘lanadi?

Baxtli tasodif – 3

Gapda ikkinchi darajali bo‘laklar nimaga bog‘lanadi?
So‘roqlar yordamida quyidagi gapning bosh va ikkinchi darajali
bo‘laklarini toping:
Gullar kechasi ko‘zlarini yummaydi.

Baxtli tasodif – 4

Gapda so‘zlar nimalar yordamida bog‘lanadi?
Quyidagi gapdagisi gap bo‘laklarini aniqlang:
Men elimning yuragida yashayman.

Baxtli tasodif – 5

Yutuq «5» baho

Bunday usullar o‘quvchida bilimga ishtiyoq uyg‘otadi. O‘quvchi darslarga puxta hozirlik ko‘rishga intiladi.
Xulosa qilib aytganda, interaktiv usullar darsning qiziqarliligi va ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarni ta’lim jarayonining faol subyektlariga aylantiradi.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Innovatsion texnologiya deganda nimalarni tuhundingiz?
2. Innovatsion mashg‘ulot tarkibi nimalarni o‘z ichiga oladi?
3. Qanday interaktiv metodlarni o‘rgandingiz?
4. Tushunganlaringiz asosida boshlang‘ich ta’lim jarayoni uchun o‘z loyihangizni ishlab chiqing.
5. Yuqoridagi didaktik o‘yinlar yoki o‘zingiz yaratgan didaktik o‘yinlarni qatnashtirib dars algoritmini ishlab chiqing.

10-mavzu. Ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish

R e j a :

1. Ta’limda innovatsion metodlar.
2. Ta’limda innovatsion metodlarning turlari.

Asosiy tushunchalar: innovatsia, interaktiv metodlar.

So‘nggi yillarda pedagogika nazariyasiga boshqa sohalardan bir qator yangi tushunchalar kirib keldi. Bu esa pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqada ekanligidan dalolat beradi. Tushunchalarning aksariyati texnika va iqtisod sohalaridan kirib kelgan bo‘lib, aynan shu sohalar insoniyat fikrining rivojlanishiga asos bo‘lmoqda.

Bugungi kunda ta’limning iqtisodiyligi va takomillashganligi, o‘qituvchi va o‘rganuvchi aloqalari, texnika va texnologiyalar, ta’lim iqtisodi, o‘qitishni kompyuterlashtirish kabi muammolarda turli-tuman fikrlar bildirilmoqda.

«Innovatsiya – yangilik» so‘zining qachon paydo bo‘lganligi aniq bo‘lmasa-da, bu tushuncha umumiy fanlarga tabiiy fanlardan kirib kelganligi haqida fikrlar mavjud. Bunday yangiliklarning aksariyati qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish va tibbiyot sohalarida joriy etilardi. Pedagogik termin sifatida esa innovatsiya tushunchasi, yangi tushunchalardan biri bo‘lib, unga turli ta’riflar va fikrlar bildirilmoqda.


Innovatsiya jamiyat paydo bo‘lishidan boshlab o‘zgarib kelinmoqda. Ba’zi pedagoglar innovatsiya so‘zini tor ma’noda ta’limni takomillashtirish, zamonaviylashtirish desa, boshqalari unga kengroq ta’rif bermoqda. Ta’lim sohasidagi ayrim yangi tushunchalarni, islohot, o‘qitishni zamonaviylashtirish, takomillashtirish, optimallashtirish kabilar bilan almashtirmoqdalar. Ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradigan innovation usuldir.

Quyida shunday interaktiv metodlardan namunalar keltiramiz.

«Tarmoqlar» metodi (klaster)

Fikrlarning tarmoqlanishi – bu metod o‘quvchilarni biron-bir mavzuni chuqr o‘rganishlariga yordam berib, o‘quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘langan holda tarmoqlashga o‘rgatadi.

Bu metod biror mavzuni chuqr o‘rganishdan avval o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda o‘quvchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Quyida biz 4-sinf ona tilidan «So‘z tukumlari» mavzusidagi takrorlash-umumlashtirish darsida fodalanish mumkin bo‘lgan klasterdan namuna sifatida misol keltiramiz:



Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim

Bu usul o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi, bilimlarni o'zlashtirishga mas'uliyat va qiziqishni tarbiyalaydi. 4-sinf ona tili darsida bu metoddan quyidagicha foydalanish mumkin:

Buning uchun o'qituvchi xattaxtani uch qismiga bo'ldi. Birinchi qismiga «Bilaman», ikkinchi qismiga «Bilishni xohlayman», uchinchi qismiga «Bilib oldim» deb yozadi. Keyin o'quvchilarga murojaat qilib, kim «Ot so'z turkumi» haqida nima bilishini so'raydi va o'quvchilar fikrini «Bilaman» ustuniga yozadi. Sinfda fikrlar tugagandan keyin o'quvchilarga yana murojaat qilib, «Ot so'z turkumi» haqida yana nimalar bilishni xohlashlarini so'raydi. O'quvchilar bergen savollarni xattaxtaning «Bilishni xohlayman» qismiga yozadi. O'quvchilar savollari tugagandan keyin o'qituvchi «Ot so'z turkumi» haqida ma'lumotlar yozilgan, oldindan tayyorlangan matnlarni o'quvchilarga tarqatib chiqadi. O'quvchilar matnlar bilan tanishib chiqqanlaridan keyin fikrlashga o'tadilar, yangi ma'lumotlarni bir-birlari bilan o'rtoqlashadilar. O'qituvchi o'quvchilardan «Ot so'z turkumi» haqida yana qanday yangi ma'lumotlarga ega bo'lishganliklarini so'raydi va «Bilib oldim» ustuniga yozadi. Keyin uchala ustunni umumlashtirib, birligida xulosa qilinadi.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
<p>Shaxs va narsalarning nomini bildiradi; Insonlar, shaharlar, ko'chalar va boshqa atab qo'yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi; Otning egalik qo'shimchalari: -m, -im, -ng, -ing, -si, -i, -miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -(lar)i qo'shilganda shaxs va narsa buyumlarning qaysi shaxsga qarashliligi aniqlanadi. Tilda 3 ta shaxs bor: I shaxs – so'zlovchi. II shaxs – tinglovchi. III shaxs – o'zga. -m, -im, -miz, -imiz – I shaxs; -ng, -ing, -ngiz, -ingiz – II shaxs; -i, -si, -(lar)I – III shaxs</p>	<p>Egalik qo'shimchalarda birlik va ko'plik ma'nolari qanday ifodalanishi.</p>	<p>-m, -im, -ng, -ing, -i, -si – egalik qo'shimchalari birlik ma'nosini bildiradi. -miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -(lar)i – egalik qo'shimchalari ko'plik ma'nosini bildiradi</p>

FSMU texnologiyasi

Trening haqida tushuncha.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki umimlashtirish darslarida, yoki o'quv rejasi asosida biror bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanishini mumkin. Bu texnologiya o'quvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalaraga o'tkazishga, ochiq holda bahs-lashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchilarni o'quv jarayonida egal-lagan bilimlarini tahlil etishga, o'quvchilarning bilimlarini baholash-ga hamda tinglovlarning bilimlarini baholashish madaniyatiga o'rgatishi bilan ahamiyatlidir.

M a q s a d .

Ushbu texnologiya o'quvchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

O ' t k a z i s h t e x n o l o g i y a s i .

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqich:

- o'qituvchi o'quvchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo'lgan muammoni, yoki o'rganilgan bo'limni belgilab oladi;
 - o'qituvchi o'quv mashg'ulotida avval har bir o'quvchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va niyoyat dars oxirida jamoa bo'lib ishlashi haqida o'quvchilarga ma'lumot beradi;
 - mashg'ulot davomida har bir o'quvchi o'z fikrini erkin holda, to'liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o'tiladi.

2-bosqich:

- har bir o'quvchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F – **fikringizni** bayon eting.

S – fikringizni bayoniga **sabab ko'rsating**.

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlab **misol** (dalil) keltiring.

U – fikringizni **umumlashtiring**.

- har bir o'quvchi yakka tartibda tarqatilgan qog'ozdagi FSMU-ning 4 bosqichini o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda to'ldiradi.

3-bosqich:

- har bir tinglovchi o‘z qog‘ozlarini to‘ldirib bo‘lgach, o‘qituvchi ularni kichik guruhlarga bo‘linishlarini iltimos qiladi yoki o‘zi turli guruhlarga bo‘lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarни kichik guruhlarga bo‘lib yuboradi;
- o‘qituvchi har bir guruhga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog‘ozlarni tarqatadi;
- o‘qituvchi kichik guruhlarga har birlari yozgan qog‘ozlardagi fikr va dallillarni katta formatda umumlashtirilgan holda 4 bosqich bo‘yicha yozishlarini taklif etadi.

4-bosqich:

- kichik guruhlarda avval har bir o‘quvchi o‘zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a’zolarini tanishtirib o‘tadi. Guruh a’zolarining barcha fikrlari o‘rganilgach, kichik guruh a’zolari ularni umumlashtirishga kirishadi;
- guruh a’zolari FSMU ning 4 bosqichini har biri bo‘yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko‘radilar;
- fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir o‘quvchi o‘z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5-bosqich:

- kichik guruhlar umumlashtirilgan fikrlarni himoya qiladilar: guruh vakili har bir bosqichni alohida o‘qiydi, iloji boricha izoh bermagan holda. Ba’zi bo‘limlarni isbotlashi, ya’ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o‘tishi mumkin.

6-bosqich:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi;
- quyidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qiladi:
 - ushbu mashg‘ulot yordamida nimalarni bilib oldingiz va nima-larga o‘rgandingiz?
 - ushbu texnologiyani o‘quv jarayonida qo‘llanishi qanday sa-mara berdi?

Tarqatma materialining taxminiy nusxasi.

FSMU texnologiyasi

(F) – Fikringizni bayon eting.

(S) – Fikringiz bayoniga biror **sabab ko‘rsating.**

(M) – Ko‘rsatgan sababingizni isbotlab **misol (dalil) keltiring.**

(U) – Fikringizni **umumlashtiring.**

«Bumerang» texnologiyasi

Mazkur texnologiya bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo‘naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammo-li, munozarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishga yaroqli bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o‘quvchi yoki o‘qituvchi rolida bo‘lishi, kerakli ballni to‘plashiga imkoniyat beradi.

«Bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g‘oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og‘zaki shakllarda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlan-tiradi.

Ta’lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- jamoa bilan ishlash mahorati;
- xushmuomalalik;
- xushfe’lllik;
- ko‘nikuvchanlik;
- o‘zgalar fikriga hurmat;
- faollik;
- rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
- ishga ijodiy yondashish;
- o‘z faoliyatining samarali bo‘lishiga qiziqish;
- o‘zini xolis baholash.

Texnologiya haqida tushuncha.

Ushbu texnologiya o‘quvchilarni dars jarayonida, darsdan tash-qarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishslash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta

olish, hamda bir dars davomida barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan.

M a q s a d .

Trening davomida tinglovchilarga tarqatilgan materiallarning ular tomonidan yakka va guruh holatida o‘zlashtirib olishlari hamda o‘zaro suhbat-munozara orqali, turli savolar orqali tarqatma materiallar, undagi matnlar qay darajada o‘zlashtirilganini nazorat qilish. Mashg‘ulot davomida o‘quvchilar tomonidan baho ballarini egal-lashga imkoniyat yaratish.

O‘tkazish texnologiyasi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqich:

- o‘qituvchi ishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quvchilarni 4–5 kishidan iborat kichik guruhlarga bo‘lishdan boshlaydi;
- o‘qituvchi har bir guruh va uning har bir a’zosiga mustaqil aniq yozma tarqatma material beradi. Tarqatma materialda o‘qituvchi tomonidan tanlangan umumiy mavzu bo‘yicha biron-bir hajmdagi matn berilgan, ularning soni guruhlar va o‘quvchilar soniga bog‘liq. Agar 4 ta kichik guruh bo‘lsa, u holda umumiy mavzu 4 kichik matnlarga bo‘linib har bir guruhga beriladi;
- faoliyat samarali bo‘lishi uchun har bir guruhga berilgan matndan har bir o‘quvchiga beriladi. Shunday qilib, 4 ta guruh umumiy mavzu asosida 4 xil matnga ega, har bir o‘quvchi esa o‘z guruhiga tushgan matnga ega bo‘ladi.

2-bosqich:

- guruhlarga berilgan matnni guruh a’zolari yakka tartibda alo-hida o‘rganishlari, matnni eslab qolishlari, keyin esa kerak bo‘lsa boshqalarga yoki o‘qituvchiga gapirib berishlari, iloji boricha matnni o‘zlashtirib olishlari kerakligini o‘qituvchi uqtiradi va tayyorgarlik uchun matnni katta-kichikligiga qarab vaqt beradi. O‘zi esa guruh va o‘quvchilarning ish faoliyatini kuzatadi.

3-bosqich:

- o‘qituvchi oldindan tayyorlab qo‘yilgan raqamlar yozilgan kichik qog‘ozlar bilan har bir guruh yoniga kelib guruh a’zolaridan ushbu qog‘ozlardan bittadan raqam tortib olishlarini so‘raydi

(qog'ozlar soni guruhdagi tinglovchilar soniga bog'liq, masalan, guruhda 5 kishi bo'lsa, qog'ozdagi raqamlar 1, 2, 3, 4, 5 etib tayyorlanadi, agar 4 ta bo'lsa 1 dan 4 gacha va h.). Guruhlardagi barcha o'quvchilar raqamlar yozilgan qog'ozdan olishlari kerak. Nechta guruh bo'lsa, shuncha guruh a'zolari soniga qarab raqamlar yozilgan qog'ozlar tayyorlanadi.

• o'qituvchi raqamlar bo'yicha o'quvchilardan yangi guruqlar tuzishlarini so'raydi. Masalan, hamma 1 raqamini olganlar bitta yangi guruh, 2 raqamlar ikkinchi guruhnini, 3 raqamlilar uchinichi guruhnini, 4 raqamlilar to'rtinchi guruhnini, 5 raqamlilar beshinchi guruhnini tashkil etishlarini so'raydi. Guruh a'zolari yangi guruhga o'tishlarida o'zlar bilan o'rgangan matnlarini oladilar.

4-bosqich:

Raqamlar bo'yicha yangi guruqlar tuzilganda har bir yangi guruhda avvalgi guruhlardan bittadan vakillar o'z-o'zidan to'planib qoladi, ya'ni 4 ta guruhda 4 xil matn o'rganilgan bo'lsa, bu yangi guruhda har bittasidan bittadan vakil to'planadi, umumiyl mavzu bo'yicha 4 o'quvchi va 4 xil matn to'planadi.

5 -bosqich:

• yangi tuzilgan guruhning har bir a'zosi endi o'ziga 2 ta vazifa, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi vazifasini oladi va quyidagicha faoliyat ko'rsatadi:

1. O'qituvchi (o'rgatuvchi) sifatida, o'zi avval o'rgangan materialni gapirib beradi, tushuntiradi, o'zi mustaqil o'rgangan materialning asosiy joylariga barchaning diqqatini jalb qiladi, boshqa guruh a'zolarining tushunish va o'zlashtirish qobiliyatlarini tekshiradi. Fikrlaydi va yodda saqlab qolishga harakat qiladi.

2. O'quvchi sifatida, guruh a'zolarining navbatma-navbat so'zlab, tushuntirayotgan, gapirayotgan matnlarini eshitadi, tahlil qiladi, fikrlaydi va yodda saqlab qolishga harakat qiladi.

• o'qituvchi esa ularga o'z matnlarini faqat so'zlab berishlari kerakligini uqtiradi va bunga 20 daqiqa vaqt beradi (matn hajmiga va umumiyl mavzuning qiyin, osonligiga qarab vaqt ajratiladi).

Bu bosqichda mashg'ulot boshlanishida tarqatilgan barcha material tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilgan hisoblanadi.

6-bosqich:

Guruhdagilar bir-birlariga o‘z matnlarini gapirib berib, barchalari ushbu matnlarni bilib olishgach, o‘qituvchi o‘rganilgan material guruh a’zolari tomonidan qanchalik o‘zlashtirib olinganini tekshirib ko‘rish uchun har bir guruh a’zosi bir-birlariga o‘z matnlaridan kelib chiqqan holda savollar berishlari mumkligini tushuntiradi. Shunday qilib, guruh ichida ichki nazorat savol-javob orqali o‘tkaziladi. Bu esa guruhdagi o‘quvchilarni bir-birlariga so‘zlab bergen materiallarini boshqalar tomonidan o‘zlashtirganlik darajasini aniqlashga, mustahkamlashga yordam beradi.

7-bosqich:

O‘qituvchi barcha tinglovchilarni yana qaytadan avvalgi joylari ga qaytishni so‘raydi, ya’ni hamma yana mashg‘ulot boshlanishidagi guruhlariga qaytadilar.

8-bosqich:

O‘qituvchi sinfdagi o‘quvchilarning barchasi hammaga tarqatilgan yozma materiallar bilan tanish ekanliklari, ular haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lganliklarini hisobga olgan holda sinfdagi har bir o‘quvchidan xohlagan materialni so‘rashi mumkinligini aytadi.

9-bosqich:

Tinglovchilarga tarqatilgan barcha materiallarni ular tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganligi darajasini aniqlash maqsadida o‘qituvchi, yoki maxsus guruh, yoki opponent guruh tomonidan berilgan nazorat savollarga javoblarni reyting ballari orqali baholanishi tushuntiriladi, masalan, savollarga berilgan javoblar – agar to‘liq javob bo‘lsa – 3 ball, qo‘sishma qilinsa – 2 ball, o‘tirgan joydan luqma tashlasa – 1 ball, javob berilmasa – 0 ball qo‘yilishi belgilanadi.

Bahoni – to‘liq javob uchun – 5 baho, qo‘sishma uchun – 4 baho, luqma tashlansa – 3 baho, javob bermasa – 2 baho, umuman ishtirop etmasa – 1 baho tarzida qo‘yilishi belgilash mumkin.

Guruh a’zolarining javoblarini yuqorida ko‘rsatilgan tartibda baholash, ballarni qo‘yib borish, umumlashtirish uchun har bir guruh o‘ziga guruh qatnashchilaridan birini «hisobchi» etib tayinlashi mumkin («hisobchi» ham davrada bo‘layotgan savol-javoblar muloqotida ishtirop etadi).

10-bosqich:

Ushbu bosqichda o‘qituvchi tarqatma materiallar asosida tuzilgan savollar (5–6 ta) bilan o‘quvchilarga murojaat qiladi (savollar iloji boricha hamma matnga tegishli bo‘lgani ma’qul, shuningdek, o‘qituvchi sinfdagi barcha o‘quvchilarni javob berish uchun qamrab olishga harakat qiladi).

Belgilangan savollarga javob berish tugagach, o‘qituvchi xattaxtaga guruhrular tomonidan to‘plangan ballarni yozadi va mashg‘ulotning keyingi bosqichiga o‘tadi.

11-bosqich:

Bu bosqichda guruhrular bir-birlariga savollar beradilar, guruhradagi «hisobchilar» esa guruh a’zolarining javoblarini yuqorida belgilangan tartibda baholab boradilar. Javoblar to‘g‘ri bo‘lsa, savol bergen guruh javobni to‘ldirmaydi.

12-bosqich:

O‘qituvchi guruh a’zolari to‘plangan ballarni yana bir marotaba doskaga yozadi va to‘plangan ballar (baholar) ning umumiy sonini aniqlaydi. To‘plangan ballar (baholar) ni umumiy sonini guruh a’zolariga teppa-teng bo‘ladi (yuqorida kelishilganlik asosida).

I z o h : agar to‘plangan ballarni guruh a’zolariga teppa-teng bo‘lishda o‘quvchilar tomonidan norozilik bo‘lsa, ya’ni ba’zi guruh a’zolari guruhning faoliyatida faol ishtirok etib, umumiy ja-moaviy faoliyatda passiv bo‘lishgan bo‘lsa, yoki umuman ishtirok etmagan, qiziqmagan bo‘lishsa, bunday holatda vaziyatni yechishni guruh a’zolariga yuklatiladi. Guruhning yechimi to‘g‘ri hisoblanadi, yoki o‘qituvchi o‘z fikrini bildirishi mumkin, chunki u dars jarayonida o‘quvchilarning javoblari, faol yoki passivliklarini kuzatib boradi.

Umuman olganda, agar o‘quvchi faollik ko‘rsatmagan, yoki savol-javoblarda ishtirok etmagan bo‘lsa ham uning shu dars jarayonida biron narsani bilib olgani, eslab qolib o‘zlashtirganini hisobga olgan holda unga eng kichik ball berilishi mumkin. Bu o‘quvchini keyinchalik shu shakldagi darslarda faolroq bo‘lishga undaydi. Yuqoridagi kabi vaziyat vujudga kelsa uning yechimini har bir o‘qituvchi sharoitga qarab o‘zi hal etishi yoki guruh, jamoaga tashlashi mumkin.

Ba'zida guruhning «hisobchilari» ballarni qo'yishda noaniqlik yoki qo'shib yozishlari mumkin, natijada, ba'zi guruhlarning umumiyligi to'plangan ballari boshqa guruhlarnikidan juda farq qiliishi mumkin. O'quvchilarning haqqoniy baholanishlari ularning tanlagan «hisobchi»lariga bog'liq ekanligini o'qituvchi eslatib o'tadi. Agar umumiyligi to'plangan ballarni guruh a'zolariga taqsimlanganda shu mashg'ulot uchun belgilangan maksimal balldan ortib ketgan bo'lsa, u holda shu mashg'ulot uchun kerakli ballni olib qolib, ortiqchasini keyingi mashg'ulotlarga yoki yakuniy nazoratga o'tkazish mumkin.

13-bosqich:

Har bir o'quvchiga ballar qo'yilgach o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi. O'quvchilarning faoliyatiga baho beradi, berilgan javoblarga o'z fikrini bildiradi va quyidagi savollar bilan ularga mu-rojaat qiladi:

- Bugungi mashg'ulotdan nimalarni bilib oldingiz?
- Nimalarga o'rgandingiz?
- Nimalar sizlar uchun yangilik bo'ldi?
- Yana nimalarni bilishni istar edingiz?

14-bosqich:

O'qituvchi o'quvchilarning javoblarini diqqat bilan tinglab ularغا minnatdorchilik bildiradi va darsni yakunlaydi.

«Muloqot» treningi

Trening haqida tushuncha.

Ushbu trening o'quvchilartu dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o'z fikrlarini erkin holda bayon eta olishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, odatda bunday mashg'ulot tinglovchilarni kichik guruhlarga bo'lgan holda o'tkaziladi.

Maqсад.

Tanlangan mavzu, muammo asosida o'quvchilarlarning fikrlarini hamda ushbu mavzuga bo'lган munosabatlarni aniqlash, mustaqil holda umumiyligi bir fikrga kelishlariga va to'g'ri xulosa chiqarishlariга yordam berish, erkin bahslashishlariga sharoit yaratish.

O‘tkazilish tartibi.

Mashg‘ulotni boshlashdan avval o‘quvchilarni muloqot, bahsmunozarani o‘tkazishga qo‘yilgan talablar, qoidalar bilan tanishtiriladi, so‘ngra ushbu trening bosqichma-bosqich o‘tkazilishni tushuntiriladi.

1-bosqich:

O‘qituvchi mashg‘ulotni muloqotning mavzusini aniqlashdan boshlayd. Masalan, «Siz xalq og‘zaki ijodidan ertaknimi yoki hikoyatlarni yaxshi deb o‘ylaysiz?» Shu mavzuni o‘rtaga tashlab o‘quvchilardan ertak va hikoyatlar tarafдорларини aniqlab oladi. Ularни shu tartibda guruhlarga bo‘ladi.

2-bosqich:

Har bir guruhdagi tinglovchilar o‘z mavzulari asosida kerakli materiallar: dalillar, misollar, aniq fikrlar, o‘z fikrlarini tasdiqlovchi ko‘rgazmali materiallar, imkonni bo‘lsa videofilm, maqollar, mutafakkir va olimlarning so‘zlari va boshqalarni tayyorlaydilar. Guruhdan bir kishini himoya uchun tanlaydilar, qolganlar esa o‘z fikrlarini qo‘sishcha qilishlari mumkin. O‘qituvchi guruhlarni tayyorgarlik ko‘rishlari uchun sharoit va imkoniyatga qarab vaqt beradi.

3-bosqich:

Guruhrar himoyaga tayyor bo‘lgach, o‘qituvchi guruhlarning biriga himoya uchun so‘z beradi (himoyaga chiqish ixtiyoriy ravishda bo‘lishi mumkin). Guruh vakili guruh nomidan so‘zga chiqib ularga berilgan mavzuni tayyorlangan materiallar, dalillar asosida himoya qilishga kirishadi. Guruh vakili so‘zini tugatgach, guruhning qolgan a’zolari o‘z fikrlari bilan qo‘sishcha fikrlar birdirishlari mumkin.

4-bosqich.

Mashg‘ulotning 3-bosqichdagi kabi bu bosqichda ham trener navbatdagi guruh vakiliga himoya uchun so‘z beradi. Ikkinci guruh ham birinchi guruh kabi o‘z mavzusi bo‘yicha himoya qiladi. Himoya tugagach, trener mashg‘ulotning keyingi bosqichiga o‘tadi. Har ikkala guruhning himoyasi vaqtida trener iloji boricha ularga xalaqit bermaslikka, o‘z fikr va mulohazasini birdirmaslikka, savol bermaslikka harakat qiladi, hech qaysi guruhga yon bosmagan holda muloqotni boshqaradi, guruhlar himoyasi vaqtida tartib saqlanishiga va muloqotni o‘tkazishga qo‘yilgan talab, qoidalarni to‘liq bajarilishiga

erishishga harakat qiladi. Bu bosqichda, asosan, ikki guruh erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatishlari kerak bo'ladi.

5 -bosqich:

Guruhanlar bir-birlariga savol berishni boshlaydilar. Guruhanlar tomonidan beriladigan savollar ular himoyasi vaqtida aytilgan dalillar, misollar, fikrlarni yanada oydinlashtirish maqsadida, shuningdek, o'z guruhanining fikrlarini yanada ta'kidlab, isbotlab, qolganlarni ham shu fikrga qo'shilishlariga da'vat qilish uchun berilishi mumkin. Tinglovchilar erkin holda o'zlarining chiqishlari bilan barchaga ta'sir ko'rsatishga, o'z fikrlarini ma'qullashga harakat qiladilar. Trener bunday holatga sharoit, imkoniyat yaratadi, ya'ni u bahs-munozarani samimiylilik bilan boshqaradi.

6 -bosqich:

Trener har ikki tomonning bir-birlariga savollari, aytadigan fikrlarini umumlashtiradi va o'zining bu masala haqidagi fikr va mu-lohazasini bayon etadi va guruh tinglovchilari tomonidan tushgan savollarga kerakli javobni berishga harakat qiladi.

Mashg'ulot oxirida trener har ikkala guruhnинг mashg'ulot jaryonidagi faoliyatlarini tahlil etib, ularga minnatdorchilik bildiradi va mashg'ulotni yakunlaydi.

Ushbu treningning davomiyligi sharoitga qarab belgilanadi.

«Blits – o'yin » texnologiyasi

O'yin haqidatushuncha. Ushbu texnologiya o'quvchi-talabalarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmet asosida ko'p xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o'quvchi-talabalar o'zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o'tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to'liq sharoit yaratib beradi.

Maqsad .

Ushbu texnologiya tinglovchilarga tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so'ngra o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikr bo'la olishga yordam beradi.

O‘tkazish texnologiyasi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqich:

- trener ushbu trening bir necha bosqichda o‘tkazilishi haqida tinglovchilarga (o‘quvchi-talabalarga) tushuncha beradi. Har bosqichdagi vazifani bajarishga aniq vaqt berilishi, tinglovchilar esa shu vaqtadan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlanitiradi;
- o‘qituvchi hamma tinglovchilarga alohida-alohida tarqatma material beradi va tinglovchilardan ushbu materialni sinchiklab o‘rganishlarini so‘raydi;
- o‘qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifani tushuntiradi, ya’ni tarqatma materialda berilgan 13 ta harakatni ketma-ketligini to‘g’ri belgilash kerakligini, belgini esa qog‘ozdagи alohida ajratilgan bo‘limga raqamlar bilan belgilash kerakligini tu-shuntiradi;
- qo‘yilgan vazifa avval yakka tartibda bajarilishini aytadi.

2-bosqich:

- o‘qituvchi birinchi berilgan vazifani har bir tinglovchi tomonidan yakka tartibda bajarilishini kuzatadi, qiynalganlarga yordam beradi, yoki qaytdan tushuntiradi;
- har bir tinglovchi tarqatma materialidagi «YAKKA BAHO» bo‘limiga shu yerda berilgan harakatlardan o‘zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma-ketiligidni raqamlar bilan belgilab chiqadi, ya’ni berilgan 13 harakatdan, uning fikricha qaysi biri, birinchi bo‘lishi, qaysi biri esa ikkinchi bo‘lishini va hokazo. Bu vazifani bajarish uchun trener tinglovchilariga 10 daqiqa vaqt beradi.

3-bosqich:

- trener tinglovchilaridan 3 kishidan iborat kichik guruuhlar tashkil etishlarini so‘raydi. 3 kishilik guruuhlar tinglovchilarning xo-hishlariga qarab yoki raqamlar bo‘yicha tashkil etilishi mumkin;
- kichik guruhlardagi tinglovchilarning har biri o‘z qog‘ozidagi yakka baho bo‘limida belgilangan harakatlar ketma-ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar, keyin 3 kishida uch xil bo‘lgan ketma-ketlikni birqalashib, bir-birlari bilan tortishib, bahslashib, bir-birlariga

ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirib kelishgan holda bir muqimga kelib, ularga tarqatilgan qog'ozdag'i «GURUH BAHOSI» bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqadilar.

• trener kichik guruhdag'i tortishuvlarda ishtirok etmaydi, faqat kichik guruhlar va har bir tinglovchi faoliyatini kuzatadi. Bu vazifa-ni bajarish uchun 20 daqiqa vaqt beriladi.

4-bosqich:

• Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, trener harakatlar ketma-ketligi bo'yicha to'g'ri javobni beradi, ya'ni tinglovchilar dan ularga tarqatilgan qog'ozlardan «TO'G'RI JAVOB» bo'limini topishni va unga trener tomonidan aytilan harakatlar ketma-ketligi ning raqamlarini yozishni so'raydi.

5-bosqich:

• trener «TO'G'RI JAVOB» bo'limida berilgan raqamlardan «YAKKA BAHO» bo'limida berilgan raqamlarni (yoki aksincha), ya'ni kattadan-kichikni ayirgan holda «YAKKA XATO» bo'limiga chiqqan farqni yozishini so'raydi. «YAKKA BAHO» bo'limidagi sonlarni yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqib umumiysini hisoblashlari kerakligini uqtiradi.

6-bosqich:

• Xuddi shu tartibda «TO'G'RI JAVOB» va «GURUH BAHO SI» o'rtafigi farq kattadan-kichikni ayirish orqali bajariladi, chiqarilgan farqlar soni «GURUH XATOSI» bo'limiga yozilib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy son keltirib chiqariladi.

7-bosqich:

• Trener yakka va guruh xatolarining umumiy soni bo'yicha tushuncha beradi, ularni alohida-alohida sharhlab beradi.

«YAKKA XATO» bo'limidagi umumiy sonlarning sharhi:

– Agar yakka xatolar soni 30 ta gacha bo'lsa, bunday tinglovchilarda tashkilotchilik, konstruktivlik qobiliyati yetarli, ular mustaqil ravishda har bir ishni tashkil eta oladilar, turli sharoitlardagi harakatlar vaqtida mantiqan ularning ketma-ketligini tashkil eta oладар.

– Agar yakka xatolar soni 30 dan 40 tagacha bo'lsa, bunday tinglovchilarda tashkilotchilik qibiliyati yetarli emas, biron bir ishni

yoki faoliyatni tashkil etishlarida qynaladilar, yoki pala-partishlikka yo‘l qo‘yadilar. Shuning uchun ular alohida kurslarda o‘qishlari yoki mantiqan fikrlashga o‘rganishlari kerak bo‘ladi.

– Agar xatolar soni 40 dan yuqori bo‘lsa, bunday tinglovchilar-da tashkilotchilik, mantiqan fikrlash qobiliyati yetarli emas, ular o‘z ustilarida ishlashlari kerak bo‘ladi yoki maxsus treninglar, kurslarda o‘qishlariga to‘g‘ri keladi.

«GURUH XATOSI» bo‘limidagi umumiy sonlarning sharhi:

– Agar xatolar soni 30 tagacha bo‘lsa, bu guruhlardagi tinglov-chilar bir-birlarini tushunishga harakat qilganlar, bir-birlarini ishonti-ra olganlar va natijada bir hil natijaga erishganlar.

«Aqliy hujum» metodi

Aqliy hujum guruhlararo qo‘llaniladigan, ko‘plab g‘oyalarni ishlab chiqish mumkin bo‘lgan metoddir. Bu haqiqatdan ham tala-balarning o‘quv jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g‘oyalarni bayon qilish chog‘ida boshqalarni ham qizg‘in ishga yo‘llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag‘batlantiruvchi metoddir. Aqliy hujum shuning uchun ham faollashtirishni muhim usuliki, unda tanho ishslash mumkin emas, birgina g‘oya guruhnini barcha ishtirokchilarini bir xilda o‘ziga tortib oladi.

O‘qituvchi mavzu yoki savolni ajratib olishi zarur, keyin esa o‘quv faoliligi 5–10 daqiqa oralig‘idagi vaqt chegarasida yengil-lashtiriladi.

Aqliy hujum turli tarzda qo‘llanishi mumkin: masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun, yangi savol qo‘yish yoki istalgan qandaydir muammoni hal etish uchun.

Asosiy qoidalari quyidagilar:

1. Aytilayotgan barcha g‘oyalar bir-biriga nisbatan muhimlikda tengdir.
2. Kiritilayotgan g‘oyalarga nisbatan tanqid mavjud emas.
3. G‘oyani taqdim etayotgan vaqtida so‘zlovchining gapini bo‘lmaslik.
4. So‘zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas.

Metodni ishlatischga kirishish

1-m e t o d : – guruhning barcha ishtirokchilariga bir mavzu va bir savol qo‘yiladi.

1. O‘qituvchi o‘quv jarayonida tashabbusni o‘z qo‘liga shunday tarzda oladi: u auditoriyadagi barcha talabalarga savol beradi va qandaydir maxsus mavzuga daxldor barcha mumkin bo‘lgan fikrlar ni aytishni so‘raydi.

2. Barcha, hatto, ahmoqona g‘oyalarni ham aytishga ruxsat beriladi. Aytيلاتقان fikrlar ichida birgina asosiy mavzu saqlanib qolishi shart.

3. Birortasining ham fikri sharhlanmaydi, tanqid qilinmaydi, baholanmaydi.

4. Asosiy fikrlarni o‘qituvchi flip-karta, xattaxtaga yozib oladi yoki ekranda ko‘rsatadi.

5. Aqliy hujum tugagach, barcha g‘oyalari to‘planishi, guruhlar ga ajratilishi yoki kategoriyalarga bo‘linishi mumkin.

2-m e t o d : – barcha mavzu va savollar umumiyo yo‘nalishi saqlangan holda katta guruh tarkibidagi guruhchalarga taqdim etiladi.

1. O‘qituvchi umumiyo mavzu bo‘yicha bir nechta, balki 4-6 ta savol tayyorlashi mumkin.

2. Katta guruh kichik guruhchalarga ajratiladi va har bir guruhchaga aqliy hujum o‘tkazish uchun alohida savol beriladi.

3. Har bir guruhcha aqliy hujum tafsilotini yozib olish uchun bittadan kishi ajratadi, keyinnchalik, jarayon tugashi bilan uni guruhning barcha a‘zolariga taqdim etadi.

4. G‘oyalari har bir guruhcha tomonidan katta sahifaga marker dan foydalani yozib olinishi mumkin. Shunday sahifa-plakatning yuqorisiga tayyorlangan savollar yozib qo‘yiladi. Sahifa-plakat jarayoning oxirida har bir xohlovchi nima yozilgan va jamlanganligini ko‘rishi uchun osib qo‘yiladi.

5. Aqliy hujumning bu metodi qisqa vaqt ichida bir savolning bir necha jihatli ishlab chiqilishi zarur bo‘lgan joyda, ayniqsa, foydalidir.

6. O‘qituvchi rahbar-yordamchi sifatida harakat qiladi va aqliy hujum amalga oshirilayotgan paytda bir guruhdan ikkinchi guruhga o‘tib turadi.

Muhim g‘oyalar aqliy hujum paytida ishlab chiqilgan bo‘lishi va munozaralarda muhokama etilgan bo‘lishi kerak.

Ko‘pincha muhim g‘oyalarni belgilash va ular ichidan eng yaxshilarini tanlab olish chog‘ida auditoriyaga yordam berish ehtiyoji tez-tez yuzaga kelib turadi. Ya’ni, nomigagina kichik korxona yaratish kabi.

Yakuniy xulosaga kelish, ayniqsa, qiyin. Bu tabiiy, chunki har bir ishtirok etuvchiga «o‘zimning g‘oyam eng yaxshi» degan xususiyat xosdir. Umumiyoq pozitsiya, har qalay, tezda topiladi va bunda quyidagi metod yordamga kelishi mumkin.

Tanlash va hisobga olish tizimi uchun:

- metod qandaydir bir g‘oyani hal etish paytida, ya’ni nomigagina kichik korxona tayyorlash holatlari benuqson hisoblanadi;
- har bir kishiga turli yo‘l bilan foydalanish mumkin bo‘lgan moddalarni ajratiladi, bundan tashqari ular o‘zlarining shaxsiy g‘oyalari ularni bog‘lashlari mumkin emas, ya’ni ular, moddalarining barchasini ixtiyoriy bir taxminga berishi yoki boshqa taxminlarga taqsimlashi mumkin. Ular, hatto, shuni istasalar, har bir g‘oyaga alohida modda ajratishlari mumkin. Ular moddalarning barchasidan foydalanishlari zarur;
- moddalar yig‘iladi va ko‘p son to‘plagan aniq g‘oya g‘olib chiqadi;
- munozarali holatlarni ovoz berish yo‘li bilan hal etish mumkin. Har bir ishtirokchi tomonidan sahifaga ishlab chiqilgan va qayd etilgan muhm fikrlar yig‘iladi, endi guruh sahifasi shaklida qaytadan ta’riflanadi:
 - buning eng oson yo‘li guruhchalarda ishtirok etuvchilarning barcha g‘oyalari qayd etilgan uzun sahifa tayyorlashdir. G‘oya takrorlanayotgan har bir holatda uning yoniga belgi qo‘yish zarur;
 - nazar tashlasangiz, dastlab barcha 10 g‘oyadan eng yuqori to‘plangan ballga ko‘zingiz tushadi, shundan so‘ng qolgan umumiyl ballar o‘rin oladi va boshqalar;
 - agar Siz 10 g‘oyadan iborat sahifani yakunlay olmasangiz, 5 moddadan iborat hisoblash tizimidan foydalanishingiz mumkin. Yuqorida ta’kidlaganidek, sahifada qolgan g‘oyalalar asosida shunday demokratik yo‘l bilan kutilgan natijalarga erishiladi.

Kichik guruhlarda ishlash usuli

Bularga: «fikriy hujum» («fikr jangi»), sinektika, mojaro metodi, «dumaloq stol», «uch bosqichli intervyu», muammolarni hal qilish metodi, «stol o‘rtasidagi ruchka», galeriyani aylanish, «akademik munozara», «qor bo‘ron» metodi, «asalari galasi», «kritik vaziyatni tahlil qilish» va boshqalar kiradi.

Bu metodlar bo‘yicha ishlash uchun bir necha kishidan iborat guruhlар tuzib, ishonch vaziyatini vujudga keltirish, oshkora muhokama uchun xalal beradigan psixologik keskinlikni bartaraf etish zarur.

Ushbu guruh metodikalari fikrlash doirasini kengaytirib, mavjud cheklovlarni nazaridan qochirib turish, fikrlash faoliyati harakatchanligini rivojlantirish, o‘quv faoliyatini jadallashtirishga qaratilgan. Ularning qiymati yangi o‘quv axborotini ishlab chiqish va mustahkamlashdan iborat.

M a q s a d i .

- O‘quvchilarni ko‘proq jalb etish va ularning bir-biridan o‘rganishiga imkon berish.
- Yo‘l-yo‘riq berib turadigan murabbiyni «sahnadan» chiqarib yuborish.

A f z a l l i k l a r i :

- O‘quvchilarga o‘z g‘oyalari va fikrlari bilan ko‘proq o‘rtoqlashish uchun imkon beradi.
- Kichik guruhlarda o‘quvchilar katta guruhlarda aytishlari mumkin bo‘lgan fikrlardan boshqacha fikrlarni aytishlari mumkin.

O‘quvchilar tajriba va g‘oyalari bilan o‘rtoqlashishlari mumkinki, bu – bilimlarni kengaytiradi va mavjud yondashuvlarni o‘zgartiradi.

Diqqat markazni pedagogdan (yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi murabbiydan) qatnashchilarga ko‘chiradi.

O‘quvchilarni o‘qish uchun ko‘proq mas’uliyatni o‘z ustlariga olishga majbur qiladi.

K a m c h i l i k l a r i

- ancha ko‘p vaqt va qo‘srimcha joy bo‘lishini talab qiladi;

- o‘quvchilarning birortasi boshchilik qilishga o‘ta boshlashi, agar guruh bunga qarshilik ko‘rsatmasa, uning ustidan nazorat qilishni o‘z qo‘liga olishi mumkin;
- guruh o‘ziga berilgan topshiriqlardan chalg‘ib, yo‘l-yo‘riqlarga aniq amal qilmasligi yoki topshiriqlarni noto‘g‘ri tushunishi mumkin.

Pedagogga (yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi murabbiyga) maslahatlar:

- topshiriqnini aniq va ravshan qilib ta’riflab bering, uni hamma tushunib olganiga ishonch hosil qiling;
- o‘quvchilarga ularning sihfda joylashib olishlari uchun vaqt bering va shundan keyingina topshiriq ustida ishlay boshlashga ruxsat bering;
- yo‘l-yo‘riqlarni loaqal bir marta takrorlang;
- o‘quvchilarning yo‘l-yo‘riqlarga nechog‘li aniq amal qilib borishayotganini va topshiriqlardan chetga chiqishmayotganini qayta-qayta tekshirib ko‘ring.

«Fikriy hujum» metodi

Metodikaning asosiy qoidalari:

- g‘oyalarni shakllantirishga halal beradigan qanday bo‘lmisin biror mulohaza va tanqidiy fikrlarni bajarmaslik;
 - yangicha fikrni tabriklash va fikr qanchalik odatdan tashqari bo‘lsa, uni shuncha yaxshi bo‘lishini hisobga olish;
 - eng ko‘p sonda takliflar olish;
 - g‘oyalarni rivojlantirish;
 - har tomonlama dalil-isbotlar keltirmasdan turib, qisqa fikrlarni bayon qilish;
 - guruhni g‘oya beradigan o‘quvchilarga va ularni ishlab chiqadigan o‘quvchilarga bo‘lish.

Bu metodika o‘quvchilarni o‘z nuqtai nazarini isbotlash, himoya qilish, har qanday vaziyatda eng ma’qul yechimni topish, muloqot olib borishga, himoya qilinayotgan nuqtai nazarning to‘g‘riligiga hammani ishontirishga o‘rgatadi.

O‘qituvchi topshiriqnini tahlil qilishda har bir o‘quvchi qatnashadigan bo‘lishini kuzatib boradi, bunda javoblarning birortasi ham izohlab o‘tilmaydi va o‘rinsiz deb rad etilmaydi. Guruhda

variantlar qolmaganidan keyingina muhokamaga kirishish mumkin: «Hozirgi davr talabidan kelib chiqib qanday sohalarni tadqiq etish zarur deb o‘ylaysiz?» O‘quvchilar o‘qituvchi bilan birqalikda barcha variantlarni faollik bilan muhokama qila boshlaydilar. Va bu o‘rinda noto‘g‘ri javoblarni tanqid qilishga va noto‘g‘ri bo‘lib chiqqan variant xususida tanqidiy munosabatni asoslashga ruxsat berilmaydi. Faqat mashg‘ulot oxirida o‘qituvchi bilimlarni yanada mustahkamlash uchun to‘g‘ri variantlarni yozib olishni o‘quvchilarga taklif etadi.

Metodning maqsadi – guruhdan qisqa vaqt ichida ko‘p miqdor variantlarni olish, o‘quvchilar nimalarni bilihini aniqlash. Mashg‘ulot davomida muammoni hal eta oladigan g‘oyalar taklif etilishi, umumiy tajriba yuzasidan fikr almashish uchun zamin yaratilishi va o‘quvchilar istaklarini bildirishi mumkin. Bu jarayon mohiyati shundan iboratki, guruhga mavzu, savol yoki tugallangan-magan taklif beriladi. Guruh a’zolari bir necha daqiqa davomida shu mavzu yuzasidan gaplashib, miyasiga nima kelsa, shularning hammasini aytishadi va bularning hammasini tinglash, bo‘r bilan xattaxtaga yoki bloknotga yozib borish tavsiya etiladi. Gaplarning hammasi, ular qanchalik noaniq, bema’ni yoki bahsli bo‘lmisin, yozib qo‘yilaveradi. Hamma o‘z fikrini muhokama qilmasdan turib, bayon qiladi, chunki maqsad ko‘proq miqdorda va xilma-xil takliflar olishdir. Bu paytda taqiqlar bo‘lmaydi va hech qanday baholar berilmaydi. Qatnashchilarda takliflarni tahlil qilish, norozilik bildirish va taklif etilgan hamma fikrlarni muhokama qilib chiqish uchun keyinroq imkon bo‘ladi. Agar faollik sust bo‘lsa, o‘qituvchi o‘z fikrlaridan ba’zilarini yozib olishni taklif etishi mumkin, lekin bundan oldin u biroz jim turishi kerak.

Metodning qiymati shundaki, u guruhni birlashtirib, yakdil qiladi. Har bir qatnashchiga uning taklifi yozib olishga arzigullik ekanligini sezish uchun imkon beriladi. Bu narsa muammoni yechishni musobaqaga aylantirmasdan, balki birqalikda bajariladigan ishga aylantirishga imkon tug‘diradiki, bunda guruhning boshqa bir a’zosi emas, muammoning o‘zi asosiy raqib bo‘lib qoladi. Shunisi muhimki, guruhning qiladigan xatti-harakatlari tartibini o‘qituvchi fikriy hujumning eng boshidayoq tushuntirib berishi kerak. Guruhni topshiriqdan chalg‘itishga yo‘l qo‘ymaslik

ham muhim: fikr jangida ishtirok etishga o'rganib qolgan guruh ham takliflarni muhokama qilishga vaqtidan ilgari kirishib ketishi mumkin. Berilgan takliflarni yozib borish uchun bir kishini ajratish o'rinnlidir. Bu narsa jarayonni quvvatlab borish va tala-balarning fikrlash jarayoni sur'atlarini pasaytirmaslik uchun o'qituvchiga yordam beradi.

«Fikriy hujum» metodini tadbiq etish uchun tavsiyalar:

- u mavzuga mos keladigan bo'lishi uchun uni o'tkazishga yaxshi tayyorlanish;
- guruh oldida muhokama yuritish uchun mavzuni aniq ta'riflab bering;
- «Fikriy jang» odatda og'zaki shaklda bo'lib o'tadi: o'qituvchi savol beradi, o'quvchilar esa, munozaraga tushmasdan, o'z fikrlarini galma-gal bayon qilishadi, bunda hamma o'z fikrini aytib bo'lishi kerak;
- g'oyalarning hammasini barchaga namoyish qilib ko'rsatib qo'yilmaguncha ularni muhokama qilmaslik nihoyatda muhim;
- jarayonning tartibi va maqsadini o'quvchilarga tushuntirib qo'yish lozim;
- xoh o'qituvchi bo'lsin, xoh o'quvchi bo'lsin ularning har qanday g'oyaga salbiy baho berishlariga yo'l qo'ymaslik kerak;
- g'oyalalar ro'yxati kimdaki uzunroq bo'lsa, o'sha yaxshi hisoblanadi.

«Dumaloq stol» metodi

Topshiriq yozib qo'yilgan qog'oz varag'i davra bo'y lab o'tkaziladi. Har bir o'quvchi o'zining javob variantini yozib qo'yadi va varaqni boshqa o'quvchiga uzatadi. Hamma o'quvchilar o'z javoblarini yozib qo'yishadi, keyin muhokama bo'ladi: noto'g'ri javoblar o'chiriladi, to'g'ri javoblarning soniga qarab o'quvchining bilimlariga baho beriladi. Bu metodni faqat yozma shaklda emas, balki og'zaki shaklda ham qo'llash mumkin.

Berilishi mumkin bo'lgan topshiriqlarga misollar:

- O'zbek tilida nechta unli tovush bor va ular qaysilar?
- O'zbek tilida nechta undosh tovush bor?
- Bo'g'in nima?

- Gap nimalardan tuziladi?
- Nutqning qanday turlarini bildingiz?
- Nom bildirgan so‘larga misol keltiring.
- Harakatni bildirgan so‘zarga misol keltiring.
- Belgini bildirgan so‘zlar qaysilar?

Shuni esda tutish kerakki, yaxshi qo‘yilgan savol, bu – javobning yarmisini o‘ziga jo qilgan savoldir.

«Ruchka stol o‘rtasida» metodi

Butun guruhga topshiriq beriladi. Har bir o‘quvchi bitta javob variantini bir varaq qog‘ozga yozib, uni qo‘shnisiga beradi, o‘z ruchkasini esa, stolning o‘rtasiga surib qo‘yadi.

Topshiriqqa misol:

O‘qituvchining guruhga beradigan topshirig‘ini hayotiy misollar bilan sharhlab berish.

Ajratilgan 10–15 daqiqa vaqt ichida guruh mumkin qadar ko‘proq sonda javob variantlari berishi kerak. Bir varaq qog‘ozga yozilgan topshiriq bir o‘quvchidan ikkinchisiga uzatiladi. O‘quvchi javobni yozib, qog‘ozni keyingi o‘quvchiga uzatadi, ruchkasini esa, o‘ziga ro‘baro‘ qilib, stolga qo‘yib qo‘yadi. Javobni bilmaydigan o‘quvchi qog‘ozni keyingi o‘quvchiga uzatadi-yu, lekin ruchkasini qo‘lida olib qoladi. Bu metodikaning yana bir sharti: bitta variantni ikki qayta berish mumkin emas, boshqacha aytganda, qaytariqlar bo‘lishiga bu o‘rinda yo‘l qo‘yilmaydi.

Topshiriq bajarildi. Javob variantlari yozilgan qog‘oz o‘qituvchida. U o‘sha variantlarni sanab o‘tadi.

Variantlar sanab o‘tilar ekan, ularning har biri bir yo‘la muhokama qilib boriladi:

«Ruchka stol o‘rtasida» metodining bir qancha afzalliklari bor:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga kim tayyor, kim tayyor emasligini ko‘rib turadi;
- mashg‘ulotga tayyorlanmagan o‘quvchi og‘zaki muhokama paytida ko‘rib chiqilayotgan mavzu yuzasidan anchagina foydali bilimlar olishi mumkin;
- bu guruhda olib boriladigan ish bo‘lib, o‘quvchilar intizomini mustahkamlaydi va ularni jipslashtiradi, chunki o‘z varianti ustida

juda uzoq o‘ylab o‘tiradigan o‘quvchi butun guruhga ajratilgan vaqt-ni sarflaydi. Shuningdek, o‘quvchi mashg‘ulotga tayyor bo‘lmasa, bunda ham u guruhga pand beradi, chunki guruh uning uchun ishlashi kerak bo‘ladi;

– o‘quvchilar o‘z javoblarini ikki marta: yozma ish paytida va og‘zaki muhokama vaqtida tahlil qilib chiqishadi.

Rotatsiya (aylanma) metodi bilan fikrlarni ko‘rib chiqish

Bu metod mashg‘ulot mavzuini har bir kichik guruh alohida-alohida muhokama qilib chiqishi va yozganlarini butun guruh tahlil qilib ko‘rishi uchun qo‘llaniladi.

Har bir kichik guruh 30 daqiqa davomida 3 ta topshiriqni muhokama qiladi, keyin 15 daqiqa davomida esa, muhokama birgalikda o‘tkaziladi.

Sinfga tartib raqamlari bilan birga bir nechta topshiriq osib qo‘yiladi. Har bir kichik guruh (2–3 kishi) 10 daqiqa davomida muhokama qilib, o‘z javobining variantini yozib oladi-da, so‘ngra keyingi topshiriqqa o‘tadi va oxirigacha shunday qilib boradi.

Har bir guruh o‘ziga rangli flomaster oladi: 1-guruhda ko‘k, 2-guruhda qora, 3-guruhda yashil flomaster bo‘ladi. Qo‘srimchalarni har kim har bir varaqqa o‘zining rangli flomasteri bilan yozib boradi, shunda uchchala guruhdan har birining ishtiroki yaqqol ko‘rinib turadi.

Topshiriqni 10 daqiqadan keyin almashtiriladi, 1-guruh 2-topshiriqqa, 2-guruh 3-topshiriqqa, 3-guruh esa 1-topshiriqqa o‘tadi.

Guruh oldingi o‘quvchilar tomonidan yozib qo‘yilganlarni o‘qiydi va o‘z javobi variantini yozib, to‘ldiradi, bunda variantning takrorlanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yana 10 daqiqadan keyin guruh keyingi topshiriqqa o‘tib, yozilganlarni o‘qiydi va o‘z javoblari bilan to‘ldiradi.

Yana 15 daqiqadan keyin javoblar tahlil qilinib, muhokama o‘tkaziladi.

So‘ngra eng ma’qul javob tanlab olinib, daftarga yozib qo‘yiladi.

Bu metod mavzuni jamoa bo‘lib muhokama qilishni ko‘zda tutadi.

Har xil rangdagi flomasterlardan foydalanish yozilganlarning yaqqol ko‘rinib turishi va har qaysi guruhning javobdagi ishtiroki ni baholash uchun qulay. Yozilgan javoblar tartib raqamlari bilan belgilab qo‘yiladi, bu – to‘g‘ri javoblarni hisoblash uchun qulaydir. Javoblarni hammadan ko‘p sonda yozgan kichik guruh eng yuqori ball oladi.

«Davra» metodi

O‘quvchilar davra qurib o‘tirib, taklif etilgan savolni galma-gal izohlab chiqishadi. Har bir o‘quvchi o‘z fikrini bayon qilib, muhokamaga foydali ulush qo‘sishim imkoniga ega bo‘ladi, chunki barcha qatnashchilarning fikrini bilish muhim. Lekin qatnashchilar o‘z ixtiyori bilan navbatini o‘tkazib yuboradigan bo‘lsa, bu – tamomila odatdagicha hol. Ba’zan qanday bo‘lmasisin biror savol yoki topshiriq davra bo‘ylab o‘tkaziladi va uni olgan o‘quvchi o‘z fikrini aytish huquqiga ega bo‘ladi.

Davra bo‘lib ishslashda hamma, jumladan, o‘qituvchi ham, teng huquqlidir; hamma bir-birini ko‘rib turishi, vizual aloqani qo‘llab-quvvatlab borishi va shu bilan bir vaqtida so‘zlayotgan kishining gaplarini diqqat bilan tinglashi mumkin. Raundlardan ko‘pgina maqsadlarda, jumladan baho berish, muammoni hal qilish, ijobiy mustahkamlash, davrani rejalashtirish, o‘tkazish uchun foydalansa bo‘ladi. Davrani muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun hamma o‘quvchilar va boshlovchi bir-birini ko‘rib tura oladigan joy tayyorlash, ish tartibini tushuntirib berish zarur. So‘zga chiqmag-anlar diqqat bilan tinglab borishlari, aytilayotgan gaplarga izoh bermasliklari kerak, bunday qilish hattoki o‘qituvchiga ham ruxsat etilmaydi. Oxirida hammaga ularning ishtirok etganliklari uchun tashakkur bildiriladi. Guruh bilan ishslashda davralar qoidalarini o‘quvchilarga tushuntirib qo‘yish zarur. Bunday o‘yinga o‘rganmagan guruh bilan ishslashni o‘qituvchi nimalar qilish kerakligini o‘quvchiga tushuntirganidan keyin boshlashi lozim. Guruh

bir qadar tajribali bo'lsa, davra mashqining kimdan boshlanishi ahamiyatga ega emas.

Davralardan o'quv mashg'ulotining boshi yoki oxirida foydalanish mumkin.

«Galereyani aylanish» metodi

Kichik guruhlarning hamma a'zolariga bitta muammo taklif etiladi. Har bir guruh 10 minut davomida o'z fikrlarini yozadi-da, javoblar zikr etilgan varaqlarni ikkinchi guruh bilan almashtiradi. Keyingi guruh oldingi guruhning javoblarini baholashi va javob tugal bo'lmasa, o'z variantini taklif etishi kerak.

«Munozara» metodi

Munozara – bu ikki yoki bundan ko'proq kishilarning keskin chegaralangan qoidalar doirasida og'zaki ravishda o'zaro olib boradigan bahsi, munozarasi, masala talashuvidir. Uning asosida kamdan-kam hollarda yashirin mo'ljal pinhon yotadi, bu o'rinda faqat nazariy qiziqish va oqillik bilan keltirilgan dalil yordamida opponentdan ustun kelish ishtiyoqi bo'ladi. Munozara nazariya yoki g'oyalarni targ'ib qilish maqsadida emas, balki mamnun bo'lish va qatnashchilarga bilim berish maqsadida olib boriladi. Munozara mavzui hamisha taklif ko'rinishida maydonga qo'yilishi kerak, gap namalar to'g'risida ketayotgani juda ham aniq-ravshan bo'lishi uchun esa jumlalarni sinchiklab tuzib olish lozim. Munozarada, hech bo'limganda, ikki nafar so'zlovchi va rais qatnashadi. Qatnashchilarning biri taklifni qo'llab-quvvatlab chiqsa (munozarani ochuvchi kishi), ikkinchisi – bu taklifga qarshi bo'lib chiqadi – opponent bo'ladi. Munozaralarda boshqalar ham biror tomon tarafdoi bo'lib so'zga chiqishi mumkin.

Munozara ochuvchi kishi va opponent, shuningdek qo'shimcha ravishda so'zga chiqadiganlar o'z so'zlarini oldindan tayyorlab olishlari kerak. Har bir kishi muayyan vaqt davomida, odatda, 15 daqiqa so'zlaydi, har qaysi tomondan qo'shimcha ravishda so'zga chiquvchilar ko'p deganda 2 kishi bo'lishi va ularning so'zlash vaqt 5 daqiqadan ortmasligi kerak. Munozara ochilishidan oldingi yarim

soat davomida guruhning har bir a'zosi uning mavzui yuzasidan fikr bildirishi – unga qo'shilishi yoki qarshi chiqishi mumkin. Bunga 3 daqiqa beriladi, ikki marta so'zga chiqish ruxsat etilmaydi. So'zga chiquvchilarning hammasi raisga murojaat qilishadi, uning qarori uzil-kesil bo'lib hisoblanadi.

So'zga chiqish tartibi quyidagicha:

- munozarani ochuvchi;
- opponent;
- munozarani ochuvchining yordamchilari, agar ular bo'lsa;
- opponent yordamchilari;
- sinfdagilarning so'zga chiqishi;
- munozarani ochuvchi.

Raisning asosiy vazifasi munozara tartibiga qattiq amal qilinishi va so'zlovchilarning munozara mavzuidan chetga ketmasligini kuzatib borishdan iborat.

«Akvarium» metodi

Guruhdan ixtiyoriy ravishda 3 kishi tanlab olinadi. Bular sinfning o'rtasidan joy oladilar – go'yoki «baliq», qolganlar esa, kuzatuvchi bo'lishadi. Shu kichik guruhga bir vaziyat taklif etiladi, ular buni 10–15 daqiqa davomida birgalikda muhokama qilishlari, kuzatuvchilar esa, davradagi o'rtoqlarining to'g'ri yoki noto'g'ri javoblarini yozib borishlari kerak. Avval «baliqlar» g'oyasi taklif etiladi, uni kuzatuvchilar muhokama qilishadi, keyin kuzatuvchilar o'z g'oyalarini taklif etishadi, shu g'oyalardan eng yaxshisining muallifi o'z g'oyasini taklif etmagan o'quvchi o'mniga kichik guruhga o'tadi.

Bu metodni xuddi «Zakovat» nomli o'yin singari o'tkazish mumkin, o'qituvchi oldindan tayyorlab qo'yilgan savollarni beradi, o'quvchilar bularni 1 daqiqa davomida muhokama qilib, javob berishadi. Javoblar qanoatlanarli bo'lmasa, stolga boshqa uch nafar o'quvchi borib o'tiradi va o'yin davom etadi.

«Akvarium» metodining afzalliklari:

- mavzu birgalikda muhokama qilinadi;
- metod mavzuni qismlarga ajratishga, o'quvchilar bilimlarini tekshirishga imkon beradi;
- munozara olib borish malakasi rivojlanadi;

- mashg‘ulot o‘yin ko‘rinishida o‘tadi;
- har bir o‘quvchi ishtirok etadi.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Qanday interaktiv metodlarni bilib oldingiz?
2. O‘rgangan metodlaringizdan qaysilari boshlang‘ich sinflar uchun samaraliroq?
3. O‘rgangan interaktiv metodlaringiz asosida dars loyihalarini tay-yorlang va algoritmini ishlab chiqing.

II bo‘lim. AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN METODIK MASLAHATLAR

MODULLI O‘QISH

O‘qish darslariga qo‘yilgan zamonaviy talablar o‘qituvchidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qishga jalb qilish, badiiy abbiyotni san’atning bir turi sifatida qarashga, asarlarning badiiy mazmunini, estetik ahamiyatini va obrazlar mazmunini tushunishiga e’tibor qaratish talab etiladi. Ta’limning an’anaviy tizimidan farqli ravishda modulli o‘qish darslarining asosida uning har bir etapida o‘quvchining faolligiga asoslangan mustaqil faoliyati, o‘zlashtirish qobiliyatini hisobga olgan har xil darajali modullar algoritmi asosida ta’lim jarayoniga to‘liq jalb etish yotadi.

O‘quvchilar modul topshiriqlarini mustaqil o‘qiy oladigan davr dan boshlab modulli o‘qishga o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ya’ni ikkinchi sinfdan boshlab modullarni kiritish yaxshi natija beradi.

Quyida modulning qisqartirilgan variantini tavsiya etamiz (O‘qish darsining algoritmi):

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSINING ALGORITMI

1-m o d u l .

Uy vazifasini tekshirishga tayyorgarlik.

Darslikning ...betini och (Agar u she’r bo‘lsa, takrorla (hikoya bo‘lsa, birinchi xatboshini o‘qi).

She’rning bir bandini o‘qib, partadoshingga aytib ber (hikoya bo‘lsa, mazmunini partadoshingga so‘zlab ber).

She’rda yoki hikoyada nima haqida aytilgan? Qaysi voqealarning yoki hodisani eslab qolding, nima uchun?

O‘z-o‘zingni bahola va o‘rtog‘ing bahosini eshit.

2-m o d u l.

Quvnoq daqiqa:

1. Nafas olishga oid mashqlar: «sharni pufla», «choyni sovit», «changni hayda», « chiroqni puflab o‘chir».

2. Ovozga oid mashqlar: tovushlar artikulyatsiyasi, tez aytish, kichik she’rni sekin, tez, past, baland ovozda, ichda o‘qish, jo‘r bo‘lib o‘qish, intonatsiyaga rioya qilib o‘qish, yoddan aytish.

3-m o d u l.

Tez o‘qish. O‘qituvchining «Boshla» degan buyrug‘idan keyin boshla.

1. Lablaringni bir-biri bilan jipslashtir.

2. Faqat ko‘zing bilan o‘qi.

Imkon boricha tezroq o‘qi, tushunmaydigan so‘zlarining belgila.

Savollarga matndan javob ber.

Javobingni o‘rtog‘ing bilan muhokama qil, u bilan maslahatlash.

Umumiy muhokamada qatnash.

4-m o d u l.

Tez o‘qish malakasini egallash uchun intensiv mashqlar.

Yarim ovoz bilan boshlovchi (suxandon)ga taqlid qilib o‘qish.

Ritmik chermalar asosida o‘qish.

Matndan nigohni olib o‘qish.

Tezlashtirib o‘qish.

Juftlikda o‘qish.

Tez aytish tempida o‘qish.

Pichirlab o‘qish.

Faqat ko‘z bilan ichda o‘qish.

Tez o‘qish.

5-m o d u l.

Tavsiyalar:

Intonatsiyaga rioya qilib o‘qi, urg‘ularni to‘g‘ri qo‘y.

O‘qiyotganda pauzalarga to‘g‘ri rioya qil.

Ovoz kuchining baland yoki pastligini o‘zing belgila.

Tempning tez yoki sekinligini aniqla.

His-hayajon bilan o‘qi.

Intonatsiya bilan asarga o‘z munosabatingni bildir.

6-m o d u l.

Ijodiy daftardagi ish (tanlash bo‘yicha topshiriqlar).

Darsni xulosalash – o‘z fikringni aytishni, dialogga kirishish, muammoga baho berishni o‘rgan.

Tavsiyalar har bir o‘quvchiga beriladi.

O‘quvchilarda algoritmlardan foydalanish malakasini shakllantirish.

Mustahkam bilim va malakalarga ega bo‘lish maqsadli mustaqil faoliyat tufayli amalga oshishi mumkinligi hammaga yaxshi ma’lum.

Modullar haqidagi ko‘rsatmalardan tashqari o‘quvchilar uchun ishni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan alohida papkalar partaga qo‘yilishi kerak. Mustaqil ishlashga mo‘ljallangan topshiriqlarning asosida matnni bиринчи o‘qishdan o‘qiganlarining mazmunini tahlil qilish va berilgan savollarga javob berish kabi ishlар yotadi. Mazmunni chuqurroq idrok etish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish kerak.

Boshlang‘ich sinflarda hikoyani o‘rganishning metodik modeli

- Asosiy mazmunni aniqlash.
- Hikoyani bayon etuvchini ajratish (hikoyani kim aytayapti, u hikoya voqealarining ishtirokchisimi?)
 - Hikoya qahramonini aniqlash, uning harakatlari va bu harakatlarning sabablarini aniqlash.
 - Qahramon personajlar xarakteridagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash.
 - Ta’sir qiluvchi shaxsning hislari va holatini aniqlash va testda u holatni bildiruvchi so‘zdarni topish. Tushungani bo‘yicha qahramonni og‘zaki tavsiflash.
 - Hikoya qahramoniga muallifning munosabatini aniqlash. Matndan shunga doir so‘zlarni topish.
 - Hikoya qahramoniga o‘quvchilarning shaxsiy munosabatlarini aniqlash.
 - Asarning asosiy g‘oyasini tushunish.
 - Hikoya kompozitsiyasi ustida ishslash.

Boshlang‘ich sinfda ertakni o‘rganishing metodik modeli

- Aniq voqelikni aniqlash.
- Ertak qahramonlari.
- Ular rolining xususiyatlari (yaxshilik va yovuzlik va b.).
- Voqealarning izchilligi:
 - a) asosiy voqeanning xarakteri;
 - b) voqealarning ketma-ketligi.
- Xulq motivlari.
- Ertak qahramonlari va personajlarning xarakterli xususiyatlari.
- Ertak qahramonlari va personajlarning o‘zaro munosabatlari.
- Ertak qahramonlari yoki ertakdagi ayrim epizodlarni o‘ylagani bo‘yicha og‘zaki tavsiflash.
 - Ertakdagi asosiy g‘oyani aniqlash.
 - Ertak qahramoniga yoki undagi voqealarning hodisalarga o‘quvchi larning shaxsiy munosabatini aniqlash.
 - Ertak janrining xususiyatlarini farqlash.
 - Kompozitsiya (tarkibiy tuzilishi).
 - Voqelik bo‘lib o‘tgan joy; (real voqelik yoki uydirma).
 - Ertak voqealarini badiiy ifodalash.

Boshlang‘ich sinfda nazmiy materiallarni o‘rganishning metodik modeli (she’rni o‘rganish)

- She’rning umumiyligi hayajonli qismlarini aniqlash.
- She’rdagi tabiat manzaralarini tasvirlashga doir joylarni topish.
- Qiziqarli obrazlar va aniq bo‘rttirib ko‘rsatilgan joylarni topish.
 - Ta’sirli joylarini alohida ta’kidlovchi ovoz bilan o‘qish.
 - She’rdagi tasvirlangan jarayonni rasmida ifodalash.
 - Shoirning hislari, ichki kechinmalari, kayfiyatini aniqlash.
 - Shoirning hislari, ichki kechinmalari, kayfiyatini va munosabatini ifodalovchi so‘zlarni She’rdan topib o‘qish.
 - She’rning asosiy mazmunini aniqlash.
 - She’rda tasvirlanganlarga o‘quvchining munosabatini aniqlash.
 - She’rdagi aytuvchi shaxsini aniqlash.

O‘qish darslarida adabiy asardagi badiiy obrazlarni tahlil etishga doir savollar

1. Asar qahramoni bilan do‘stlashishni xohlarmidинг?
2. Sen uning o‘rnida bo‘lsang nima qilar eding?
3. Hikoya(yoki ertak) qahramonining hamma ishlarini to‘g‘ri deb o‘ylaysanmi? Nima uchun u shunday qildi?
4. Qahramonni shunday qilishga nima majbur qildi? Boshqacha ham bo‘lishi mumkin edimi?
5. Qahramondagi qaysi sifatlar senga yoqadi, qaysi sifatlar yoki xulqidagi ayrim o‘ziga xosliklar senga yoqmaydi?
6. Uning odamlarga munosabati senga yoqadimi?
7. Qahramonga qanday maslahat bergen bo‘lar eding ?
8. Asardagi voqealar ichida bo‘lishni xohlarmidинг?
9. Asarda bo‘lib o‘tgan voqealarda kim bo‘lib qatnashishni xohlar eding?
10. Shunday vaziyatga tushib qolsang qanday choralar ko‘rar eding (yoki nima qilar eding)?
11. Shunday vaziyatda o‘zingni qanday tutgan bo‘lar eding?
12. Agar hikoya qahramonlari sizning sinflingizda o‘qiganda sinflingiz hayotida qanday o‘zgarish bo‘lishi mumkin edi?

She’riy matn mazmuni bo‘yicha o‘tkaziladigan suhbat savollari

1. She’r matnini o‘qiyotganingda ko‘z oldingda nimalar namoyon bo‘ladi? O‘qiyotganingda nimalarni his qilasan?
2. O‘qiyotganingda musiqa eshitganday bo‘lasanmi?
3. Qanday musiqa eshitganday bo‘lasan (og‘ir, xursand, o‘ynoqi va hokazo)?
4. She’rdagi so‘zlar bog‘lanishining qaysi tomonlari senga ko‘proq yoqadi?
5. She’rning o‘zi qanaqa: g‘amginmi, xushchaqchaqmi, oddiyimi, o‘ylashni talab etadiganmi? To‘qib chiqarilgan hodisami? U qanday kayfiyatda yozilgan?
6. Shoир tabiatning qaysi holatini tasvirlagan? Tasvirlanganlarga uning munosabati qanday?
7. Qaysi she’rlar hislarni qo‘zg‘aydi, diqqatni oshiradi, kishi tabiatiga

notinchlik yoki tinchlanish hissini olib keladi, uyqu keltiradi yoki boshqa holatlarga kiritadi?

8. Shoir tomonidan tasvirlangan tabiat hodisalari insonlarning qanday tuyg'ulariga mos keladi?

9. Ana shu misralarni yozganda shoir ko'nglidan nimalar kechgan deb o'ylaysiz? U qanday holatda bo'lган, nimalarni orzu qilgan?

10. She'rni yozgan muallif sizningcha nima haqida o'ylagan, nimalarni eslab xotirlagan?

11. Siz tabiatning shu holati bilan tanishmisiz? Hayotda unga duch kelganmisiz? Qanday holatda duch kelgansiz?

12. Shu satrlarni yana qachon o'qiy olasiz? Qanday holatda? Qanday vaziyatda? Qanday sharoitlarda sizga bu she'rni do'stingiz yoki kattalar o'qishidan eshitish istagi paydo bo'lar edi?

Badiiy asarni tahlil qilishda foydalilaniladigan ta'sirli leksika

1. Badiiy asarni baholang:

- eng yorqin lahza;
- unitilmas epizod;
- uni o'qib, his qildim;
- meni hayajonga solgan holat.

2. O'z hayratingni ko'rsat:

- meni juda hayratga soldi;
- meni hayajonga soldi;
- ... bunday bo'lganini hech qachon unutmayman.

3. O'z fikringni bayon et:

- mening munosabatim shuki...
- mening nazarimda ...
- eng quvonarlisi shuki ..
- menda hurmat hissi uyg'onishiga sabab ...

4. Mengadek tuyuldi.

Shuningdek, o'qituvchi o'quvchi bilan yakka yoki guruhi bilan ishlashda ish turlari bo'yicha topshiriqlar ko'rsatilgan tavsiyalarini ishlab chiqishi va o'quvchilarga topshiriqlar tartib raqamini ko'rsatishi mumkin.

O‘qish darslarida ish turlari

- O‘qituvchi topshirig‘i bo‘yicha matnni to‘liq o‘qish.
- Matnni bo‘laklarga bo‘lish.
- Tayyor reja bo‘yicha o‘qish.
- Matnni o‘qib, mazmunini hikoya qilish.
- Matnni tayyorgarlik ko‘rgan o‘quvchilar tomonidan o‘qilishi.
- Matnni qisqartirib o‘qish.
- «Zanjirli» o‘qish.
- Xatboshi bo‘yicha o‘qish.
- Yarim ovozda o‘qish.
- Matndan rasmga bag‘ishlangan qismini o‘qish.
- O‘qituvchining savollariga matndan javob topib o‘qish.
- Tanlab o‘qish.
- Matndan eng chiroyli tasvirlangan bo‘lakni o‘qish.
- Gapning boshi yoki oxiridagi so‘z asosida to‘liq gapni topish.
- «Me‘yor»dagidan yuqori tezlikda o‘qish.
- Matndan hikmatli so‘z topishga yordam beradigan qismni topib o‘qing.
- Xatoni tuzatishga yordam beradigan gapni topish.
- Matndagi bosh g‘oyani bildiruvchi gapni topish.
- Ertak yoki masalni o‘qiganda « Nima haqiqatga yaqin, nima o‘ylab topilgan» mavzusida suhbat.
- Diafilmga ssenariy tuzish.
- Maqol sifatida aytildigan gaplarni topish.
- Matndan xulosalarini topish.
- Eshitgandan keyin o‘z fikrlarini aytish.
- «Asardagi nima sizga yoqdi?» mavzusida suhbat.
- O‘qish yo‘li bilan sababli bog‘lanishlarni aniqlash.
- Matnga o‘z sarlavhangizni tanlang.
- Rollarga bo‘lib o‘qish.
- Dialoglarga bo‘lib o‘qish (muallif so‘zlarisiz).
- O‘qiganlarni qayta gapirishda mimika, imo-ishoralaridan foydalanish.
- «Jonli tasvirlar» o‘yini. Bir kishi o‘qiydi, ikkinchi kishi eshitganlarini mimika, imo-ishoralar yordamida takrorlaydi.
- Matndagi har xil kayfiyatga xos qismlarni topish (quvnoq, xafa, befarq).
- Matndagi diqqat bilan o‘qishni talab qiladigan qismni topish.

- Matndan undov, so‘roq xarakteridagi gaplarni topish.
- Musobaqali o‘qish.
- Siymolarni ifodalovchi so‘zlarni topish.
- Urg‘u berilganda so‘zlar ma’nosining o‘zgarishini kuzatish va o‘qish.
- Sekin, tez, baland o‘qiladigan gap va so‘zlarni aniqlash.
- She’rlarni bandlar bo‘yicha o‘qib, pauza bilan tugatish.
- She’rdan bir bandni tanlab, ifodali o‘qish.
- Matndan yoyiq gapli qismni topib o‘qish.
- Hikoyadan quyidagi chizma asosida so‘zlarni ajratish.

ot	sifat	fe'l

- Ko‘rsatilgan qoida bo‘yicha kim tez so‘z topadi.
- Eng uzun gapni top.
- Matndan ikki so‘zli murakkab so‘zlarni top.
- Matndagi bog‘lanishlarni topish: ot+sifat, ot+fe'l, ...
- Tushunilmaydigan so‘zlar ma’nosini aytib o‘qish.
- Matndan og‘zaki portret uchun so‘z va ifodalarni topish.
- Xattaxtaga yozilgan so‘zlar mazmuniga yaqin so‘zlarni topish.
- Iqtibos keltirilgan so‘zlarni o‘qish.
- Insho yozish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan so‘z va gaplarni topish.
- Aralash o‘qish.
- Vaqtini hisobga olib o‘qish.
- Tez aytishni o‘qish.
- Matnni mantiqiy qismlarga bo‘lib ifodali o‘qish va qismlarning biridan ikkinchisiga navbat bilan o‘tish.
- Voqeа yoki hodisani so‘z yordamida tasvirlash.
- Ijodiy qayta hikoya qilish:
 - bosh shaxs nomidan;
 - shaxsni o‘zgartirib;
 - vaqtini o‘zgartirib.
- Hikoyani voqeа-hodisalar sodir bo‘lishidan oldingi bo‘lib o‘tgan voqeа-hodisalarni yoki voqeaneing davomi qanday bo‘lishini qo‘sib aytish.
- Hikoyadan tashqaridagi voqealar tasvirini qo‘sish.

- Matndan iqtiboslar keltirib hikoyani aytish.
- Bosh qahramonni tavsiflovchi savollar: U kim? Tashqi ko‘ri-nishi.
- Topshirilgan ishni bajarishda odamlar bilan munosabati.
- Sizning qahramonga munosabatingiz.
- Reja bilan ishlash: reja ketma-ketligini o‘zgartiring, reja qismlarini to‘g‘rilang, gaplar mazmunini o‘zgartiring.
- Gapdan (xattaxtada yozilgan) to‘g‘ri javob, g‘oya, asar sарlavhasini tanla.
- Maqollni to‘ldir.
- Gapda o‘rganilayotgan predmet harakatiga doir ko‘proq so‘zlarni top(masalan, suv – oqadi, toshadi...).
- Sarlavhaga qarab hikoya mavzusini aniqla.
- Rasmga qarab hikoya tuz.
- Biror bir qahramon nomidan ... mavzusida hikoya tuzish.
- She’rda yashiringan sirni top.

O‘quvchilarda estetik rivojlanish va o‘qish madaniyatini shakllanishida ifodali o‘qish jarayonidagi emotsiyonal idrok katta ahamiyatga ega. Shuningdek, o‘qish texnikasiga ham e’tibor qaratish zarur. Bunday vazifalarni yechishga 4-modulndagi ishlar va quyidagi eslatmalar yordam beradi:

Matnni ifodali o‘qishga tayyorlanish

1. Matnni diqqat bilan o‘qing. Unda nima haqida aytilganini tushunishga harakat qiling.
 2. Mavzuni, asosiy g‘oyani, aytish tonlarini aniqlang.
 3. Matnni nima maqsadda o‘qishingiz va tinglovchilarni nimaga ishontirishingiz haqida o‘ylang.
 4. Gapdagi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan so‘zlar ma’nosini belgilang.
 5. Qayerda pauzalar bo‘lishini belgilang.
 6. Og‘zaki, ifodali nutqning yana qanday usullaridan foydalanishingizni o‘ylang, masalan, nutq tempi, ovoz balandligi yoki pastligi.
- 4-modul bo‘yicha ishlarni yakunlashda o‘quvchilar «Boshlovchilar (suxandonlar)», «Eng yaxshi o‘quvchi», «Artistlar» va boshqa konkurslarda qatnashishga katta xohish bildiradilar.

Xotira, nutq va tafakkurning rivojlanishiga 5-moduldag'i ishlar xizmat qiladi. Bunday ishlarni tartibga solish uchun quyidagi eslatmadan foydalanish maqsadga muvofiq.

Matn rejasini tuzish

1. Matnni o'qing, notanish so'zlar ma'nosini aniqlang.
2. Matn mavzusini va asosiy mazmunini aniqlang.
3. Matnni mazmuniga ko'ra qismlarga bo'ling va har bir qismga sarlavha qo'ying.
4. Rejaning qoralamasini tayyorlang. Uni matn bilan solishtiring. Qarang: rejangizda hamma muhim tomonlar o'z aksini topganmi? Reja punktlari mazmunan bog'langanmi? Rejada mavzu va matnnning asosiy mazmuni o'z aksini topganmi?
5. Matnni qayta hikoyalashda shu rejadan foydalanish mumkinligini tekshiring.
6. Rejani yaxshilab ko'chiring.

Hikoyaning rejasini tuzish

1. Hikoyaning hammasini o'qing. Uning qismlarini belgilang. Boshlanishi va tugashini qalam bilan belgilang. Hikoyani qanday qismlarga bo'ldingiz?
2. Birinchi qismni o'qing, undagi bosh g'oyani qalam bilan belgilang va shu qismga sarlavha qo'ying.
3. Shunday yo'l bilan boshqa qismlarga ham sarlavha qo'yishga harakat qiling. Rejani yozing. O'qing. O'ylang. Reja muhim tomonlarni o'z ichiga olganiga, asosiy tomonlar-qolib ketmaganligiga ishonch hosil qiling.
4. Sarlavha qaytalanmayotganiga ishonch hosil qiling. Sarlavha hikoya mazmunini xotirangizda tiklanishiga yordam beradimi?

Qisqacha qayta hikoyalashni tuzish

1. Hikoya rejasini tuzing. Rejaning birinchi punkti va birinchi qismdan uncha muhim bo'limgan, faqat bosh g'oyani to'ldirishga xizmat qiladigan 2–3 ta gaplarni ajrating. Matnni shu gaplarsiz o'qing.
2. Boshqa qismlar bilan ham xuddi shu ishni takrorlang.

3. Rejaga qarab hikoyani qisqacha hikoya qiling.
4. Hikoyaning asosiy qismini e'tibordan chetda qoldirmasdan yanada qisqaroq aytish imkoniyatlarini qidiring.

Qahramonlar tavsifi

R e j a

1. Qahramon qanday ishlarni amalga oshirdi? Uning ishtirokidagi epi-zodlarni (lavhalarni) o'qing, uning xulqini e'tirof etuvchi lavhalar haqida hikoya qiling.
2. Qahramonning umumiyo ko'rinishi qanaqa? Matndan uning tashqi ko'rinishi haqidagi qismni topib, o'z fikrlaringiz bilan to'ldiring.
3. Qahramon qanday so'zlashadi (gaplashadi)? Matndan uning mulo-hazalarini topib o'qing, muallifning personaj bayoniga bergan ta'rifi.
4. Muallifning qahramonga bo'lgan munosabati? Mualliflik bahosi berilgan qismlarni toping va o'qing.
5. Sizning qahramonga munosabatingiz?

Ijodiy daftarlarda ish turlari

1. «Me'yordan yuqori» o'qishni o'rganish.
2. Voqeа sodir bo'lgan joyga ta'rif bering. Ilyustratsiyada tasvirlang.
3. Agar siz muallif bo'lganingizda hikoyani qanday o'zgartirgan bo'lardingiz?
4. Reklama o'ylab toping.
5. Matnni qismlarga bo'ling. Reja tuzing.
6. Qisqacha qayta bayon tayyorlash.
7. Matndan obrazli taqqoslash qismlarini toping.
8. Diafilm tuzish.
9. O'qilgan matnga savol qo'yish.
10. Rollarga bo'lib o'qishga tayyorlash.
11. O'qilganlarga nisbatan maqol, topishmoq tanlash.
12. Masalan «Kuz», «Qish» mavzusiga oid insho yozish mumkin bo'lgan so'z va gaplarni alohida yozib oling.
13. Matning asosiy g'oyasini ifodalaydigan gap yoki bo'lakni toping.

14. Kelgusi o‘qish darsida o‘rganish uchun badiiy matn tayyorlash.

15. O‘qigan hikoyangizdan sizga yoqqan joyni yoddan ayting.

16. O‘qilgan matndan obrazlar ifodalangan gaplarni toping.

17. O‘qigan matningizga illyustratsiya chizing.

6-modul o‘quvchilar bilimini hisobga olish va tekshirishning zamonaviy shakli bo‘lgan matnlardan keng foydalanish, o‘quvchi rivojlanishini hisobga olib, aniq maqsad asosida har xil modullar bilan guruhda ishslash kabilarni o‘z ichiga oladi.

Modulli o‘qish o‘qituvchiga o‘quvchilarning individual va jamaa faoliyatini imkoniyatga qarab qo‘llash, topshiriqlarning turiga va maqsadiga qarab o‘zgartirib turish kabi imkoniyatlarni bera-di. Bu esa birgalikda ishslash, hamkorlik muhitini yaratadi, har bir o‘quvchining darsdagi vazifalarni bajarishga o‘z hissasini qo‘sish mas’uliyatini rivojlantiradi.

Bunday ish turining afzalligi shundaki, o‘qituvchi darsga tayyorlanishda aniq maqsadga ega bo‘ladi va ishi ancha yengillashadi. O‘qituvchining roli shundaki o‘quvchilarda mustaqil ishslash malakalarini shakllantirishi lozim. Buning uchun:

- o‘z-o‘zini tahlil qilishga, o‘z maqsadini aniq bilishga,
- o‘z ishini rejalashtirish, o‘z ishini tashkil etish,
- o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarishga o‘rgatish zarur.

Ko‘rsatilgan modul algoritmidan foydalanishda o‘qituvchi ijodiy yondoshishi, ta’limning ma’lum bir etapida bu moduldan foydalanish samaradorligini hisobga olib ish turini o‘zgartirishi yoki tanlashi lozim.

ANIQ MODULLAR ASOSIDA TAYYORLANGAN O‘QISH DARSINING ISHLANMASI

(1 - s i n f)

Mavzu: O‘zbek xalq ertagi «Rostgo‘y bola».

Maqsad: To‘g‘ri, tez va ifodali o‘qish malakalarini takomil lashtirish.

Matn ustida ishslash, tahlil qilish ko‘nikmasini mutahkamlash, o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish.

O‘quvchilar shaxsida to‘g‘riso‘zlik, rostgo‘ylik kabi ijobjiy sifat-larni tarbiyalash.

Darsning borishi:

Darsning shiori: Biz nimaiki qilmaylik,
Barchasi zarur, kerak.
Bilim egallash uchun
Tinimsiz o‘qish kerak.

1-m o d u l.

Uy vazifasini tekshirish.

«Maymun va duradgor» haqidagi ertak. Xattaxta oldiga ikki o‘quvchi chaqiriladi va ular galma galdan ertakni o‘qib, mazmunini so‘zlaydilar. Duradgor kim? U nima ish qiladi? degan savol beriladi va o‘quvchilarning javoblari to‘ldiriladi.

2-m o d u l.

Quvnoq daqiqa.

O‘qituvchi: Yaxshi o‘qish uchun, yaxshi nafas olish kerak.

1) Nafas olishga oid mashqlar:

- «Choyni sovit».
- «Gulni hidla».
- «Sharni shishir».
- «Changni hayda».

2) Ovoz mashqi: tovush mashqi: a, o, u, e, i, o‘.

– Quyidagi She’rni eshitib bugun qanday mavzu bilan tанишшимизни билиб оларсиз. Yaxshilab e’tibor qiling:

To‘g‘riso‘z bola. H. H. Niyoziy.

(Qisqartirilgani)

Kelmog‘ida maktabidan bir o‘g‘il,
To‘xta debon ikki kishi to‘sdi yo‘l.
Dedi biri:» Tanga berurman sanga
So‘zla bir og‘izgina yolg‘on manga».
Berdi o‘g‘il fikr ila shirin javob:
«So‘zlang ako, qomatingizga qarab.
Bu so‘zingiz aslida yolg‘on erur
Tangaga yolg‘onni kim olg‘on erur».
Quyidagi skanerga qarab bugungi o‘rganadigan mavzumiz nomini va unga doir so‘zlarni toping.

<i>b</i>	<i>r</i>	<i>o</i>	<i>s</i>	<i>t</i>	<i>g</i>	<i>o'</i>	<i>y</i>	<i>b</i>	<i>r</i>
<i>o</i>	<i>o</i>	<i>b</i>	<i>o</i>	<i>l</i>	<i>a</i>	<i>ya</i>	<i>o'</i>	<i>o</i>	<i>o</i>
<i>l</i>	<i>s</i>	<i>yo</i>	<i>l</i>	<i>g'</i>	<i>o</i>	<i>h</i>	<i>r</i>	<i>l</i>	<i>s</i>
<i>a</i>	<i>t</i>	<i>a</i>	<i>n</i>	<i>g</i>	<i>a</i>	<i>k</i>	<i>k</i>	<i>a</i>	<i>t</i>
<i>r</i>	<i>g</i>	<i>κ</i>	<i>i</i>	<i>sh</i>	<i>i</i>	<i>a</i>	<i>k</i>	<i>o</i>	<i>g</i>
<i>o</i>	<i>o'</i>	<i>m</i>	<i>a</i>	<i>κ</i>	<i>t</i>	<i>a</i>	<i>b</i>	<i>yu</i>	<i>o'</i>
<i>s</i>	<i>y</i>	<i>s</i>	<i>o'</i>	<i>z</i>	<i>i</i>	<i>ng</i>	<i>i</i>	<i>z</i>	<i>y</i>
<i>t</i>	<i>o</i>	<i>g'</i>	<i>i</i>	<i>z</i>	<i>ε</i>	<i>i</i>	<i>n</i>	<i>a</i>	<i>a</i>
<i>g</i>	<i>l</i>	<i>a</i>	<i>r</i>	<i>o</i>	<i>s</i>	<i>t</i>	<i>g</i>	<i>o'</i>	<i>y</i>
<i>o'</i>	<i>y</i>	<i>s</i>	<i>a</i>	<i>h</i>	<i>g</i>	<i>a</i>	<i>k</i>	<i>i</i>	<i>m</i>

– rostgo‘y (5 ta), bola (3 ta), yolg‘on, tanga, kishi, ako, maktab, so‘zingiz, og‘izgina, sanga, kim.

3-m o d u l.

Skanerdag'i so‘zlarni qatnashtirib gaplar tuzing: Bir og‘izgina yolg‘on, rostgo‘y bola, yolg‘onchi kishi sanga tanga berurman, dedi va b. – Kim shu so‘zlar vositasida ertak tuzib beradi. Bolalar o‘zlaricha tuzgan ertaklarini so‘zlab beradilar.

Bugungi o‘tagidan ertagimiz nomini topdingizmi? Bolalar aytadilar (Yoki o‘qituvchi ertak nomini o‘zi aytadi: «Rostgo‘y bola»). Kelinglar endi ertakni eshitib ko‘ramiz. Unda ba’zi notanish so‘zlarga duch kelasizlar. Ularning mazmunini sizlarga tushuntiram: (xattaxtaga oldindan yozib qo‘yilgan bo‘lishi ham mumkin)

Podshoh – yurtni boshqaruvchi kishi.

Vazir – podshohning yordamchisi.

Tadbir – o‘ylab qilingan ish.

Xomush – xafa.

4-m o d u l.

Ertakni o‘qituvchi tomonidan o‘qish, ma’lum bir qismini o‘quvchilar davom ettirishi mumkin.

– Siz yolg‘on gapirgan bolalarmi hayotda uchratganmisiz? (O‘quvchilar javoblari eshitiladi). Rost gapirishning ahamiyatini bilasizmi? O‘qituvchi rost gapirishning ahamiyati haqida o‘quvchilarining yoshiga mos tushuncha beradi va xalq maqollaridan aytadi (Masalan, «Boshingga qilich kelsa-da, rost gapir»... qolganini o‘quvchilar davom ettiradilar).

5 -m o d u l .

Mustaqil o‘qish.

Usul: o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birga ovoz chiqarib o‘qiy boshlaydi (o‘quvchilar faqat ko‘z bilan o‘qiyidir), o‘qituvchi jim bo‘lib, o‘qishni ichida davom ettiradi, o‘quvchilar esa ovoz chiqarib o‘qiydilar, keyin yana o‘qituvchi ovoz chiqarib o‘qiydi, o‘quvchilar ko‘z bilan o‘qiydilar va shunday o‘qish ertak oxirigacha davom etadi

O‘qish oldidan topshiriq: xattaxtada yozilgan so‘zlarni ertakda berilganday izchillikda, so‘zlar qo‘shib yozing:

- qadimda,
- podshoh bo‘lgan,
- xomush bo‘lib yurgan,
- vazirning maslahati,
- gul urug‘i,
- farzand qilib olmoqchi,
- vaqt o‘tibdi,
- shahar aylanibdi,
- gullarni ko‘rib o‘taveribdi,
- ko‘zi tushibdi,
- gullar qani?
- qaynattirgan.

6-m o d u l .

Matnni tahlil qilish uchun savollar:

- Ertak qahramonlari kimlar?
- Quyidagi so‘zlar kim haqida yozilgan: xomush, farzandi yo‘q, gul urug‘i tarqattiribdi (podshoh).
- Yaxshi farzand topish yo‘lini ertak qahramonlaridan kim maslahat beribdi? (vazir)
- Qanday yo‘l bilan rostgo‘y, aqli bola tanlandi?

- Keyin nima bo‘ldi?
 - Podshoh gul urug‘ini nima qilgan ekan?
 - Quyidagi hikmatli so‘zlardan qaysi biri ertak mazmunini to‘ldiradi?
1. Boshingga qilich kelsa ham, rost gapir.
 2. Yolg‘onning umri qisqa.
 3. Boshingga nima kelsa, tilingdan kelur.
 4. To‘g‘rilik baxt keltirar.
- (To‘g‘ri gapirgani uchun bola podshohga farzand bo‘ldi).

Markazlarda ishslash.

Sinf jamoasi 5–7 kishidan tahlilchilar, o‘quvchilar, tilshunoslar, tadqqiqotchilar (boshqalar ham bo‘lishi mumkin) kabi guruhlarga bo‘linib markazlarda ishlaydilar.

O‘qish markazi: «Kitoblar olami».

1-guruh – o‘quvchilar.

Topshiriq: Ertakdagagi ko‘rsatilgan qismni o‘qib, uni tiklash (Ertak kserokopiya qilinib, 7 qismga bo‘linadi. Har bir qismi kamalakning bir rangiga mos keladigan rangdagi qog‘ozlarga yopishtiriladi. O‘quvchilar bo‘lingan matnni tiklab, to‘liq javobni va kamalak rangini hosil qiladilar).

2-guruh – tahlilchchilar.

Topshiriq: Ijodiy daftarda ishslash (matnga savollar qo‘yish)

Yozuv markazi: «ijodiy ish».

Har bir o‘quvchining daftarida qahramonlar xislatlariga tegishli so‘zlar yozilgan: farzandi yo‘q, xomush, ko‘p bolalarni ko‘rdi, gulsiz tuvak ushlab o‘tirgan bolakay.

Topshiriq: Qahramonlarga taalluqli xislatlarni o‘qib, kimga tegishliligini ayting. Ertak qahramonlaridan kimga tegishli gap yo‘qligini aniqlang (vazirga tegishli gap yo‘q). O‘zingiz tanlang.

Ilmiy-tadqqiqot markazi.

Topshiriq: Ertakdagagi qahramonlarga doir sifatlarni yozish va ularga taalluqli sifatlarni qahramon nomi bilan birga yozing.

Natijada quyidagi jadval hosil bo‘ladi:

Xomush podshoh .

Aqli vazir.

Rostgo‘y bola.
Yolg‘onchi bolalar.

Taqdimot:

Har bir markazdan bir bola chiqib, o‘z ishlarining yakuni haqida so‘zlaydilar.

O‘qituvchi: Qarang xattaxtamizda
Hosil bo‘ldi kamalak.
Quvonchimiz cheksizdir
Yorgin birning kelajak!

Uyga vazifa.

Har bir guruhgaga tegishli vazifalar alohida-alohida aytildi.
(bular ijodiy daftarda ishslash, diafilmlar tuzish, matndan bosh g‘oyalarni ajratib yozish, ertakdan olgan taassurotlari asosida rasm chizish va h.)

Darsni xulosalash.

– Bu darsdan qanday yangilik o‘rgandingiz? Sizga nima yoqdi?
Nima sizga yoqmadи? Siz qanday bo‘lishini xohlar edingiz?

INTERNET ORQALI TA’LIM VA UNING IMKONIYATLARI

Internet ta’lim sohasida katta imkoniyatlarga ega. Internet orqali barcha savollarga javob topish mumkin. Bundan tashqari veb-saytlarni ko‘rish va yaratishdan tortib uning dasturlarigacha tekindir. Elektron biznesning va internet orqali biznesning imkoniyatlari cheksizdir. Bunday aloqalar orqali biznesning imkoniyatlari juda katta tezlik bilan o‘sib bormoqda va bunday biznes dunyoning eng katta va tez rivojlanib borayotgan industriyalarining biriga aylanib bormoqda.

Internet bilan ishslash imkoniyatiga ega talabalar o‘zlarining bilmlari hajmi va yozuv malakalarini taraqqiy ettiradilar va yaxshilaydilar. Shuningdek, talabalarda istalgan tilda o‘qish va fikrlash malakalari o‘sadi. Bundan tashqari bugungi kunda kompyuter savodxonligi butun dunyodagi kompaniyalarning talabiga aylanib qolmoqda.

Mustaqillik yo'lidan rivojlanib borayotgan O'zbekstonning kelajak vorislarini bu muhim malakalarga ega bo'lishi bugungi kunning talabidir.

Quyida internet orqali axborot olish uchun misollar keltiriladi.

Internetga qanday kirish mumkin va kerakli axborot qanday qidirib topiladi?

Internetdan qidirishning 3 xil yo'li bor:

1. Matematik qidiruv.
2. Lug'atli qidiruv.
3. Tekin qidiruv dasturilaridan foydalanish.

Eng muhimi kompetentli qidirish zarurligi. Internetda axborot xizmatlari to'lib ketgan, agar siz uni qidirishni bilmasangiz hammasi bekor, kerakli axborotlarni yig'a olmaysiz. Qidirish malakasi esa vaqtini tejaydi. Bir vaqtning o'zida juda ko'p axborotlardan xabardor bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Quyida qidirishning matematik simvollaridan va maxsus so'zlar «Boolean» so'zi (ya'ni, «va», «ham», «yo'q», «*») dan qanday foydalanish ko'rsatiladi.

Qidirishga tushishdan oldin quyidagi umumiylar qoidalarga rioya qilishni unutmang.

Agar qidirishda aniqlik bo'lsa qidirayotgan materialingizni tez va to'g'ri topasiz. Masalan, Toshkentdagi o'zbek musiqalarini topoqchi bo'lsangiz, avvalo «Toshkentdagi o'zbek musiqasi» deb qidirishingiz kerak. Lekin «O'zbek musiqasi» yoki «Toshkent musiqasi» deb qidirsangiz istaganingizni topa olmaysiz. Agar qidirib topa olmasangiz, unda kichikroq parametrni tanlang.

Internetga kirish va qidirish oson. Qidiruv malakalariga ega bo'lganlarga internet cheksiz axborot va texnik servizning boyligiga aylanadi.

Matematik qidiruv

– «+» barcha ko'rsatilgan so'zlarni o'z ichiga olgan sahifalarni topadi.

Masalan, Sizga Setora, Toshkent va kontsert to'g'risidagi axborotlar zarur. Uni internetdan topish uchun diolog oynasiga

setora + tashkent + concert.

deb yozasiz. Mana shu so‘zlarni o‘z ichiga olgan sahifa ekranda namoyon bo‘ladi.

«» shu simvoldan keyingi so‘zlarni o‘z ichiga olgan sahifalarni namoyon qilmaydi.

setora + concert – bukara – nukus.

Bunday holda *setora* va *concert* haqidagi axborotlarni o‘z ichiga olgan axborot chiqadi, lekin Buxoro, Nukus haqidagilar bo‘lmaydi.

Lug‘atli qidiruv

Bu oddiy bo‘lib, so‘zlar vositasida qidiruv degani.

and + simvolga ekvivalent.

Or – qidirilayotgan sahifada har qaysi berilayotgan so‘z bo‘lishi mumkin (yuqorida aytganimiz setora yoki concert) not «» simvoliga ekvivalent.

Qo‘shtirnoq yordamida frazali qidirish

Agar aniq frazalarni qidirmoqchi bo‘lsangiz qo‘shtirnoqdan foydalaning «Setora’s big consert» (yoki «?» simvollar so‘zlarni qisqartirish zarur bo‘lganda shu frazadagi 3 tadan kam bo‘limgan tasnifni ishlatib qidiriladi.

(alohiba tasnif uchun «?» ko‘pgina tasnif zarur bo‘lganda ishlatiladi. Qidiruv bitta simvoldan ko‘p qo‘yilmasdan amalga oshiriladi. Masalan:

Wom (n,

Comput?,

Theat (.

Qisqartmalardan quyidagicha foydalanish mumkin:

av – avtor

ti – titul, nomi

su – predmet

pu – publikatsiya qiluvchi

nt – matn so‘zlari

se – titul seriyasi

ut – umumiy titul

Masalan: an diskens ti «painted house».

Predmet nomi, mavzusi, muallif nomi va boshqalarni to‘liq yozish shart emas. Uni qisqatirilgan variantini qidirishingiz mumkin.

Masalan: *librar* so‘zi orqali librarian, librarians, librarianship, libraries, library va shunga o‘xhashlarni topish mumkin.

Punktuatsiya belgilarini qo‘yish ixtiyoriy:

Smith ann = smith, ann

don’t = dont

MUSTAQIL ISHLASH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: 1998.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998.
4. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003.
5. Barkamol avlod orzusi. – T.: O‘zbekiston. 2000.
6. Beruniy. Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: 1968.
7. Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 1989.
8. Bob Kizlik. Lesson Planning, Lesson Plan Formats and Lesson Plan Ideas.. www.ADPRIMA.com
9. Бугатов В.М. Педагогические таинства дидактических игр. Учеб.-методическое пособие. 2-е изд. – М.: Флинта, 2003. – 152 с.
10. Громкова М.Т Педагогика образования взрослых (учебное пособие) – М.: ТОО. Интл.Тех. 1995 г.
11. Ziyomuhamedov B. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent, 2009.
12. Зиямухаммедова С., Зиямухаммедов Б. Новая педагогическая технология. – Т.: Абу Али ибн Сино, 2002.
13. Ziyomuhamedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya. Zamonaviy o‘zbek milliy modeli. Toshkent, «Lider Press», 2009-y.
14. Isoqov I., U Ro‘ziboeva. Ma’ruza mashg‘ulotlarida ilg‘or pedagogik texnologiyalar. // J.Xalq ta’limi. 2002. № 3.
15. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim sa-maradorligini oshirish yo‘llari. – Toshkent, 2004-y.

16. Yo'ldoshev J.G'. «Ta'lism yangilanish yo'lida». – T.: O'qituvchi. 2000.
17. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaliv pedagogik texnologiyalarini amaliyotga joriy etish. Toshkent, 2008-y.
18. Yo'ldoshev J. Yangi pedagogik texnologiya yo'nalishlari, muammolar, yechimlari // J. Xalq ta'limi. 1999. № 4.
19. Karimova V.M. Psixologiya. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002.
20. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. – М.: Знание. 1989.
21. Mahmudov M.H. Ta'limni didaktik loyihalash prinsiplari. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.
22. Мила Новик. Современные технологии в образовании (продолжение) // Новые знания. 1999.
23. Nishonalev U. Ta'lim standarti va pedagogik innovatsiyalar. // Xalq ta'limi. 1999. № 6. 28-31 b.
24. Околелов О.П. Дистанционное обучение: сущность, дидактические особенности, технологии. <http://www.lipetsk.ru/legi>
25. Ochilov M.O. Muallim qalb me'mori. – T.: O'qituvchi, 2001.
26. Платов В.Я. Деловые игры: разработка, организация, проведение. – М.: 1991.
27. Полат Е.С. Дистанционное образование: организационный и педагогический аспект // Информатика и образование. 1996. 1 з.
28. Pedagogik texnologiya: Zamonaliv ilmiy-nazariy asosi. Mualliflar guruh. Toshkent, 2008.
29. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: O'z MU. 2003.
30. Saidahmedov N.S., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaliv loyihasi. – T.: XTV RTM, 1999.
31. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarini qo'llash texnologiyalar. Toshkent: 2000-y.
32. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T., «Moliya», 2003.
33. Saidaxmedov N. «Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati». «Xalq ta'limi» jurnali. 1999.
34. Ta'lim texnologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1999.

35. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar. Il-miy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: 1999.
36. Tolipova J, Numonova N. Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiya // «Xalq ta'limi» journali, 3-son.
37. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'zRFA «Fan» nashr., 2000.
38. Юдин В.В. Педагогическая технология. Учеб. Пособие. Часть II. – Ярославль: 1997.
39. G'afforova T. va boshqalar. Ta'limning ilg'or texnologiyalari. – Qarshi: «Nasaf», 2003.

NAZORAT TESTLARI

1. Pedagogik texnologiyaning rivojlanishini nechta bosqichga bo‘lish mumkin?

- A. 2 bosqichga.
- B. 3 bosqichga.
- C. 4 bosqichga.
- D. 5 bosqichga.
- E. 6 bosqichga.

2. Pedagogik texnologiya rivojlanishining birinchi bosqichi nechanchi yillarga to‘g‘ri keladi?

- A. 20–30-yillar.
- B. 30–40-yillar.
- C. 40–50 yillar.
- D. 50–60-yillar.
- E. 60–70-yillar.

3. Pedagogik texnologiyaning rivojlanishining ikkinchi bosqichi nechanchi yillarga to‘g‘ri keladi?

- A. 30–40-yillar.
- B. 40–50-yillar.
- C. 50–60-yillar.
- D. 60–70-yillar.
- E. 70–80-yillar.

4. Pedagogik texnologiya rivojlanishining uchinchi bosqichi nechanchi yillarga to‘g‘ri keladi?

- A. 30–40-yillar.
- B. 40–50-yillar.
- C. 50–60-yillar.
- D. 60–70-yillar.
- E. 70–80-yillar.

5. Pedagogik texnologiya rivojlanishining to‘rtinchi bosqichi nechanchi yillarga to‘g‘ri keladi?

- A. 30–40-yillar.
- B. 40–50-yillar.
- C. 50–60-yillar.
- D. 60–70-yillar.
- E. 70–80-yillardan hozirgacha.

6. Pedagogik texnologiya dunyoning rivojlangan mamlakatlariada nechanchi yillardan boshlab qo‘llanila boshladi?

- A. Amerika Qo‘shma Shtatlarida 60-yillarda, boshqa rivojlangan mamlakatlarda 70–80-yillarda.
- B. Amerika Qo‘shma Shtatlarida 70-yillarda, boshqa rivojlangan mamlakatlarda 75–80-yillarda.
- C. Amerika Qo‘shma Shtatlarida 50-yillarda, boshqa rivojlangan mamlakatlarda 50–60 yillarda.
- D. Amerika Qo‘shma Shtatlarida 70-yillarda, boshqa rivojlangan mamlakatlarda 70–80-yillarda.
- E. Amerika Qo‘shma Shtatlarida 80-yillarda, boshqa rivojlangan mamlakatlarda 80–90-yillarda.

7. Pedagogik texnologiya haqidagi YUNESKO ta’rifini aniqlang.

- A. Ta’lim texnologiyasi – ta’lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda, butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini aniqlash, yaratish va qo‘llash tizimidir.
- B. Pedagogik texnologiya – tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta’lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o‘zaro ta’sirini inobatga olib, ta’lim maqsadlarini oydinlashtirib, o‘qitish va bilim o‘zlashtirish jarayonlarda qo‘llaniladigan usul va metodlar majmuidir.
- C. Pedagogik texnologiya bu o‘qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni.
- D. Ta’lim texnologiyasi – oldindan belgilangan o‘quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan, ta’lim jarayonida inson va texnika re-

- susrlaridan foydalanishning loyihalashtirilgan muayyan tizimi.
- E. Har qanday faoliyat yoki texnologiya, yoki san'at bo'lishi mumkin. San'at ichki sezgi (intuitsiya)ga, texnologiya esa fanga asoslanadi. Hammasi san'atdan boshlanadi va texnologiya bilan tugaydi va yana qaytadan boshlanadi.

8. «*Maqsad gapni cho'zish emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik, chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan-fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmasdan boshqasi boshlanadi va u kishi har bir narsada o'ziga yarasha lazzat bor deyilganidek ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi.*»

Bu kimning fikrlari qaysi asarida yozgan?

- A. Abdulla Avloniy fikrlari, «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida.
- B. Alisher Navoiyning fikrlari, «Mahbub ul-qulub» asarida.
- C. Abu Rayhon Beruniyning fikrlari, «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida.
- D. Abu Ali ibn Sinoning fikrlari, «Donishnama» asarida.
- E. Abu Nasr Forobiyning fikrlari, «Fozil odamlar shahri» asarida.

9. V.P. Bespalko pedagogik tizimning nechta tarkibiy komponentini ko'rsatadi?

- A. 3 ta.
B. 4 ta.
C. 5 ta.
D. 6 ta.
E. 7 ta.

10. V.P. Bespalko ko'rsatgan pedagogik tizimning tarkibiy komponentlarini aniqlang.

- A. O'quvchi, ta'lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, didaktik jarayon, o'qituvchi yoki texnik vositalar, ta'lim tarbiyaning tashkiliy shakllari.
- B. Didaktik jarayon, o'quvchi, ta'lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, o'qituvchi yoki texnik vositalar, ta'lim tarbiyaning metodlari.
- C. O'quvchi, ta'limning maqsadi, mazmuni, tarbiya jarayoni, o'qituvchi, ta'lim-tarbiyaning usullari.

- D. O‘qituvchi, ta’lim-tarbiyaning maqsadi, didaktik jarayon, o‘quvchi yoki texnik vositalar, ta’lim tarbiyaning tashkiliy shakkllari.
- E. Hamma javoblar to‘g‘ri.

11. Pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatlari, belgilarini aniqlang.

- A. Ta’lim jarayonini oldindan loyihalash va sinfda o‘quvchilar bilan qayta ishlab chiqish, tizimli yondashuv asosida o‘quvchining o‘qish-bilish faoliyatini tasvirlaydigan ta’lim jarayoni loyihasini tuzish.
- B. Ta’lim maqsadi real, aniq diagnostik bo‘lishi va o‘quvchining bilim o‘zlashtirish sifatini obyektiv baholash.
- C. Ta’lim jarayonining tuzilishi va mazmuning yaxlitligi, o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sirda bo‘lishi, ta’lim shakllarini optimallashtirish, qulaylashtirish.
- D. Ta’lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining o‘zaro ta’sirini hisobga olish.
- E. Hamma javoblar to‘g‘ri.

12. Pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatlari, belgilarini aniqlang.

- A. Ta’lim maqsadlarini ko‘zlangan etalon asosida o‘quvchilarning kuzatiladigan, o‘lchanadigan harakatlari shaklida juda oydinlashtirish.
- B. Talabaning faolligiga tayanib o‘qitish, bilim o‘zlashtirish jarayonda yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlab, tuzatib borish.
- C. Shakllantiruvchi va jamlovchi baholar, belgilangan mezonlarga binoan test vazifalarini bajarish.
- D. Ta’limning rejalashtirilgan natijasiga erishishning kafolatganligi.
Ta’lim samaradorligining yuqoriligi.
- E. Hamma javoblar to‘g‘ri.

13. Didaktik jarayon komponentlarini aniqlang.

- A. Ta’lim jarayoni, tarbiya jarayoni, uni tashkil etish
- B. O‘qituvchi faoliyati va o‘quvchi faoliyati.
- C. Motivlar, o‘quvchining o‘quv-biluv jarayoni, boshqarish.
- D. Bilimlarni o‘rgatish va o‘zlashtirish jarayoni.
- E. 1- va 2- javoblar to‘g‘ri.

14. Boshlang‘ich sinfda motiv hosil qilishda ko‘proq qaysi ish turi samarali bo‘ladi?

- A. Ta’lim metodlari.
- B. Didaktik o‘yinlar.
- C. Ko‘rgazmali vositalalar.
- D. O‘qituvchi mahorati.
- E. Hamma javoblar to‘g‘ri.

15. Ta’lim texnologiyasiga asoslangan darsni tashkil etishda qanday tayyorlarlik ko‘riladi?

- A. Darsning maqsadi aniqlanadi.
- B. Darsning loyihasi (texnologik xaritasi) tayyorlanadi.
- C. Darsning algoritmi ishlab chiqiladi.
- D. A va B javoblar to‘g‘ri.
- E. A,B va C javoblar to‘g‘ri.

16. Quyidagi jadval qanday nomlanadi va u nimani bildiradi?

v	+	?

- A. Matematik jadvaj bo‘lib, v – jadvalning maqsadi, + – bugungi o‘rganilgan ma’lumot, ? – jami o‘rganilgan ma’lumotlarning hisobi bini bildiradi.
- B. Insert jadvali bo‘lib, v – bilgan ma’lumot, + – yangi ma’lumot, ? – qo‘srimca ma’lumotga muhtoj fikrlarni bildiradi.
- C. Texnologik jadvaj bo‘lib, v – dars maqsadi, + – darsda o‘rganiladigan ma’lumot, ? – erishilgan natijani bildiradi.
- D. A va B javob to‘g‘ri.
- E. Hamma javoblar to‘g‘ri.

17. Pedagogik texnologyaning qanday darajalari mavjud?

- A. Umumpedagogik, umumididaktik daraja.
- B. Xususiy metodik daraja.
- C. Lokal yoki modilli daraja.
- D. A va C javoblar to‘g‘ri.
- E. A,B,C javoblar to‘g‘ri.

18. Pedagogik jarayon aspektlarini ko'rsating.

- A. Nazariya, harakatli jarayon, amaliy jarayon.
- B. Texnologiya, loyiha tayyorlash, algoritm.
- C. Kompyuter, internet, videoaloqa.
- D. Texnologik xarita, nazariya.
- E. Hamma javoblar to'g'ri.

19. Pedagogik texnologiya tarkibiga nimalar kiradi?

- A. Ta'larning mazmuni, maqsadi, konseptual asos.
- B. Ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quvchilarning o'quv faoliyati shakllari va metodlari.
- C. O'qituvchi ishining metod va shakllari, ta'lim jarayoni diagnostikasi.
- D. O'quv materialini o'zlashtirish sohasidagi o'qituvchining bosqaruv faoliyati.
- E. Hamma javoblar to'g'ri.

20. Pedagogik texnologiya mezonlarini belgilang.

- A. Konseptuallik, tizimlilik.
- B. Samaradorlik qo'llanuvchanlik.
- C. Rejalilik, tizimlilik.
- D. Ilmiylik, izchillik.
- E. A va B javoblar to'g'ri.

21. O'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayonining tarkibibini belgilang.

- A. Bilim egallah, ko'nikma va malakaning shakllanishi.
- B. Idrok etish, anglash, mustahkamlash, o'rganganlarni amaliyotda qo'llash.
- C. Anglash, bilimlarni egallah va amaliyotga qo'llash.
- D. Bilimlarni mustahkamlash, anglash, idrok etish.
- E. Amaliy ko'nikma va malakalarni egallah.

22. Shaxsga ta'sir etuvchi omillarni aytинг.

- A. Biologik omil, makro omil, mezo omil, mikro omil.
- B. Irsiyat, ta'lim-tarbiya, biologik omil.
- C. Ta'lim, tarbiya, shaxsiy ta'sir.

- D. Bilim manbalari, muhit.
- E. Tarbiya, shaxsiy ta'sir, ijtimoiy muhit.

23. Pedagogik texnologiyaning shaxsga yo'naltiruvchi kommunikativ asosini aniqlang.

- A. Ta'lim maqsadiga qarash kabi, shaxsga yangicha qarash.
- B. Pedagogik munosabatlarnung insonparvarligi va demokratligi.
- C. Natija bermaydigan majburiy uslubdan voz kechish.
- D. A, B va C javoblar to'g'ri.
- E. Hamma javoblat to'g'ri.

24. Shaxsga yangicha qarash pozitsiyalarini aniqlang.

- A. Shaxs sifatida shakllanish erta yoshdan boshlanadi. Maktabdan bolani to'la shakllangan shaxs sifatida yetishtirish lozim.
- B. Pedagogik jarayonda shaxs obyekt emas, subyekt sifatida e'tirof etiladi.
- C. Shaxs – ta'lim tizimining maqsadi.
- D. Har bir bolada o'ziga xos qobiliyat mavjud, ko'p bolalar iqtidori bo'lishadi.
- E. Hamma javoblar to'g'ri.

25. Bolalarga insonparvar ezgu yondashosh deganda nimalar tushuniladi?

- A. Pedagogik muhabbat, bola kamchiliklariga bardoshlilik.
- B. Bolaga kelajakka ishonch bilan qarash hissini shakllantirish.
- C. Hamkorlik, mahoratli muloqot.
- D. Ilmiy omillarning ustuvorligi.
- F. Hamma javoblar to'g'ri.

26. Munosabatlar demokratizatsiyasini qanday tushunasiz?

- A. O'qituvchi va o'quvchi huquqi tenglik darajasi.
- B. Bolaning erkin tanlash huquqi, xato qilish huquqi.
- C. Shaxsiy nuqtai nazar huquqi, bolalar huquqi konvensiyasiga rioya qilish.
- D. O'qituvchi va o'quvchi munosabatlari usuli.
- E. Hamma javoblar to'g'ri.

27. Erkin ta'lim nima?

- A. Ishonchga asoslangan erkin talabchanlik.
- B. Darsning mazmunli o'tilishi natijasida vujudga kelgan qiziqish.
- C. Majburiy ta'limni muvaffaqiyat keltiruvchi ixtiyoriy ta'lim bilan almashtirish.
- D. Bolalar iqtidoriga ishonch bildirish, ikkilamchi talablarni jamoa orqali qo'llash.
- E. Hamma javoblar to'g'ri.

28. O'quvchiga yangicha individual yondashuv qanday bo'ladi?

- A. O'rtacha o'quvchi moslashuvidan voz kechish.
- B. Shaxsning eng yaxshi sifatlarini izlash, shaxsga psixologik-pedagogik tashxis qo'llash.
- C. O'quv-tarbiyaviy jarayonda shaxs xususiyatlarini hisobotini olib borish.
- D. Shaxs rivojlanishining tahlili, mustaqil rivojlanish dasturini shakllantirish, uning korreksiyasi.
- E. Hamma javoblar to'g'ri.

29. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda pedagogik jarayon qanday tashkil etiladi?

- A. Pedagogik jarayon shaxsda belgilangan sifatlarning shakllanishiga qaratilgan.
- B. Pedagogik jarayon texnologik yondashuv asosida tashkil etiladi.
- C. Pedagogik jarayonda interaktiv metodlardan mohirona foydalanildi.
- D. Pedagogik jarayon aniq va kafolatlangan maqsad asosida tashkil etiladi.
- E. Pedagogik jarayonning loyihasi ishlab chiqiladi va shunga asosan tashkil etiladi.

30. Pedagogik jarayonning asosiy vazifalarini belgilang.

- A. O'quvch shaxsini shakllantirish.
- B. Ta'lim beruvchi, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi.
- C. Darsni tashkil etish, tarbiyaviy tadbirlar.

- D. O‘quvchilar jamoasini tashkil etish.
- E. Bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

31. Pedagogik jarayonning tarkibiy komponentlarini ko‘rsating.

- A. O‘qituvchi – o‘quvchi – pedagogik jamoa.
- B. Maqsad – loyiha – algoritm.
- C. Maqsad – qonun-qoidalar – mazmun – metod – vositalar – shakl.
- D. Darslik – ko‘rgazma materiallar – darslik – metodik qo‘l-lanmalar.
- E. Dastur – reja – darsliklar.

32. Pedagogik texnologiyaning ta’lim sohasidagi mexanizmlariga nimalar kiradi?

- A. Ta’lim muassasalarida ijodiy muhit yaratish, ilmiy pedagogik xodimlar orasida tashabbuskorlik va yangilikka bo‘lgan qiziqishni orttirish.
- B. Ta’lim sohasidagi ijodkorlikni, yangiliklarni qabul qilish va keng yoyish uchun ijtimoiy sharoitlarni yaratish.
- C. Izlanuvchanlik faoliyatini rag‘batlantirish, uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash mexanizmini ishga solish.
- D. Nisbatan istiqbolli yangiliklarni, samarali loyihalarni amalda harakatdagi ta’lim tizimiga joriy etish, to‘plangan yangilik va tajribalarni doimiy harakatdagi umumta’lim tizimi rejimiga singdirish.
- E. Hamma javoblar to‘g‘ri.

33. Ta’lim tizimida inson faoliyati bilan bog‘liq muammolarni hal etish uchun qanday ishni amalga oshirish kerak?

- A. Ilmiy-texnik jarayonning o‘zgarishi bilan bog‘liq holda ta’lim nazariyasini yaratish, ya’ni fanni jamiyatning faol, samarali ishlab chiqarish kuchiga aylantirish lozim.
- B. Jamiyatdagi o‘zgarishlar inson faoliyati bilan bog‘liqligini hisobga olgan holda ta’lim tizimini o‘zgartirish yo‘llarini ishlab chiqish.
- C. Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalananishni yo‘lga qo‘yish lozim.
- D. A va B javoblar to‘g‘ri.
- E. Hamma javoblar to‘g‘ri.

34. O‘quv jarayonining loyihalanishiga texnologik jihatdan yondashilganda u qanday bosqichlarga ega bo‘ladi?

- A. Ta’lim bosqichining umumiy maqsadini belgilab olish.
- B. Umumiy maqsadni shakllantirishdan uni ixtisoslashtirishga o‘tish.
- C. O‘quvchilarning bilim darajasini tashxis qilish.
- D. A va B javoblar to‘g‘ri.
- E. Hamma javoblar to‘g‘ri.

35. Quyidagilardan pedagogik texnologiya tamoyillarini aniqlang.

- A. Maqsadga yo‘naltirilganlik **va** ta’lim-tarbiya natijasining kafolatligi.
- B. Tizimlilik, yaxitlik, ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish
- C. O‘qitib tadqiq etish, tadqiq etib o‘qitish, faoliyatli yondashuv.
- D. Ilmiylik tamoyili, Pedagogik diagnostika.
- E. Hamma javoblar to‘g‘ri.

36. Quyidagi javoblardan pedagogik texnologiya tamoyillarini aniqlang.

- A. Didaktik materiallardan keng foydalanish.
- B. O‘quv jarayoni uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik bazani yaratish.
- C. O‘quv-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona baholash.
- D. A, B, C javoblar to‘g‘ri.
- E. Hamma javoblar to‘g‘ri.

37. Masofaviy ta’limning tarkibiy qismlarini ayting.

- A. O‘quvchi va kommunikatsiya.
- B. O‘qituvchi, o‘quvchi va kommunikatsiya.
- C. O‘quvchi, kommunikatsiya va ta’lim mazmuni.
- D. O‘quvchi, kompyuter va internet.
- E. O‘qituvchi, o‘quvchi va didaktik materiallar.

38. Masofaviy ta’limning didaktik tizimi nimalarni o‘z ichiga oladi?

- A. Ta’lim maqsadi, mazmuni, metod va vositalari ta’limning tashkiliy shakllari, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, nazorat, normativ-huquqiy, iqtisodiy asoslar, marketing.

- B. Ta'lim mazmuni, metod va vositalari, o'qituvchilar, o'quvchilar.
- C. O'qituvchilar, o'quvchilar, ta'lim shakllari, metod va vositalari.
- D. Kompyuter, internet, va boshqa didaktik materiallar.
- E. Hamma javoblar to'g'ri.

39. Masofadan o'qitishning metodik vositalarini ko'rsating.

- A. Darslik, audio va videodarsliklar, veb-saytlar.
- B. Elektron kutubxonalar, matnlar, elektron darsliklar.
- C. O'quv reja, darslik va dasturlar.
- D. Ko'rgazmali materiallar, internet, videokonferensiya.
- E. A va B javoblar to'g'ri.

40. Masofadan o'qitish prinsiplari ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

- A. Ta'limning insonparvarlik prinsipi, o'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik yondashuvning ustivorligi.
- B. Ilmiylik prinsipi.
- C. Ko'rgazmalilik prinsipi.
- D. Tizimlilik va izchillik prinsipi.
- E. Hamma javoblar to'g'ri.

41. Masofaviy o'qitish jarayonining o'ziga xosliklari nimalarda ko'rinishi?

- A. Egiluvchanlik.
- B. Modullilik.
- C. Parallelilik.
- D. O'zaro ta'sir etish.
- E. Hamma javoblar to'g'ri.

42. Masofadan o'qitish prinsiplarini aniqlang.

- A. Onglilik va faollik prinsipi, ko'rgazmalilik, bilimlarning mustahkamligi prinsiplari.
- B. Ta'lim mazmunini tanlash, axborot xavfsizligi, ta'limning boshlang'ich darajasi, moslik prinsirlari.
- C. Insonparvarlik, tushunarilik prinsirlari.
- D. A va B javoblar to'g'ri.
- E. Hamma javoblar to'g'ri.

43. Masofadan o‘qitish tizimida o‘qitish vositalari qanday amalgamoshiriladi?

- A. O‘qituvchi vositasida.
- B. Didaktik jarayonda.
- C. Yangi axborot texnologiyalari vositasida.
- D. Darslik va o‘quv qo‘llanmalari vositasida.
- E. Ko‘rgazmali vositalar orqali.

44. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida motiv hosil qilishda nima ko‘proq ahamiyatli?

- A. Pedagogik mahorat.
- B. O‘qituvchi nutqi.
- C. Noan’anaviy darslar.
- D. O‘quvchi faolligi.
- E. Didaktik o‘yinlar.

45. Didaktik o‘yinlarning tarkibiy komponentlari ko‘rsatilgan qatopni aniqlang.

- A. O‘yin rejasi, o‘yining tashkillashtirilishi.
- B. O‘yin mazmuni.
- C. O‘yin mantiqi, o‘yin harakati, o‘yin qoidasi.
- D. O‘yinning o‘rnida qo‘llanishi.
- E. Hamma javoblar to‘g‘ri.

46. Didaktik o‘yin turlarini aniqlang.

- A. Og‘zaki, so‘zlar yordamida o‘ynaladigan o‘yinlar.
- B. O‘yin mashg‘ulotlari.
- C. Harakatli o‘yinlar.
- D. A va C javoblar to‘g‘ri.
- E. Hamma javoblar to‘g‘ri.

47. Foydalaniladigan material turiga qarab didaktik o‘yinlar necha turga bo‘linadi?

- A. 2 turga.
- B. 3 turga.
- C. 4 turga

- D. 5 turga.
- E. 6 turga.

48. So‘zlar vositasida o‘ynaladigan og‘zaki o‘yinlarni aniqlang.

- A. Zanjir, noto‘g‘ri jumla, bo‘lishi mumkin emas.
- B. O‘xhash suratlar, domino, kesma suratlar, taxlama kubiklar.
- C. Tabiiy materuallar bo‘laklaridan butun manzarani hosil qilish.
- D. A va C javoblar to‘g‘ri.
- E. Hamma javoblar to‘g‘ri.

49. Stol ustida o‘ynaladigan o‘yin turlarini aniqlang.

- A. Zanjir, noto‘g‘ri jumla, bo‘lishi mumkin emas.
- B. O‘xhash suratlar, domino, kesma suratlar, taxlama kubiklar.
- C. Tabiiy materuallar bo‘laklaridan butun manzarani hosil qilish.
- D. A va C javoblar to‘g‘ri.
- E. Hamma javoblar to‘g‘ri.

50. O‘qituvchi hikoyadagi noto‘g‘ri gapni topish yoki hikoya mazmuniga mos bo‘lмаган gapni topishni aytadi. Bu qanday o‘yin turiga kiradi?

- A. O‘yin musobaqa.
- B. Mazmunli rolli o‘yinlar.
- C. Bilishga doir o‘yinlar.
- D. O‘yin mashq.
- E. Ijodiy izlanish o‘yini.

51. Qatorlararo musobaqalar, konkurslar, olimpiadalar qanday o‘yin tiriga kiradi?

- A. O‘yin musobaqa.
- B. Mazmunli rolli o‘yinlar.
- C. Bilishga doir o‘yinlar.
- D. O‘yin mashq.
- E. Ijodiy izlanish o‘yini.

52. O‘quvchilar O‘zbekiston va boshqa mamlakatlar haqidagi bilimlarga ega bo‘lganlaridan keyin bilimlar yurtiga «sayohat» o‘tkazadilar. Bu qaysi o‘yin turiga kiradi?

- A. O‘yin musobaqa.

- B. Mazmunli rolli o‘yinlar.
- C. Bilishga doir o‘yinlar.
- D. O‘yin mashq.
- E. Ijodiy izlanish o‘yini.

53. «Modul» so‘zining lug‘aviy ma’nosi to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.

- A. Bo‘laklar.
- B. Me’yor, o‘lchov.
- C. Alovida qismlar.
- D. Mazmun, mohiyat.
- E. Metid, usul.

54. Modulli ta’lim prinsiplarini aniqlang.

- A. Ta’limning konstruktivligi, maqsadlarning aniqliligi, ta’limning qulayligi, ta’sirlarning tizimliligi.
- B. Ta’limning ixchamligi, ta’limni individuallashtirish, metodik maslahatlarning turli xilligi.
- C. Ta’limning qilayligi, izchilligi, samaradorligi, ko‘rgazmaliligi.
- D. A va B javoblar to‘g‘ri.
- E. B va C javoblar to‘g‘ri.

55. Modul tarkibi nimalarni o‘z ichiga oladi?

- A. Ta’sirlarning maqsadli rejasi.
- B. Axborot banki.
- C. Didaktik maqsadlarga erishishga metodik rahbarlik.
- D. A va B javoblar to‘g‘ri.
- E. Hamma javoblar to‘g‘ri.

56. Modul nima?

- A. Modul pedagogik jarayon bo‘lib, o‘quvchilarning bilim olishlarini tezlashtiradi.
- B. Modul – pedagogik tizimning bir bo‘lagi.
- C. Modul – ta’lim mazmuni va uning texnologiyasini birlashtirgan yuqori darajadagi yaxlit tizim.

- D. Modul o'quvchilarnng o'qish motivlarini o'stiradigan va bilimga qiziqtiradigan tuzilma.
- E. Modul o'qituvchi ishining aniq rejalashtirilgan ko'rinishi.

57. Modulli ta'larning boshqa ta'lim tizimlaridan farqini ko'rsating.

- A. Ta'lim mazmuni alohida tugallangan mustaqil qismlar (bloklar) dan iborat bo'lishi va ularni o'zlashtirish ta'lim maqsadlaridan kelib chiqishi.
- B. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot individual tarzda yoki modullar asosida o'tadi.
- C. Har bir o'quvchi o'z faoliyati davomida vaqtining ko'p qismini mustaqil ishlashga, maqsad asosida o'qishga, ishni rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat qilish va tekshirishga bag'ishlaydi.
- D. O'qituvchi o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini modullar orqali yoki bevosita boshqaradi.
- E. Hamma javoblar to'g'ri.

58. Interaktiv usullarning nechta turi mavjud?

- A. 2 ta.
- B. 3 ta.
- C. 4 ta.
- D. 5 ta.
- E. 6 ta.

59. Quyidagilardan interaktiv usullarni aniqlang.

- A. Kognitiv usullar.
- B. O'yinlar, eksperimental faoliyat.
- C. Ishbilarmonlik o'yinlari, modellashtirish.
- D. Amaliyot orqali o'qitish, bevosita faoliyat.
- E. Hamma javoblar to'g'ri.

60. «Aqliy hujum» qanday usul?

- A. Ko'plab g'oyalarni ishlab chiqadigan usul.
- B. O'quvchining faolligiga tayangan usul.
- C. Ko'rgazmali usul.

- D. O‘qituvchi uchun qulay usul.
- E. Guruhda qo‘llaniladigan usul.

61. O‘quvchilarda mustaqil ishlash malakalari qanday yo‘llar orqali shakllantiriladi?

- A. O‘z-o‘zini tahlil qilishga, o‘z maqsadini aniq bilishga o‘rgatish;
- B. O‘z ishini rejalashtirish, o‘z ishini tashkil etishga o‘rgatish;
- C. O‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarishga o‘rgatish;
- D. A va B javoblar to‘g‘ri.
- E. Hamma javoblar to‘g‘ri.

MUNDARIJA

So‘zboshi.....	3
----------------	---

I BO‘LIM

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING NAZARIY ASOSLARI

1-mavzu: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar fanining predmeti va vazifalari.....	6
2-mavzu. Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish – ijtimoiy zaruriyat..	13
3-mavzu. Zamonaviy pedagogik texnologiya nazariyasining umumiy asoslari.....	22
4-mavzu. Ta’lim texnologiyasida bola shaxsi obyekt va subyekt sifatida.....	28
5-mavzu. Ta’lim jarayonida texnologik yondashuv tamoyillari.....	35
6-mavzu. Masofaviy ta’lim texnologiyasi.....	40
7-mavzu. Didaktik o‘yinlarning o‘quvchi shaxsini shakllanishidagi o‘rni	55
8-mavzu. Boshlang‘ich sinfda modulli o‘qitish texnologiyasi.....	79
9-mavzu: Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar.....	84
10-mavzu: Ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish.....	91

II BO‘LIM

AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN METODIK MASLAHATLAR

Boshlang‘ich sinf o‘qish darsining algoritmi.....	119
Aniq modullar asosida tayyorlangan o‘qish darsining ishlanmasi.....	130
Internet orqali ta’lim va uning imkoniyatlari.....	135
Mustaqil ishlash uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar.....	139
Nazorat testlari.....	142

Tal'at G'afforova

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR**

*Boshlang'ich ta'limga qituvchilari hamda
boshlang'ich ta'limga sport tarbiyaviy ishlash
yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma*

Muharrir Z. Mirzahakimova
Badiiy muharrir O. Muxtarov
Texnik muharrir H. Safaraliyev
Sahifalovchi L. Soy

Terishga 01.09.2011-yilda berildi. Bosishga 20.10.2011-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 60x90^{1/16}. «Times» garniturası. Ofset bosma.

Shartli bosma tabog'i 10,0. Nashriyot-hisob tabog'i 9,8.

Adadi 25000 nusxa. Buyurtma № 1958

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.**



ISBN 978-9943-24-004-9

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-24-004-9. Below the barcode, the numbers 9 789943 240049 are printed vertically.